anxiety and fear of negative evaluation [1]. Later studies confirmed that anxiety is not limited to individual personality but is also influenced by pedagogical and social factors in the classroom. Young emphasized teacher beliefs, learner beliefs, classroom procedures, interaction patterns and testing practices as important anxiety sources [3].

The classroom environment plays a central role because it is the main place where many learners use the foreign language. Supportive teachers, clear instructions, respectful feedback and predictable classroom organization can reduce anxiety. In contrast, public criticism, ridicule, excessive correction and constant comparison may intensify learners' fear of making mistakes [4; 5]. Research also shows that anxiety may start in earlier educational stages and later appear at university as low confidence and avoidance of communication [6; 7]. Therefore, FLA should be studied not only as a present classroom reaction but also as a cumulative result of previous learning experience.

3. METHODOLOGY

The study used a mixed-method design. The quantitative part was based on the Foreign Language Classroom Anxiety Scale (FLCAS), which helped identify the general presence of anxiety among first-year university students. The qualitative part consisted of semi-structured interviews with students who reported noticeable anxiety. All participants had studied English during their primary and secondary education before entering university, which made it possible to collect retrospective data about their earlier classroom experiences.

The interview questions focused on teacher behavior, classroom management, error correction, assessment, peer reactions and students' own feelings during English lessons. The questionnaire data were analyzed descriptively, while the interview data were examined thematically according to repeated ideas and meanings. This combination made it possible to understand both the level of anxiety and the classroom conditions that students associated with it [8].

4. RESULTS

The results showed that anxiety was most visible in speaking and evaluation situations. Students felt nervous when they had to answer questions without preparation, speak in front of the class or participate in oral assessment. Fear of making mistakes was the most frequent theme. Many students described mistakes not as a normal part of learning but as a reason for embarrassment. This fear was often linked

to memories of being corrected harshly, laughed at by classmates or compared with stronger learners.

Teacher behavior appeared as another important source of anxiety. Students associated lower anxiety with teachers who explained patiently, encouraged participation and corrected errors politely. Higher anxiety was connected with shouting, sarcasm, public criticism and immediate correction of every mistake. Classroom management also mattered. Poorly organized lessons, noisy classrooms and limited speaking opportunities made weaker learners feel invisible and insecure.

Evaluation practices also contributed to anxiety. Students reported that tests and oral questioning created pressure when assessment was perceived as punishment rather than feedback. As a result, some learners avoided speaking even when they knew the answer. This avoidance protected them from immediate embarrassment, but it reduced practice and strengthened the belief that they were weak language learners.

5. DISCUSSION

The findings support the view that FLA is partly constructed in the classroom. Students did not explain their anxiety only through personal weakness or lack of effort. They connected it with repeated pedagogical experiences, especially negative correction, fear of judgement and stressful assessment. This confirms earlier research suggesting that anxiety develops through the interaction between individual characteristics and learning conditions [2; 3].

The retrospective accounts are important because they show that earlier classroom events can have long-term emotional effects. A student who once experienced humiliation during speaking may continue to feel anxious even in a new classroom. Thus, university teachers often deal not only with present language difficulties but also with emotional traces left by earlier instruction. For this reason, mistakes should be treated as useful learning information, not as evidence of failure.

The study also highlights the need for emotionally safe classroom practices. Teachers can reduce anxiety by giving preparation time, using pair or group work before public speaking, correcting errors selectively and respectfully, and explaining assessment criteria clearly. Such practices do not lower academic standards; rather, they make learning more accessible and communicative. Teacher education programs should therefore include training on emotional awareness, feedback style and classroom interaction.

6. CONCLUSION

Foreign language anxiety among university students can be understood as a classroom-constructed phenomenon shaped by accumulated learning experiences. The study showed that anxiety is strongly connected with teacher behavior, error correction, classroom management, assessment practices and fear of peer judgement. Negative classroom experiences may reduce confidence and willingness to communicate long after they occur.

The main pedagogical implication is that foreign language teachers should create structured, respectful and communicative classrooms where students feel safe to participate. Supportive feedback, fair assessment and positive treatment of mistakes can help learners rebuild confidence. Future research may involve larger groups of students and direct classroom observation to examine how specific teaching strategies reduce anxiety over time.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J.A. Foreign language classroom anxiety // The Modern Language Journal. - 1986. - Vol. 70, No. 2. - P. 125-132.

2. MacIntyre P.D., Gardner R.C. Methods and results in the study of anxiety and language learning: A review of the literature // Language Learning. - 1991. - Vol. 41, No. 1. - P. 85-117.

3. Young D.J. Creating a low-anxiety classroom environment: What does language anxiety research suggest? // The Modern Language Journal. - 1991. - Vol. 75, No. 4. - P. 426-437.

4. Price M.L. The subjective experience of foreign language anxiety: Interviews with highly anxious students // Language anxiety: From theory and research to classroom implications / Ed. by E.K. Horwitz, D.J. Young. - Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1991. - P. 101-108.

5. Worde R. Students' perspectives on foreign language anxiety // Inquiry. - 2003. - Vol. 8, No. 1. - P. 1-15.

6. Chan D.Y., Wu G.C. A study of foreign language anxiety of EFL elementary school students in Taipei County // Journal of National Taipei Teachers College. - 2004. - Vol. 17, No. 2. - P. 287-320.

7. Ay S. Young adolescent students' foreign language anxiety in relation to language skills at different levels // The Journal of International Social Research. - 2010. - Vol. 3, No. 11. - P. 83-91.

8. Braun V., Clarke V. Thematic analysis // APA handbook of research methods in psychology / Ed. by H. Cooper. - Washington, DC: American Psychological Association, 2012. - P. 57-71.

9. Aida Y. Examination of Horwitz, Horwitz, and Cope's construct of foreign language anxiety: The case of students of Japanese // The Modern Language Journal. - 1994. - Vol. 78, No. 2. - P. 155-168.

10. Phillips E.M. The effects of language anxiety on students' oral test performance and attitudes // The Modern Language Journal. - 1992. - Vol. 76, No. 1. - P. 14-26.

MAKTAB DARSLIKLARIDA NOSTANDART TESTLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Ismoilova Aziza Tohir qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Ismoilovaa640@gmail.com

Ilmiy rahbar : f.f.f.d., dots S.Rahimova

Annotatsiya*: Mazkur maqolada maktab darsliklarida nostandart testlarning o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Nostandart testlarning o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodiy yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy va nostandart testlar o‘rtasidagi farqlar ochib berilib, ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: nostandart test, ta’lim jarayoni, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, baholash, metodika*

Аннотация*: В данной статье подробно рассматривается роль и значение нестандартных тестов в школьных учебниках. Освещается их влияние на развитие логического мышления, творческого подхода и навыков самостоятельного принятия решений у учащихся. Также анализируются различия между традиционными и нестандартными тестами и их роль в повышении эффективности обучения.*

Ключевые слова: *нестандартные тесты, образовательный процесс, логическое мышление, творческий подход, оценивание, методика*

Abstract: *This article provides a detailed analysis of the role and importance of non-standard tests in school textbooks. It highlights their impact on developing*

students' logical thinking, creativity, and independent decision-making skills. The differences between traditional and non-standard tests are examined, and their importance in improving educational effectiveness is justified.

Keywords: *non-standard tests, educational process, logical thinking, creativity, assessment, methodology*

Bugungi kunda ta'lim tizimi tubdan yangilanib, o'quvchilarning bilimini baholashda zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. An'anaviy testlar uzoq yillar davomida asosiy baholash vositasi bo'lib kelgan bo'lsa-da, ular o'quvchining faqat reproduktiv bilimini aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim esa o'quvchidan mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va ijodiy yondashuvni talab etadi. Shu sababli nostandart testlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Nostandart testlar o'quvchilarning bilim darajasini chuqurroq aniqlash, uning tafakkurini rivojlantirish hamda o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, maktab darsliklarida bunday testlarning o'rin olishi o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qiladi. Metodist olimlarning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida nostandart topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [4; 42-44]

Nostandart testlar an'anaviy testlardan o'zining mazmuni va shakli bilan farq qiladi. Chunki ularda shakl va mazmun jihati noodatiy tarzda tuzilib o'quvchiga taqdim etiladi. Agar an'anaviy testlar ko'proq yopiq savollardan iborat bo'lsa, nostandart testlar ochiq savollar, muammoli vaziyatlar, tahliliy va ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchining faqat bilimini emas, balki uning tanqidiy va tahliliy fikrlash jarayonini ham baholash imkonini beradi [4;56]. Nostandart testlarning muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashidir. Masalan, matn asosida savollar tuzish, muayyan vaziyatga baho berish yoki o'z fikrini asoslab yozish kabi topshiriqlar o'quvchining tafakkurini rivojlantiradi.[2; 67-68] Bu

esa ularning kelajakdagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, nostandart topshiriqlar o‘quvchilarning bilimni chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, nostandart testlar o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. O‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda etishga, dalillar keltirishga va xulosalar chiqarishga o‘rganadi. Bu ayniqsa ona tili va adabiyot fanlarida samarali natija beradi. Chunki ushbu fanlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga qaratilgan [3; 66-67].

Nostandart testlar o‘qituvchiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashi, ularning kuchli va zaif tomonlarini baholashi mumkin. Har bir o‘quvchi turlicha fikrlaganligi sababli, turli xil topshiriqlar orqali ularning bilim darajasi yanada aniqroq baholanadi . Bundan tashqari maktab darsliklarining ko’pchiligida turli darajaga oid bo’lgan topshiriq va matnlar joy olgan bo’lib, ular orqali o’quvchilarda ham turli darajadagi o’zlashtirish qobiliyatlarini ko’rishimiz mumkin. [1; 34-35]. Bundan tashqari, nostandart testlar o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Ular o‘quvchini tayyor javobni tanlashga emas, balki o‘z javobini yaratishga undaydi. Bu esa o‘quvchining faolligini oshiradi va dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aynan shunday yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi [4; 89]. Yana bir muhim jihat shundaki, nostandart testlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchi berilgan ma’lumotni tahlil qiladi, taqqoslaydi va mustaqil xulosa chiqaradi. Bu esa ularning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Deyarli barcha darslikda an’anaviy tarzdagi yondashuvlardan qochib, yangi tipdagi topshiriqlar o’rin egallaganini aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktab darsliklarida nostandart testlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki tafakkurini, ijodiy qobiliyatini va mustaqil

fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nostandart testlar orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi va muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi. Tilshunoslik ilmini faqat nazariy qoidalardan iborat emasligini , tilni tizimli ravishda o’rganishda faqat nazariy tomondan o’rganish emas, balki metodikalarga boy tarzda noan’anaviy tarzda o’tkazish o’quvchilarda tez va samarali o’qitishni oson qiladi. Shu bois, zamonaviy maktab darsliklarida nostandart testlar ulushini oshirish, ularni tizimli ravishda qo‘llash va metodik jihatdan takomillashtirish zarur. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, fikrlovchi va ijodkor yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ona tili fanining o’rni va ahamiyati ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi . 6-sinf uchun darslik . – Toshkent : Respublika ta’lim markazi , 2022. – 256 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi . 7- sinf uchun darslik . – Toshkent : Respublika ta’lim markazi , 2022. – 224 b.
3. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi . 8- sinf uchun darslik . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi , 2025. – 210 b.
4. To’xliyev B. O’zbek tili o’qitish metodikasi . – Toshkent : Kamalak, 2006. – 192 b.
5. www. ziyo.net

TALABALARNING INGLIZ TILIDA MUSTAQIL YOZISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Jumaboyeva Adolat Davronbekovna

Urganch davlat pedagogika instituti

adolatdavronbekovna1995@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda talabalarning ingliz tilida mustaqil yozish faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish, akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, bosqichma-bosqich o'qitish, feedback berish, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqil ta'lim, yozma nutq, esse, akademik yozuv, metodika, kompetensiya, feedback, interfaol metodlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические основы организации самостоятельной письменной деятельности студентов на английском языке. Освещаются методические подходы, направленные на формирование письменной речевой компетенции студентов, развитие навыков академического письма и творческого мышления в процессе самостоятельного обучения. Также показана важность поэтапного обучения, предоставления обратной связи, использования интерактивных методов и цифровых технологий.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, письменная речь, эссе, академическое письмо, методика, компетенция, обратная связь, интерактивные методы.*

Abstract: *This thesis analyzes the theoretical and practical foundations of organizing students' independent writing activities in English. It highlights methodological approaches aimed at developing students' written communicative competence, academic writing skills, and creative thinking abilities in the process of independent learning. The study also emphasizes the importance of step-by-step instruction, providing feedback, using interactive methods, and applying digital technologies.*

Keywords: *Independent learning, written speech, essay, academic writing, methodology, competence, feedback, interactive methods.*

Kirish

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish jarayonida mustaqil yozish faoliyati talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ingliz tilida mustaqil yozish ko'nikmasi talabalarning grammatik bilimlarini mustahkamlash, lug'at boyligini kengaytirish va fikrni mantiqiy bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yozma nutq insonning fikrlash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, u talabaning tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini namoyon etadi. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda mustaqil yozish faoliyatini samarali tashkil etish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn platformalar, elektron

resurslar va sun’iy intellekt vositalari talabalarning mustaqil yozish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

Asosiy qism

Mustaqil yozish faoliyatining ahamiyati: Mustaqil yozish faoliyati talabalarning ingliz tilida erkin fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalar nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtiradilar, balki o‘z fikrini mantiqiy va izchil tarzda bayon qilishni ham o‘rganadilar. Yozish jarayoni talabalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ingliz tilida yozish ko‘nikmasi kelajakda pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagog o‘z fikrini aniq va ravon ifodalay olishi, turli yozma hujjatlar bilan ishlay olishi lozim.

Bosqichma-bosqich yondashuv

Mustaqil yozish faoliyatini tashkil etishda bosqichma-bosqich yondashuv muhim ahamiyatga ega. Dastlab talabalarga namunaviy matnlar taqdim etiladi va ularning tuzilishi tahlil qilinadi. Bu bosqichda talabalar esse, maqola yoki rasmiy xatning kompozitsion xususiyatlari bilan tanishadilar.

Keyingi bosqichda talabalarga qisqa yozma topshiriqlar beriladi. Masalan, muayyan mavzu yuzasidan fikr bildirish, savollarga yozma javob berish yoki qisqa paragraph yozish kabi vazifalar bajariladi. Bu jarayon talabalarning yozishga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Uchinchi bosqichda esa talabalar mustaqil ravishda to‘liq esse, maqola va akademik matnlar yozishga jalb qilinadi. Bu bosqichda ular o‘z fikrini mantiqiy asoslash, dalillar keltirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Feedback va tahlil jarayoni

Mustaqil yozish jarayonida feedback muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabalarning ishlarini tahlil qilib, grammatik, leksik va stilistik xatolarni ko‘rsatib boradi. Bu jarayon talabalarga o‘z xatolarini anglash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Feedback ikki turda amalga oshirilishi mumkin:

- o‘qituvchi feedback’i;
- peer feedback, ya’ni talabalarning bir-birining ishlarini baholashi.

Peer feedback talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Interfaol metodlardan foydalanish

Mustaqil yozish faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Brainstorming, clustering, mind mapping kabi metodlar talabalarning g‘oyalarini tizimlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, collaborative writing usuli ham samarali hisoblanadi. Bu usulda talabalar guruh bo‘lib ishlaydilar va birgalikda matn yaratadilar. Natijada ularning muloqot ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Raqamli texnologiyalarning o‘rni

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Google Docs, Grammarly, Moodle va boshqa platformalar talabalarning mustaqil yozish jarayonini yengillashtiradi.

Ayniqsa, Grammarly kabi platformalar orqali talabalar o‘z xatolarini mustaqil ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talabalarning ingliz tilida mustaqil yozish faoliyatini tashkil etish ularning yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bosqichma-bosqich yondashuv, interfaol metodlar, feedback tizimi va

raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning akademik yozish mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqil yozish faoliyati talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitish jarayonida mustaqil yozish faoliyatiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jeremy Harmer. *The Practice of English Language Teaching*. — London: Pearson Education Limited, 2015.
2. Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers. *Approaches and Methods in Language Teaching*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
3. H. Douglas Brown. *Principles of Language Learning and Teaching*. — New York: Pearson Education, 2014.
4. Ken Hyland. *Second Language Writing*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
5. Dana R. Ferris. *Response to Student Writing: Implications for Second Language Students*. — New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2012.

AI-BASED FEEDBACK SYSTEMS IN IMPROVING WRITING SKILLS AMONG EFL LEARNERS

O‘zbekova Hulkaroy Abduqayum qizi
Uzbekistan State University of World Languages
hulkaroy205@gmail.com
Zaripov Feruz Husan o‘g‘li
Uzbekistan State University of World Languages
feruzbek-master@mail.ru

Abstract. *The integration of artificial intelligence into educational environments has significantly influenced language learning practices, particularly in the development of writing skills. This study examines the effectiveness of AI-based feedback systems in supporting English as a Foreign Language (EFL) learners during the writing process. Data for the research were collected through an online survey involving 32 participants from different age groups and language proficiency levels. The findings suggest that most students perceive AI-powered tools as beneficial for improving grammatical accuracy, vocabulary usage, and overall confidence in writing. At the same time, several respondents expressed concerns regarding overdependence on AI systems and the occasional inaccuracy of automated feedback. The study indicates that AI technologies can serve as valuable supplementary tools in writing instruction when combined with teacher guidance and critical learner engagement.*

Keywords*: artificial intelligence, writing skills, EFL learners, feedback systems, digital learning*

Introduction

The growing use of artificial intelligence in education has transformed many aspects of language learning and academic writing. In recent years, AI-based feedback systems have become increasingly accessible to students, offering immediate assistance with grammar correction, vocabulary selection, coherence, and sentence structure. As digital technologies continue to develop, learners are becoming more dependent on automated writing support tools in both formal and informal educational contexts.

Writing remains one of the most demanding skills for EFL learners due to the complexity of organizing ideas, maintaining grammatical accuracy, and using appropriate vocabulary. Traditional teacher feedback plays a central role in improving students' writing performance; however, technological tools now provide additional opportunities for independent learning and self-correction. Applications such as Grammarly and ChatGPT allow learners to receive immediate feedback, which may contribute to more active engagement in the writing process.

The present study aims to investigate students' perceptions of AI-based feedback systems and their influence on writing development among EFL learners. In addition, the research explores both the benefits and the potential limitations associated with the use of AI technologies in writing instruction.

Literature Review

Research on artificial intelligence in language education has increased significantly in recent years, particularly in relation to writing instruction and automated feedback systems. Many scholars emphasize that timely and constructive feedback plays an essential role in improving learners' writing performance and developing language accuracy.

According to Hyland (2003), feedback enables learners to recognize weaknesses in their writing and gradually improve their linguistic competence. Similarly, Ferris

(2006) argues that corrective feedback contributes to the development of grammatical accuracy and encourages students to revise their written work more effectively.

With the rapid advancement of digital technologies, AI-based writing assistants have become increasingly popular in educational settings. Applications such as Grammarly and ChatGPT provide immediate feedback on grammar, vocabulary, punctuation, and sentence structure. Researchers suggest that such technologies may increase learner autonomy and motivation by allowing students to revise their work independently and receive instant corrections.

Recent studies also indicate that AI-assisted learning environments can positively influence students' confidence and engagement in writing tasks. Luckin (2018) notes that artificial intelligence has the potential to personalize learning experiences and support individual learner needs. In addition, UNESCO (2021) highlights the growing importance of AI technologies in modern education and their role in improving access to learning resources.

Despite these advantages, several concerns regarding AI-based feedback systems remain. Some researchers argue that excessive dependence on automated technologies may reduce students' critical thinking skills and creativity. Others point out that AI-generated feedback may occasionally provide inaccurate or overly generalized suggestions. Therefore, scholars emphasize that AI tools should function as supplementary educational resources rather than complete replacements for teacher feedback.

Overall, previous research demonstrates that AI-based feedback systems can contribute positively to writing development when integrated appropriately into language learning environments. However, further research is needed to examine learners' perceptions and practical experiences related to the use of AI technologies in writing instruction.

Methodology

This study employed a quantitative research design to investigate the impact of AI-based feedback systems on improving writing skills among EFL learners. The research focused on students' perceptions and experiences related to the use of AI technologies during the writing process.

Data were collected through an online questionnaire developed using Google Forms. The survey included demographic questions, multiple-choice items, Likert-scale statements, and one open-ended question designed to gather participants' opinions regarding the effectiveness of AI-based feedback systems.

The participants of the study consisted of 32 students representing different age groups and English proficiency levels. Participation in the survey was voluntary, and respondents completed the questionnaire anonymously.

The collected data were analyzed using descriptive statistical methods, including percentage and frequency analysis. The responses were interpreted to identify common attitudes, perceived advantages, and challenges associated with the use of AI tools in writing instruction.

Results and Discussion

The findings of the study indicate that AI-based feedback systems are generally perceived positively by EFL learners. Most participants reported that AI tools assist them in identifying grammatical mistakes, improving vocabulary usage, and organizing ideas more effectively during the writing process.

A considerable number of respondents stated that AI-generated feedback contributed to greater confidence in writing tasks. Participants also noted that receiving immediate corrections allowed them to recognize recurring mistakes and revise their work more independently. These findings support the view that AI technologies can encourage learner autonomy and active engagement in writing development.

Among the tools mentioned by participants, ChatGPT was identified as one of the most frequently used platforms for writing support. Several respondents also referred to Grammarly as a useful tool for correcting grammatical and lexical errors.

At the same time, the study revealed several limitations associated with AI-based feedback systems. Some participants expressed concerns regarding inaccurate suggestions and difficulties in understanding automated corrections. Others emphasized that excessive dependence on AI technologies may negatively affect creativity and independent thinking skills.

Another significant finding of the study is that many respondents continued to value teacher feedback despite the growing use of AI tools. This suggests that AI-based systems should not be viewed as replacements for teachers but rather as supplementary resources that can support the writing process when used appropriately.

Overall, the findings demonstrate that AI technologies can positively influence writing development; however, their effectiveness largely depends on balanced and critical use within educational contexts.

Conclusion

This study examined the role of AI-based feedback systems in improving writing skills among EFL learners. The findings revealed that students generally perceive AI technologies as beneficial tools for enhancing grammatical accuracy, vocabulary usage, idea organization, and overall writing confidence.

The research also identified several challenges related to the use of AI systems, including overreliance on automated feedback and occasional inaccuracies in AI-generated suggestions. Furthermore, the study demonstrated that students continue to recognize the importance of teacher feedback in the writing process.

Based on the findings, it can be concluded that AI-based feedback systems have the potential to support language learning and writing instruction when used

responsibly and in combination with traditional educational methods. Future studies may involve larger participant groups and more detailed analyses of the long-term effects of AI technologies on writing development among EFL learners.

References

1. Bitchener J., Ferris D. Written corrective feedback in second language acquisition and writing. — Routledge, 2012.
2. Ferris D. Does error feedback help student writers? // Feedback in second language writing: Contexts and issues / ed. by Hyland K., Hyland F. — Cambridge University Press, 2006. — P. 81–104.
3. Hyland K. Second language writing. — Cambridge University Press, 2003.
4. Luckin R. Machine learning and human intelligence: The future of education for the 21st century. — UCL Institute of Education Press, 2018.
5. UNESCO. AI and education: Guidance for policy-makers. — 2021. — URL: https://www.unesco.org
6. Ranalli J. Automated written corrective feedback: How well can students make use of it? // Computer Assisted Language Learning. — 2018. — Vol. 31, № 7. — P. 653–674.
7. Li J., Link S. Artificial intelligence and second language writing: Opportunities and challenges for learners and teachers // Journal of Second Language Writing. — 2022. — Vol. 57. — Article 100892.
8. Warschauer M. Laptops and literacy: Learning in the wireless classroom. — Teachers College Press, 2006.

ADABIY TA’LIMDA SHAXSNI TARBIYALASHDA MANTIQIY FIKRLASH MASALASI

To‘ychiyeva Mahfuza

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

mahfuzatuychiyeva3@gmail.com

Annotatsiya: *O‘quvchilarda ma’naviy sifatlar bilan birga mantiqiy, tanqidiy, ijodiy, hamkorlikka asoslangan fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda to‘g‘ri fikrlashni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Butun dunyo zamonaviy ta’limida maqsad fikrlaydigan, o‘rganganlaridan o‘z va jamiyat manfaati yo‘lida foydalana oladigan shaxslarni tarbiyalash bo‘lmoqda. Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish masalasida savol tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada savol masalasiga ikki rakursdan qaraladi: savollarga asoslangan pedagogikaga va savol-javob metodi. Har ikkalasining mantiqiy fikrlash jarayoniga ta’siri yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *savol, mantiqiy fikrlash, o‘quvchi, badiiy asar, dars*

Annotation: *Ensuring sound reasoning is crucial for developing logical, critical, creative, and collaborative thinking skills in students, as sound reasoning is a skill that must be cultivated. The goal of modern education worldwide is to nurture individuals who can think critically and apply what they have learned for the benefit of themselves and society. In the context of teaching logical thinking, the concept of the question holds particular significance. The article examines the issue of “the question” from two perspectives: question-based pedagogy and the question-and-answer method. The influence of both on the process of logical thinking is explored.*

Keywords: *question, logical thinking, student, literary work, lesson*

Аннотация: *Для развития у учащихся навыков логического, критического, творческого и основанного на сотрудничестве мышления важно обеспечить правильное мышление, поскольку это навык, над которым необходимо работать. Целью современного образования во всем мире является воспитание мыслящих личностей, способных использовать полученные знания во благо себя и общества. В вопросе обучения логическому мышлению особое значение приобретает понятие вопроса. В статье данный вопрос рассматривается с двух ракурсов: педагогика, основанная на вопросах, и вопросно-ответный метод. Освещается влияние каждого из них на процесс логического мышления.*

Ключевые слова: *вопрос, логическое мышление, учащийся, художественное произведение, урок*

Maktabda adabiy ta’lim o‘quvchilarda ma’naviy sifatlarni shakllantirish, kitobga mehr uyg‘otish, estetik didni oshirish bilan birga ularda SHAXSni tarbiyalashni maqsad qiladi. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ularda shaxslik sifatlarining hosil bo‘lishining asoslaridan deyish mumkin. Bu bilan ular hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qiladilar, turli g‘oyalarga ochiq, fikrlarga toqatli bo‘lishadi. O‘quvchilardagi befarqlik, o‘rtoqlarini tinglamaslik, bir-birlarining fikrlarini so‘zsiz qabul qilish, motivatsiyani yo‘qotish kabi holatlar aslida mantiqiy fikrlashning “ishlamasligidan” kelib chiqadigan holatlardir. Chunki dunyoda hamma narsa hatto fikrlar ham bir-biriga bog‘liq bo‘lib, nimagadir befarqlik, o‘sha narsa ortidan keladigan oqibatlar uni chetlab o‘tishiga olib kelmasligini, o‘rtog‘ining fikrni tinglamaslik yoki qabul qilaverish kabilar asorati ekanligini anglab boradi.

Butun dunyo zamonaviy ta’limda maqsad fikrlaydigan o‘rganganlaridan o‘z va jamiyat manfaati yo‘lida foydalana oladigan shaxslarni tarbiyalash ekanligi

ta’kidlanmoqda[5]. Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish masalasida savol tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada savollarga asoslangan pedagogikaning mantiqiy fikrlash jarayoniga ta’siri yoritiladi.

Ta’lim jarayonida rivojlanadigan mantiqiy fikrlash uchun doimiy, izchil jarayon talab etiladi. Bu jarayonda o‘quvchining savol bera olish ko‘nikmasi alohida “energiya” manbayi sifatida ko‘rilmoqda. Milliy metodikamizda deyarli o‘rganilmagan savol berish bilan o‘sish biz ko‘nikkan mavzuni tushunmagan o‘rinlarni bilish uchun beriladigandan savollardan emas.

Bolalar tili chiqishi bilanoq, savollar berish orqali hayotni tushuna boradilar. Psixologiyada ham bola savollariga kattalar erinmay, tanbeh bermay javob berishlari lozimligi, bu ularning evristik rivojlanishida, keyinchalik tafakkur turlarining normal faoliyatida ko‘rinishi aytiladi[6]. Bolada tabiatan qiziquvchanlik tuyg‘usi mavjud bo‘lib, bu tuyg‘u tufayli tabiat, hayot bilan tanishadi. Bu qiziqish keyinchalik kattalar tomonidan befarqlik tufayli kamayadi deyiladi, lekin ba’zi tadqiqotlarda bolalarning, qiziquvchan bo‘lishini va ulg‘aygan sari atrof-muhitdan qat’i nazar qiziqishlarini yo‘qolishi aytiladi[7]. Bundan tashqari, bolalarda qiziquvchanlik va qiziqishni saqlab qolish, bolalarni so‘roq qo‘ya oluvchi shaxslarga aylantirish va tanqidiy ko‘z bilan qarashni ta’minlash fikrlash ta’limi orqali amalga oshirilishini ta’kidlanadi.

O‘zaro muloqot, munozara qilishni mantiqiy fikrlashda eng katta ta’sirga ega usullardan biri. O‘quvchilarda munozara qilish, bahslashish, savol berish imkoniyati adabiy ta’lim doirasida ochiladi. Badiiy mahorat bilan yozilgan, o‘zida katta estetik go‘zallikni yashirgan, yuksak insoniy g‘oyalarni “tashigan” asarni o‘rganish bilan

[5] Kızıltan, Ö. Felsefe Öğretimi Sorunları ve Yeni Yaklaşımlar.// Eğitim Öğretim Araştırmaları Dergisi. –2012. 1(4), 334-342 b.

[6] Taşdelen. V. (2014). Felsefenin Gülümseyen Yüzü Çocuklar. Türk Dili. 107(756). – 2014.S. 562-568. https://tdk.gov.tr/wp content/uploads/2015/01/562

[7] Çiçek, H. Felsefeyle Çocuk Çocukla Felsefe. // Çocuk ve Medeniyet. – 2017. 2(4), 51-60.https://izlik.org/JA26AP29SH

kechadigan jarayon real natija ko‘rsatadi. O‘quv materiali tanlashdagi murakkab vazifa o‘qituvchi zimmasida emasligi O‘zbekiston maktablaridagi ijobiy holat deb hisoblaymiz. Mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan matn tanlashga ketadigan vaqtni o‘qituvchi o‘z mahoratini oshirishga sarflashi mumkin bo‘ladi. Yana bir xil matn bilan ishlashda boshqa hamkasblaridan maslahat so‘rashi, ularning tajribasidan foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, ijodiy, hamkorlikka asoslangan fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda to‘g‘ri fikrlashini ta’minlash muhim ahamiyatga ega, chunki to‘g‘ri fikrlash harakati ustida ishlash kerak bo‘lgan ko‘nikmadir[8]

O‘quvchi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida savol tuzishni o‘rganar ekan, u bevosita uchta asosiy kognitiv amaliyotni egallaydi: 1) mavjud bilimlar va axborotda bo‘shliqlarni aniqlash; 2) yangi bilimlarga ehtiyojni anglash; 3) faraz va gipotezani shakllantirish hamda tekshirish.

Tanqidiy va mantiqiy fikrlash negizi aynan mana shu uch bosqichda shakllanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, savol tuza oluvchi o‘quvchilar yodlashdan ko‘ra ko‘proq tahlil, umumlashtira olish kabi faoliyatlarga yo‘naltiriladi, natijada mantiqiy isbot va sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq anglaydi.

O‘quvchini savol berishga o‘rgatish tarafdorlari ma’lumotlar oqimida asosiy va yordamchi elementlarni aniqlash, ular orasida semantik bog‘liqlik va farqlar o‘rnatish yengillashadi deb hisoblaydilar.

Har qanday savolga ochiq javob talab qilganligi sababli, o‘quvchi o‘z fikrini asoslash, fakt va dalil keltirish, ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmasini egallaydi. Savollar

[8] Akkocaoğlu Çayır, N. İlkokul İçin Uygulama Örnekleriyle Öğretmenler İçin Çocuklarla Felsefe (P4C) Rehberi. Ankara: Pegem Akademi. 2021.https://doi.org/10.14527/9786257676472

orqali mavjud muammoga innovatsion, alternativ yondashuvlar ishlab chiqiladi. O‘quvchi tajriba va tadqiqotga asoslangan gipotezalar ilgari suradi.

Savol tuzish o‘quvchini doimiy shubha va bahs muhitida ishlashga undaydi. Bu esa o‘z navbatida, har bir axborotga tanqidiy baho berish, ishonchli va noto‘g‘ri manbalarni ajratish orqali bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlaydi. Savollarga asoslangan pedagogika bo‘yicha izlanish olib borgan Bouker ta’lim oluvchida savol berish ko‘nikmasini rivojlantirishni nazardan qolayotganini muammo sifatida ta’kidlaydi. Bouker nazariyasiga ko‘ra savollarga asoslangan pedagogikada savollarning o‘zi javoblar hisoblanadi. U kuzatishlari asosida o‘quvchilardan mavzu materiallari bo‘yicha o‘z savollarini tuzishni talab qilish bilan ularga biz qabul qilgan/qilayotgan javoblarning qanchalik shartli va matndan kelib chiqishini, ular qanday qilib boshqa savollarga tayanishi, nazarda tutishi va keltirib chiqarishini tushunishga yordam berishini aniqlagan.

Savollarga asoslangan pedagogikada o‘quvchilar savollarga qanday javob berishini ko‘rib chiqmasdan, asosan savol berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish foydali bo‘lishi mumkin deb qaraladi. Aynan savol tuzish orqali o‘quvchi ko‘proq izlanadi, faktlarni solishtiradi, induktiv va deduktiv tahlil vositalarini faol ishga soladi.

Bunday tarzda dars boshlanishida o‘qituvchi matn yoki mavzuni tanishtiradi va o‘quvchilardan quyidagi ochiq savollarni tuzishni so‘raydi: “Agar ... bo‘lmaganda, natija qanday bo‘lardi?” yoki “Bu hodisaning yuzaga kelish sabablarini qanday tasniflashingiz mumkin?” Har bir o‘quvchi o‘z savolini asoslab, qisqacha izoh beradi. Suhbat davomida bir o‘quvchi savol beradi, boshqasi javob qiladi va uchinchi ishtirokchi javobga qarshi dalil yoki muqobil taxmin bildiradi. Bu metod mantiqiy muhokama va sabab-oqibatni ochib berishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar badiiy matnga yo‘naltirilgan bir nechta savol tuzadilar. Bu savollar turli darajadagi kognitiv qiyinchiliklarga asoslanadi (faktni aniqlashdan – sabab-oqibat, gipoteza, muqobil yondashuvgacha).

Darsdan so‘ng o‘quvchilarga “Bugun nima sizga eng qiyin bo‘lib tuyuldi?”, “Yangi ma’lumotni o‘zlashtirishda qanday savollar paydo bo‘ldi?” singari savollar beriladi.

O‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish zamonaviy ilmiy-pedagogik jarayonning uzviy elementi bo‘lib, mantiqiy tafakkur, tanqidiy va kreativ yondashuvlarni shakllantiradi. Savol tuza olgan o‘quvchi bilimni faqat o‘zlashtirmaydi, balki uni qayta ishlaydi, yangi bilimlar fundamental ravishda paydo bo‘lishiga asos soladi. Shunday qilib, savol tuzish kompetensiyasi o‘qitishda ilg‘or, tahliliy, mustaqil va izchil tafakkur taraqqiyoti uchun zaruriy pedagogik shart-sharoitlardan biri sifatida qaralmoqda. Savolga asoslangan va javobga asoslangan yondashuvlar o‘rtasidagi farq tuzilishga oid bo‘lib, savollarni suhbatning asosiy nuqtalariga aylantirish, shu bilan birga taxminiy javoblar o‘quvchilarni savoldan savolga yo‘naltirish masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akkocaoğlu Çayır, N. İlkokul İçin Uygulama Örnekleriyle Öğretmenler İçin Çocuklarla Felsefe (P4C) Rehberi. Ankara: Pegem Akademi. – 2021.https://doi.org/10.14527/9786257676472
2. Çiçek, H. Felsefeyle Çocuk Çocukla Felsefe. // Çocuk ve Medeniyet. – 2017. 2(4), 51-60 b.https://izlik.org/JA26AP29SH
3. H. Darmadi, Pengembangan Model dan Metode Pembelajaran dalam Dinamika Belajar Siswa, Seleman: CV BUDI UTAMA, 2017.
4. Kızıltan, Ö. Felsefe Öğretimi Sorunları ve Yeni Yaklaşımlar.// Eğitim Öğretim Araştırmaları Dergisi. –2012. 1(4), 334-342 b.

5. Mandaniyati R. The Application of Question and Answer Method to Improve the Ability of Students Achievement.–2020; https://www.academia.edu/116555500.
6. Taşdelen. V. Felsefenin Gülümseyen Yüzü Çocuklar. Türk Dili. 107(756). – 2014. S. 562-568. https://tdk.gov.tr/wp content/uploads/2015/01/562

SPORT TRENERLARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI BO‘YICHA KASBIY MALAKASINI OSHIRISHNING XORIJIY VA MILLIY TAJRIBASI TAHLILI

Tolametov Abdujalil Abdujaparovich

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

e-mail: a.tolametov@sportedu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqola sport trenerlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishga doir xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. UNESCO, OECD, IOC, FIFA va UEFA tajribalari asosida raqamli kompetensiyalar, elektron ta’lim resurslari, videotahlil, sun’iy intellekt va onlayn platformalarning trenerlar kasbiy rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. O‘zbekistondagi malaka oshirish tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sport treneri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli kompetensiya, malaka oshirish, elektron ta’lim, sun’iy intellekt, xorijiy tajriba.*

Аннотация. *В данной статье проведён сравнительный анализ зарубежного и национального опыта повышения профессиональной квалификации спортивных тренеров в области информационно-коммуникационных технологий. На основе опыта UNESCO, OECD, IOC, FIFA и UEFA раскрыта роль цифровых компетенций, электронных образовательных ресурсов, видеоанализа, искусственного интеллекта и онлайн-платформ в*

профессиональном развитии тренеров. Разработаны практические рекомендации для системы повышения квалификации в Узбекистане.

***Ключевые** слова: спортивный тренер, информационно-коммуникационные технологии, цифровая компетенция, повышение квалификации, электронное обучение, искусственный интеллект, зарубежный опыт.*

***Annotation.** This article provides a comparative analysis of foreign and national experience in improving the professional qualifications of sports coaches in the field of information and communication technologies. Based on the experience of UNESCO, OECD, IOC, FIFA and UEFA, the role of digital competencies, electronic educational resources, video analysis, artificial intelligence and online platforms in the professional development of coaches is highlighted. Practical recommendations for the professional development system in Uzbekistan have been developed.*

***Keywords:** sports coach, information and communication technologies, digital competence, professional development, e-learning, artificial intelligence, foreign experience.*

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida sport sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish trener faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Zamonaviy sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish, sportchilarning funksional holatini monitoring qilish, musobaqa natijalarini tahlil etish, videotahlil, elektron hujjat yuritish, onlayn ta’lim platformalari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish sport trenerlarining kasbiy kompetensiyalari tarkibida muhim o‘rin egallamoqda.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim va sport sohalarida mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining muhim mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers modelida pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalari ta’lim siyosati, o‘quv dasturi, baholash, pedagogika, raqamli ko‘nikmalar, ta’limni tashkil etish va kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [4]. OECDning Digital Education Outlook 2023 hisobotida raqamli ta’lim ekotizimini shakllantirish, ma’lumotlar boshqaruvi, sun’iy intellektdan foydalanish va ta’lim jarayonini raqamlashtirish zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida izohlangan [5; 4–5-b.]. Shu bilan birga, hisobotda generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, algoritmik xolislik va raqamli etika masalalari alohida e’tibor talab etishi ta’kidlangan [5; 265-b.].

Sport sohasida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadallashmoqda. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Olympic AI Agenda hujjatida sun’iy intellekt sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, sport tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va sportda innovatsion raqamli yondashuvlarni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholangan [6; 4-b.]. Shu bilan birga, mazkur hujjatda sun’iy intellekt tashabbuslarini mas’uliyatli, etik va ishonchli asosda amalga oshirish uchun beshta asosiy tamoyilga tayanish zarurligi ta’kidlangan [6; 5-b.]. UEFA tajribasida esa trenerlar ta’limi, litsenziyalash va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi muhim o‘rin tutadi. UEFA Coaching Convention 2020 hujjatida trener, trener-o‘qituvchi, baholash va litsenziya tushunchalari aniq ta’riflanib, trenerlik ta’limining maqsadi futbol bo‘yicha trenerlarni sifatli tayyorlash hamda o‘yin sifatini oshirish bilan bog‘liq holda izohlangan [8; 5–6-b.].

O‘zbekistonda sport sohasini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish bo‘yicha zarur huquqiy-tashkiliy asoslar shakllantirilgan. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda sohadagi munosabatlarni tartibga solish, sport sub’ektlarining huquq va majburiyatlari hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan [1]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun esa ta’lim jarayonida bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim sifatini ta’minlash hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi [2]. Shu nuqtai nazardan, sport trenerlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishga doir xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – sport trenerlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo‘yicha kasbiy malakasini oshirish borasidagi xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish, shu asosda O‘zbekistondagi malaka oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va sohaga oid rasmiy veb-saytlardagi ma’lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish, so‘rovnoma, ekspert baholash hamda pedagogik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida “Sport turlari bo‘yicha trenerlar” yo‘nalishida malaka oshirayotgan 1244 nafar tinglovchi - 1036 nafar erkak, 208 nafar ayol - ishtirokida o‘quv kurslarining boshlang‘ich bosqichida suhbatlar hamda onlayn va offlayn anketa-so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnoma umumiy diagnostika bosqichi sifatida tashkil etilib, tajriba-sinov ishlari mazkur umumiy tanlanma tarkibidan tanlab olingan 100 nafar tinglovchi ishtirokida amalga oshirildi. Natijalar sport trenerlarining AKT

sohasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalari darajasini, raqamli texnologiyalarga munosabati hamda ularni amaliyotda qo‘llash tajribasini aniqlash imkonini berdi.

Asosiy qism. Xorijiy tajriba tahlili sport trenerlarining AKT bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishda uchta asosiy yo‘nalish ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Birinchisi — raqamli kompetensiyalarni pedagogik jarayon va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi bilan bog‘lash. Bu jihat UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers modelida yaqqol namoyon bo‘lib, unda AKT kompetensiyalari ta’lim siyosati, o‘quv dasturi, baholash, pedagogika, raqamli ko‘nikmalar va kasbiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi [4].

Ikkinchisi — raqamli ta’lim ekotizimini shakllantirish, ya’ni onlayn platformalar, elektron resurslar, ma’lumotlar bazasi, ta’limni boshqarish tizimlari va sun’iy intellekt vositalarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llashdir. Bu yondashuv OECDning Digital Education Outlook-2023 hisobotida raqamli ta’limni rivojlantirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida asoslangan [5; 4–5-b.].

Uchinchisi — sportga ixtisoslashgan raqamli resurslardan foydalanish. FIFA Training Centre tajribasi trenerlar uchun mashg‘ulot rejalari, videokontent va interaktiv ta’lim materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirsa [7], UEFA tajribasida trenerlar ta’limi, litsenziyalash va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi muhim o‘rin tutadi [8; 5–6-b.].

O‘zbekiston tajribasida sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining huquqiy-tashkiliy asoslari shakllantirilgan [1; 2]. Biroq sport trenerlarining AKT bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishda faqat umumiy kompyuter savodxonligi bilan cheklanib qolmasdan, raqamli vositalarni bevosita sport amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan metodik yondashuvlarni kuchaytirish zarur.

1-jadval

Sport trenerlarining AKT vositalaridan foydalanish holati bo‘yicha so‘rovnoma natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Doimiy foydalanadi	Ba’zan foydalanadi	Kam foydalanadi	Foydalanmaydi
1.	Internet resurslaridan kasbiy ma’lumot izlash	58,3%	31,7%	8,3%	1,7%
2.	Elektron hujjatlar bilan ishlash	51,7%	35,0%	10,0%	3,3%
3.	Elektron jadvallarda natijalarni tahlil qilish	23,3%	36,7%	28,3%	11,7%
4.	Videotahlil vositalaridan foydalanish	18,3%	33,3%	31,7%	16,7%
5.	Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish	26,7%	41,7%	21,6%	10,0%
6.	Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish	15,0%	28,3%	30,0%	26,7%

7.	Mobil sport ilovalaridan foydalanish	21,7%	35,0%	25,0%	18,3%

1-jadvalda keltirilgan so‘rovnoma natijalari sport trenerlari umumiy raqamli vositalardan muayyan darajada foydalanishini ifodalaydi. Biroq maxsus sport tahlili, videotahlil, sun’iy intellekt va mobil sport ilovalaridan tizimli foydalanish ko‘rsatkichlari nisbatan past ekanligi aniqlandi. Jumladan, elektron jadvallarda natijalarni tahlil qilishdan doimiy foydalanuvchilar 23,3 foizni, videotahlil vositalaridan doimiy foydalanuvchilar 18,3 foizni, sun’iy intellekt vositalaridan doimiy foydalanuvchilar esa 15,0 foizni tashkil etdi. Bu holat malaka oshirish mazmunini sport trenerining real kasbiy faoliyati bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Sport trenerlarining AKT bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	**Guruhlar**	**n**	**Tajriba boshida, M±m**	**Tajriba yakunida, M±m**	**Mutlaq o‘sish**	**O‘sish, %**
Bilim	Tadqiqot guruhi	50	58,4±3,2	66,9±3,6	+8,5	14,6
Bilim	Nazorat guruhi	50	57,9±3,5	63,1±3,7	+5,2	9,0

Malaka	Tadqiqot guruhi	50	54,1±3,6	62,9±4,0	+8,8	16,3
Malaka	Nazorat guruhi	50	53,8±3,9	59,3±4,0	+5,5	10,2
Ko‘nikma	Tadqiqot guruhi	50	51,7±3,8	61,2±4,1	+9,5	18,4
Ko‘nikma	Nazorat guruhi	50	52,2±3,7	58,7±4,0	+6,5	12,5

2-jadval natijalari tadqiqot guruhida bilim, malaka va ko‘nikma ko‘rsatkichlarining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, tadqiqot guruhida bilim ko‘rsatkichi 14,6 foizga, malaka ko‘rsatkichi 16,3 foizga, ko‘nikma ko‘rsatkichi esa 18,4 foizga oshgan. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9,0 foiz, 10,2 foiz va 12,5 foizni tashkil etdi. Bu natijalar takomillashtirilgan metodikaning sport trenerlarining AKT bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishda ijobiy samara berganini ko‘rsatadi. Ushbu farqlar 1-rasmda grafik tarzda ifodalangan.



1-rasm. Tadqiqot va nazorat guruhlarida AKT bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘sish nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lgan. Xususan, tadqiqot guruhida bilim ko‘rsatkichi 14,6 foizga, malaka ko‘rsatkichi 16,3 foizga, ko‘nikma ko‘rsatkichi esa 18,4 foizga oshgan. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9,0 foiz, 10,2 foiz va 12,5 foizni tashkil etgan. Bu holat takomillashtirilgan metodikaning amaliy samara berganini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar elektron ta’lim resurslari, amaliy topshiriqlar, videodarslar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish sport trenerlarining AKT bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini asoslaydi. Ishlab chiqilgan metodikada nazariy bilimlar amaliy topshiriqlar bilan uzviy bog‘lanib, AKT vositalarini sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish, tahlil qilish va baholash jarayoniga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Bu holat sport trenerlarining AKT bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xorijiy va milliy tajribalar tahlili sport trenerlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishda tizimli, amaliy va raqamli ta’limga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. UNESCO va OECD tajribalari raqamli kompetensiyalarni ta’lim mazmuni, pedagogik jarayon, baholash va uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan bog‘lash zarurligini asoslaydi. IOC, FIFA va UEFA tajribalari esa sportda raqamli platformalar, videotahlil, sun’iy

intellekt va onlayn resurslar trenerlar kasbiy rivojlanishining muhim vositalari ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha huquqiy-tashkiliy asoslar mavjud. Milliy malaka oshirish tizimida sport trenerlari uchun maxsus AKT kompetensiya modeli, elektron ta’lim platformasi, kasbiy yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlar, onlayn baholash va raqamli portfolio tizimini joriy etish sport trenerlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- “Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” modulini sport turlari xususiyatidan kelib chiqib, kasbiy yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlar, videotahlil, elektron jadvallar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga oid mashg‘ulotlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

- Sport trenerlari uchun elektron portfolio va onlayn baholash tizimini joriy etish lozim. Bu tizim orqali trenerlarning mashg‘ulot rejalari, tahlil ishlari, raqamli mahsulotlari va AKTdan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini baholash imkoniyati kengayadi.

- Sun’iy intellekt va ochiq raqamli resurslardan foydalanishda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli etika va mas’uliyatli foydalanish masalalarini alohida o‘quv mavzusi sifatida kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ–1123-son. — 2026-yil 24-mart. — URL: https://lex.uz/ — Matn: elektron.

2. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ–637-son. — 2020-yil 23-sentabr. — URL: https://lex.uz/docs/5013007 — Matn: elektron.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. PQ–4699-son. — 2020-yil 28-aprel. — URL: https://lex.uz/docs/4800657 — Matn: elektron.

4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3: official publication. — Paris: UNESCO, 2018. — 66 p.

5. OECD. Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem: report. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 316 p. — DOI: 10.1787/c74f03de-en.

6. International Olympic Committee. Olympic AI Agenda: official report. — Lausanne: International Olympic Committee, 2024. — 30 p.

7. FIFA. FIFA Training Centre: official digital platform for coaches. — URL: https://www.fifatrainingcentre.com/ — Murojaat sanasi: 16.03.2026. — Matn: elektron.

8. UEFA. UEFA Coaching Convention 2020: official document. — Nyon: UEFA, 2020. — 39 p.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND GREEN PROGRESS: ECOLOGY, GEOGRAPHY, NATURAL RESOURCES AND CLIMATE CHANGE ISSUES

WAYS TO ACHIEVE A GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY

Abdumalikova Nozima

International Agriculture University

Agricultural Economics

nozimaabdumalikova5@gmail.com

Mahmudov Abduaziz

International Agricultural University

Hemis System Specialist

mahmudovabduaziz483@gmail.com

Abstract. *The article broadly covers the concept of green economy, its content and role in ensuring environmental sustainability. In modern conditions, factors such as global environmental problems, climate change, depletion of natural resources, and environmental pollution pose new challenges to humanity. From this perspective, the concept of green economy is considered as one of the important directions for ensuring sustainable development. The article analyzes issues such as rational use of natural resources, effective use of renewable energy sources, introduction of energy-saving technologies, waste reduction and recycling. It also considers the importance of developing environmentally friendly production processes, using modern and environmentally safe technologies in agriculture, and protecting water and land resources. In addition, it discusses the role of improving the ecological culture of the population, developing environmental education, and the transition to a green economy. The article highlights important aspects of ensuring environmental*

sustainability, protecting the environment, and preserving a healthy natural environment for future generations.

Keywords: *Green economy, environmental sustainability, sustainable development, natural resources, renewable energy sources, environmental protection, energy efficiency, waste recycling, ecological culture, environmental protection*

Annotatsiya. *Maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni keng yoritilgan. Zamonaviy sharoitda global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi omillar insoniyat oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida zamonaviy va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash, suv va yer resurslarini muhofaza qilishning ahamiyati ham ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'limni rivojlantirish hamda davlat siyosatining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ro'li haqida fikr yuritilgan. Maqola orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun sog'lom tabiiy muhitni saqlab qolishning muhim jihatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik muhofaza, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi.*

Аннотация. *В статье широко рассматривается концепция зеленой экономики, ее содержание и роль в обеспечении экологической устойчивости. В современных условиях такие факторы, как глобальные экологические проблемы, изменение климата, истощение природных ресурсов и загрязнение окружающей среды, ставят перед человечеством новые вызовы. С этой точки зрения, концепция зеленой экономики рассматривается как одно из важных направлений обеспечения устойчивого развития. В статье анализируются такие вопросы, как рациональное использование природных ресурсов, эффективное использование возобновляемых источников энергии, внедрение энергосберегающих технологий, сокращение отходов и переработка. Также рассматривается важность развития экологически чистых производственных процессов, использования современных и экологически безопасных технологий в сельском хозяйстве и защиты водных и земельных ресурсов. Кроме того, обсуждается роль повышения экологической культуры населения, развития экологического образования и перехода к зеленой экономике. В статье освещаются важные аспекты обеспечения экологической устойчивости, защиты окружающей среды и сохранения здоровой природной среды для будущих поколений.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, экологическая устойчивость, устойчивое развитие, природные ресурсы, возобновляемые источники энергии, охрана окружающей среды, энергоэффективность, переработка отходов, экологическая культура, защита окружающей среды.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb global muammolardan biriga aylangan. Jahon aholisi sonining keskin ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda ekologik muammolarning chuqurlashuvi natijasida qishloq xo‘jaligi oldiga katta vazifalar qo‘yilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va FAO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda millionlab insonlar hali ham oziq-ovqat yetishmovchiligi va ochlik muammosidan aziyat chekmoqda. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, pandemiyalar va geosiyosiy mojarolar oziq-ovqat tizimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



Aholi sonining ortishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni yanada kuchaytiradi. Ammo mavjud yer va suv resurslarining cheklanganligi an’anaviy

dehqonchilik usullarining samaradorligini pasaytirib bormoqda. Shu sababli zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan ilm-fan va innovatsiyalar yordamida hosildorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ham oziq-ovqat xavfsizligi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi hamda milliy xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois davlat tomonidan agrar sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ilm-fanning oziq-ovqat xavfsizligidagi o‘rni

Ilm-fan qishloq xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barcha bosqichlarini takomillashtirish imkonini beradi. Jumladan, seleksiya, genetika, agrobiologiya, agroekologiya, tuproqshunoslik va agrokimyo kabi yo‘nalishlardagi ilmiy ishlanmalar yuqori hosilli va sifatli ekin navlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda genetik tadqiqotlar asosida qurg‘oqchilikka chidamli, suvni kam talab qiladigan va turli kasalliklarga bardoshli ekin navlari yaratilmoqda. Bu esa iqlim o‘zgarishi sharoitida ham barqaror hosil olish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, bug‘doy, guruch, makkajo‘xori va paxta kabi strategik ekinlar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar tuproq unumdorligini oshirish va uni saqlab qolishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tuproq tarkibini tahlil qilish, organik va mineral o‘g‘itlardan me’yorida foydalanish, eroziyaga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish orqali yer resurslarining samaradorligi oshirilmoqda. Bundan tashqari, agroekologik

yondashuvlar orqali ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida ilmiy yondashuvning yana bir muhim jihati veterinariya va chorvachilik sohasida namoyon bo‘ladi. Chorva mollari naslini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirish, kasalliklarning oldini olish va zamonaviy oziqlantirish tizimlarini joriy etish orqali go‘sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortmoqda.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va innovatsion markazlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar agrar sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish natijasida fermer xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi oshib, mahsulot yetishtirish hajmi ko‘paymoqda.

Innovatsiyalarning ta’siri va amaliy ahamiyati

Innovatsiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yangi bosqichni boshlab berdi. Zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda “aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasi keng rivojlanib, unda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt muhim o‘rin egallamoqda.

GPS va GIS texnologiyalari yordamida yer maydonlarini aniq monitoring qilish, dronlar orqali ekinlarning holatini kuzatish va kasalliklarni erta aniqlash mumkin bo‘lmoqda. Sensor texnologiyalari tuproq namligi, havo harorati va o‘simlik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa suv va o‘g‘itlardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi innovatsion yondashuvlarning eng samarali namunalaridan biridir.



Ushbu texnologiya orqali suv bevosita o‘simlik ildiziga yetkaziladi va ortiqcha suv sarfi kamayadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tomchilatib sug‘orish tizimlari suv sarfini 40 foizgacha qisqartiradi hamda hosildorlikni oshiradi. Ayniqsa, suv resurslari cheklangan hududlarda bu usul katta ahamiyatga ega.

Issiqxona xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari harorat, namlik va yorug‘likni nazorat qilish imkonini beradi. Natijada yil davomida sifatli va yuqori hosil olish mumkin bo‘ladi. Bu esa ichki bozorda mahsulot tanqisligining oldini olishga xizmat qiladi.

Innovatsiyalar oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sohasida ham muhim ahamiyatga ega.



Zamonaviy sovutish omborlari, vakuumli qadoqlash texnologiyalari va logistika tizimlari mahsulotlarning uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, oziq-ovqat yo‘qotishlarini kamaytirish imkonini beradi. Raqamli agroplatformalar fermerlarga bozor narxlari, ob-havo ma’lumotlari va agrotexnik tavsiyalarni tezkor olish imkonini yaratmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Barqaror rivojlanish va ijtimoiy natijalar

Oziq-ovqat xavfsizligi barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ilm-fan va innovatsiyalar asosida resurs tejamkor, ekologik xavfsiz va iqtisodiy samarali ishlab chiqarish tizimlari shakllanmoqda. Bu esa kelajak avlodlar uchun ham yetarli resurslarni saqlab qolish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratmoqda. Ayniqsa, yoshlarning agrar sohaga qiziqishi ortib, ular innovatsion loyihalar va startaplarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa ilmiy salohiyat va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aholining sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi sog‘liqni saqlash tizimiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. To‘yimli ovqatlanish inson salomatligini mustahkamlab, kasalliklarning kamayishiga yordam beradi. Natijada mehnat unumdorligi oshadi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlik kuchayadi.

Ilm-fan va innovatsiyalar kambag‘allikni qisqartirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki qishloq xo‘jaligi samaradorligining oshishi fermer va dehqonlarning daromadlarini ko‘paytiradi. Bu esa qishloq aholisi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan Milliy oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasida ilmiy va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Strategiyada zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va xalqaro tajribalarni joriy



etishga katta e’tibor qaratilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ilm-fan va innovatsiyalar hal qiluvchi strategik omil hisoblanadi. Ular yordamida qishloq xo‘jaligi

ishlab chiqarishining samaradorligi oshadi, tabiiy resurslardan oqilona foydalaniladi va ekologik barqarorlik ta’minlanadi.

Kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash muhim vazifa bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va agrar sohada zamonaviy boshqaruv tizimlarini rivojlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Aynan ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan yondashuv orqali O‘zbekiston oziq-ovqat mustaqilligini mustahkamlashi, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Environment Programme. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. Nairobi: UNEP, 2011.
2. United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York, 2015.
3. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. Washington DC, 2012.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Green Growth Strategy*. Paris, 2011.
5. Food and Agriculture Organization. *Climate-Smart Agriculture Sourcebook*. Rome, 2017.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlari.

7. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A. *Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti*. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti.

8. Rasulov A. *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari*. Toshkent, 2020.

9. Yo‘ldoshev Q. *Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot*. Toshkent, 2021.

10. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlari va qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha statistik hisobotlar.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGI YER RESURSLARINING IQTISODIY XATARLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Asomiddinov Asadbek Toshboy o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

e-mail: asomiddinovasadbek7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi yer resurslariga ta'siri natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy xatarlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi mahsuldorligi, yer unumdorligi va agrar iqtisodiyotga salbiy ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim beqarorligi qishloq xo'jaligi yer resurslarining iqtisodiy qiymatini sezilarli darajada pasaytiradi. Muammoni bartaraf etish uchun integrallashgan iqtisodiy boshqaruv strategiyalari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligi, yer resurslari, iqtisodiy xatarlar, agrar iqtisodiyot, xatarlarni boshqarish, barqaror rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются экономические риски, возникающие в результате воздействия изменения климата на земельные ресурсы сельского хозяйства. В рамках исследования изучено негативное влияние климатической нестабильности на продуктивность сельскохозяйственных угодий, плодородие почв и аграрную экономику. Результаты исследования свидетельствуют о том, что климатическая нестабильность существенно*

снижает экономическую ценность земельных ресурсов. Для решения проблемы предложены интегрированные стратегии экономического управления.

Ключевые слова: *изменение климата, сельское хозяйство, земельные ресурсы, экономические риски, аграрная экономика, управление рисками, устойчивое развитие.*

Abstract: *This article analyzes the economic risks arising from the impact of climate change on agricultural land resources. The study examines the negative effects of climate instability on agricultural productivity, soil fertility, and the agrarian economy. Research findings indicate that climate instability significantly reduces the economic value of agricultural land resources. Integrated economic management strategies are proposed to address the problem.*

Keywords: *climate change, agriculture, land resources, economic risks, agrarian economy, risk management, sustainable development.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Iqlim o'zgarishi XXI asrning eng muhim global muammolaridan biri bo'lib, u nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda. Qishloq xo'jaligi yer resurslari iqtisodiyotning asosiy bazasi hisoblangan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun bu masala alohida dolzarblik kasb etadi.

Global harorat ko'tarilishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, qurg'oqchilik va sel hodisalarining kuchayishi qishloq xo'jaligi erlarining iqtisodiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. IPCC (2022) ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha global harorat sanoatgacha davrga nisbatan 1,1°C ga oshgan bo'lib, bu tendensiya davom etsa, 2050 yilga kelib qishloq xo'jaligi mahsuldorligi 25-30% ga kamayishi mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning taxminan 28% ni tashkil etadi va aholining 50% dan ortig'i qishloq hududlarida yashaydi. Bu ma'lumotlar iqlim o'zgarishining yer resurslariga ta'sirini o'rganish va iqtisodiy xatarlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishning zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi: iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi yer resurslarining iqtisodiy xatarlarini aniqlash va ularni boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: iqlim o'zgarishining yer resurslariga ta'sirini tahlil qilish; iqtisodiy xatarlarni miqdoriy baholash; boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va tavsiyalar berish.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR (METHODS)

Adabiyotlar sharhi

Iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mendelsohn va boshq. (1994) klassik ishlarida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga iqtisodiy ta'sirini hedonic (gedonik) narx usuli orqali baholashgan. Ularning xulosasiga ko'ra, issiq iqlimli hududlarda qishloq xo'jaligi yer qiymatining tushishi 10-40% ni tashkil etishi mumkin.

Deschenes va Greenstone (2007) AQSh misolida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi daromadlariga ta'sirini o'rganib, harorat har 1°C oshishi bilan g'alla hosildorligining 3-8% ga kamayishini aniqlashgan. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC, 2022) hisobotiga muvofiq, o'rta kengliklar va subtropik hududlarda iqlim o'zgarishining ta'siri ayniqsa kuchli bo'lishi kutilmoqda.

O'zbekiston sharoitida Tashmatov (2020) tadqiqotlari ko'rsatdiki, so'nggi 30 yil ichida mamlakatimizda o'rtacha harorat 0,8-1,2°C ga ko'tarilgan, bu esa Orol dengizi havzasida sho'rlanish jarayonlarini kuchaytirgan. Xasanov va Yusupov (2021) qishloq xo'jaligi yerlarining sho'rlanishi tufayli yiliga 1,2-1,8 mlrd dollar iqtisodiy zarar ko'rilayotganini hisoblashgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan:

1. Statistik tahlil metodi: O'zbekiston Statistika agentligi va FAO ma'lumotlari asosida 2000-2023 yillar uchun qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan.

2. Iqtisodiy modellashtirish: Yer resurslarining iqtisodiy qiymatini baholashda hedonic narx modeli va sof joriy qiymat (NPV) metodidan foydalanilgan.

3. Ekspert baholash: 45 nafar qishloq xo'jaligi mutaxassislari va iqtisodchilar bilan intervyu o'tkazilgan.

4. Qiyosiy tahlil: Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasini solishtirish orqali eng yaxshi amaliyotlar aniqlangan.

Tadqiqot geografik doirasi: O'zbekistonning 12 viloyati, asosan Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari qamrab olingan.

NATIJALAR (RESULTS)

3.1. Iqlim o'zgarishining yer resurslariga ta'siri

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 2000-2023 yillar davomida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi yerlariga ta'siri sezilarli darajada kuchaygan. Asosiy ko'rsatkichlar quyidagicha:

Harorat o'zgarishi: So'nggi 23 yil davomida o'rtacha yillik harorat 1,4°C ga ko'tarilgan, issiq mavsumning davomiyligi 18 kun uzaygan. Bu ko'rsatkich sug'orish ehtiyojini 12-15% ga oshirgan.

Sho'rlanish muammosi: Mavjud 4,3 mln gektar sug'oriladigan yerning 52,3% si turli darajada sho'rlangan. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, 890 ming gektar yer kuchli sho'rlanish tufayli qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqib ketish xavfi ostida turibdi.

Suv resurslarining kamayishi: Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimi 1990-yillardan buyon o'rtacha 25-30% ga kamaygan. Bu holat sug'oriladigan qishloq xo'jaligi erlarining iqtisodiy unumdorligini to'g'ridan-to'g'ri pasaytirmoqda.

Eroziya jarayonlari: Yog'ingarchilik intensivligining oshishi va qor qoplami tarkibining o'zgarishi tufayli tog'lik hududlarda eroziya 34% ga kuchaygan, qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yaroqsiz bo'lib qolgan maydonlar 2010-2023 yillarda 180 ming gektarga o'sgan.

3.2. Iqtisodiy xatarlarning miqdoriy tahlili

Tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligi yer resurslariga nisbatan beshta asosiy iqtisodiy xatar guruhi aniqlandi:

Birinchi guruh — mahsuldorlik xatari. Iqlim o'zgarishi tufayli g'alla hosildorligi 2000-2023 yillar orasida o'rtacha 8,4% ga kamaygan. Paxta yetishtirish uchun yaroqli yillar soni 25 yildan 18-20 yilga tushgan, bu esa yer narxini 15-22% ga kamaytirgan.

Ikkinchi guruh — sug'orish tizimi xatari. Sug'orish suvi tanqisligi qishloq xo'jaligi yerlarining 35-40% i uchun jiddiy xatar hisoblanadi. Suv narxining ko'tarilishi yiliga gektariga 180-250 AQSh dollariga to'g'ri keladigan qo'shimcha xarajatni keltirib chiqarmoqda.

Uchinchi guruh — bozor qiymati xatari. Iqlim omillarini hisobga olgan holda yer narxini baholash (hedonic modeli asosida) shuni ko'rsatdiki, kuchli sho'rlangan yerlarning bozor qiymati unum keltiradigan erlarga nisbatan 40-60% past. Ushbu farq 2010 yilda 28-35% bo'lgan.

To'rtinchi guruh — sug'urta xatari. Qishloq xo'jaligi sug'urtasida iqlim o'zgarishiga bog'liq zararlar ulushi 2015 yildagi 18% dan 2023 yilda 34% ga ko'tarilgan. Yiliga sug'urta to'lovlari 280-320 mln AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich barqaror o'smoqda.

Beshinchi guruh — oziq-ovqat xavfsizligi xatari. Suv va yer resurslarining kamayishi O'zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari importiga bog'liqlikni oshirishi mumkin, bu esa milliy iqtisodiyot uchun strategik xatarni keltirib chiqaradi.

Umumiy hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu beshta xatar guruhi yig'indisi O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga yiliga 2,1-2,8 mlrd AQSh dollari miqdorida potensial zarar keltirishi mumkin. Bu YaIMning taxminan 3,5-4,7% ini tashkil etadi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

4.1. Xatarlarni boshqarish strategiyalari

Olingan natijalarni tahlil qilish asosida iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi yer resurslarining iqtisodiy xatarlarini boshqarish uchun quyidagi strategiyalar taklif etiladi:

1-strategiya: Iqtisodiy diversifikatsiya. Yer foydalanuvchilari bir xil ekin turidan voz chekib, iqlimga chidamli navlarni joriy etishlari lozim. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, diversifikatsiyalashgan xo'jaliklarda iqlim xatarlariga bog'liq zarar 35-42% kam bo'lgan. Bu strategiya O'zbekistonning g'alla, sabzavot va mevali bog'lar nisbatini muvozanatlashtirishni nazarda tutadi.

2-strategiya: Suv tejovchi texnologiyalar. Tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini joriy etish sug'orish suvi sarfini 30-45% ga kamaytiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 mln gektar sug'oriladigan yerni tomchilatib sug'orish tizimiga o'tkazish uchun 3,2-3,8 mlrd dollar kapital sarfi talab etilsa ham, 15 yillik davr mobaynida sof iqtisodiy samara 6,5-7,2 mlrd dollarni tashkil etadi.

3-strategiya: Yer melioratsiyasi dasturlari. Sho'rlangan yerlarni biologik (halofitlar — sho'rga chidamli o'simliklar) va kimyoviy usullar (gips, kislotalar) orqali davolash tuproq unumdorligini 40-60% ga oshirishi mumkin. Davlat subsidiyalari orqali bunday dasturlarni moliyalashtirish iqtisodiy xatarni sezilarli darajada kamaytiradi.

4-strategiya: Iqlim sug'urtasi mexanizmlari. Parametrik (indeksga asoslangan) qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirish iqlim xatarlarini moliyaviy jihatdan boshqarish imkonini beradi. Bunday mexanizm fermerlarni o'qitish va davlat kafolatlari bilan birga amalga oshirilganda eng yuqori samara beradi.

5-strategiya: Raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili. Yer monitoringi uchun sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, dronlar va IoT qurilmalaridan foydalanish xatarlarni erta aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot ko'rsatdiki, precision agriculture (aniq dehqonchilik) texnologiyalarini qo'llagan fermerlar iqtisodiy xatarlarni 28-33% ga kamaytirishga erishgan.

4.2. Institutsional va siyosiy tavsiyalar

Strategiyalarni amalga oshirish samarali bo'lishi uchun quyidagi institutsional o'zgarishlar zarur:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi yer resurslarini boshqarishda iqlim xatarlarini hisobga oladigan yangi huquqiy-me'yoriy bazani yaratish kerak. Yerga bo'lgan huquqlarni himoya qiluvchi va iqlim moslashuvi uchun rag'batlantiruvchi qonunchilik mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

Ikkinchidan, xususiy sektor, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlik platformalari tuzish zarur. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va GEF (Global atrof-muhit jamg'armasi) bilan kelishuvlar asosida iqlim moliyasini jalb qilish imkoniyati mavjud.

Uchinchidan, fermerlar va yer foydalanuvchilarni iqlim xatarlarini boshqarish usullari bo'yicha tizimli o'qitish dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA (CONCLUSION)

Ushbu tadqiqot iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi yer resurslariga ko'p qirrali iqtisodiy ta'sirini ko'rsatdi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

Birinchi xulosa: Iqlim o'zgarishi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yer resurslarining iqtisodiy qiymatini sezilarli darajada pasaytirmoqda. Sho'rlanish, suv tanqisligi va eroziya jarayonlari natijasida yiliga 2,1-2,8 mlrd AQSh dollari miqdorida iqtisodiy zarar yuzaga kelmoqda.

Ikkinchi xulosa: Iqtisodiy xatarlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq tizimli xususiyatga ega bo'lib, mahsuldorlik xatari, sug'orish tizimi xatari, bozor qiymati xatari, sug'urta xatari va oziq-ovqat xavfsizligi xatari o'zaro kuchaytirib turadi.

Uchinchi xulosa: Taklif etilgan besh strategiya — iqtisodiy diversifikatsiya, suv tejovchi texnologiyalar, yer melioratsiyasi, iqlim sug'urtasi va raqamli texnologiyalar — birgalikda qo'llanilganda iqtisodiy xatarlarni 45-55% ga kamaytirish imkonini beradi.

To'rtinchi xulosa: Samarali xatarlarni boshqarish uchun faqat texnologik echimlar emas, balki institutsional islohotlar, huquqiy baza yangilanishi va xalqaro hamkorlik zarur.

Keyingi tadqiqotlar uchun tavsiya: iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'sirini hududiy kesimda chuqurroq o'rganish, shuningdek carbon credit (karbon kredit) mexanizmlarini O'zbekiston qishloq xo'jaligiga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mendelsohn R., Nordhaus W., Shaw D. The impact of global warming on agriculture: A Ricardian analysis // American Economic Review. — 1994. — Vol. 84, № 4. — P. 753–771.

2. Deschenes O., Greenstone M. The economic impacts of climate change: Evidence from agricultural output and random fluctuations in weather // American Economic Review. — 2007. — Vol. 97, № 1. — P. 354–385.

3. IPCC. Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change / Eds. H.-O. Pörtner et al. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022. — 3056 p.

4. Тошматов Н.У. Иқлим ўзгаришининг қишлоқ хўжалигига таъсири: ўзбекистон мисолида // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. — 2020. — № 3. — Б. 45–58.

5. Хасанов Б.Э., Юсупов Ф.А. Қишлоқ хўжалиги ерларини ўзлаштириш ва улардан самарали фойдаланишнинг иқтисодий асослари. — Тошкент: Фан, 2021. — 184 б.

6. FAO. The impact of disasters and crises on agriculture and food security. — Rome: FAO, 2022. — 212 p. — URL: https://www.fao.org/documents/card/en/c/cb9450en (дата обращения: 10.03.2024).

7. World Bank. The Economics of Climate Adaptation: Shaping Climate-Resilient Development. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2020. — 264 p.

8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo'jaligi statistikasi to'plami 2023. — Toshkent: O'zstat, 2023. — 320 b.

9. Mukhamedjanov B., Karimov A. Land degradation and economic losses in Central Asia: Assessment and policy responses // Journal of Arid Environments. — 2023. — Vol. 201. — P. 104–117.

10. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007. — 712 p.

11. Lipper L. et al. Climate-smart agriculture for food security // Nature Climate Change. — 2014. — Vol. 4. — P. 1068–1072.

12. Qalandarov A.A., Mirzayev Sh.U. Yer resurslarini muhofaza qilish va unumli foydalanishning huquqiy asoslari // O'zbekiston huquqi. — 2022. — № 2. — B. 78–92.

RISHTON TUMANI KOLLEKTOR - ZOVUR TARMOQLARI BALIQLARI VA ULARING BIOSTATISTIK TAHLILI

Ergasheva Gulhayo

Farg‘ona Davlat Unvarsiteti

Gulhayoxonergasheva13@gmail.com

Annotatsiya:*Maqolada Rishton tumani kollektor-zovur tarmoqlari sharoitida uchraydigan ixtiofauna vakillari, xususan, Triplophysa strauchii va Triplophysa dorsalis turlarining morfologik ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan. Ikki tur o‘rtasidagi morfometrik va meristik belgilarning farqlari va ularning statistik jihatdan ishonchliligi Studentning t-mezoni yordamida baholangan. Olingan biostatistik natijalar kollektor-zovur suvlarining turlararo differensiasiyani tahlil qilish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *ixtiofauna, deskriptiv statistika , Triplophysa strauchii, Triplophysa dorsalis , dispersiya, Studentning t-mezoni, morfometriya.*

Аннотация: *В статье изучаются морфологические характеристики представителей ихтиофауны, обитающих в условиях коллекторно-канализационных сетей Риштонского района, в частности, видов Triplophysa strauchii и Triplophysa dorsalis. Различия в морфометрических и меристических признаках между двумя видами и их статистическая достоверность оценивались с помощью t-критерия Стьюдента. Полученные биостатистические результаты позволяют проанализировать межвидовую дифференциацию коллекторно-канализационных вод.*

Ключевые слова: *ихтиофауна, описательная статистика, Triplophysa strauchii, Triplophysa dorsalis, распространение, t-критерий Стьюдента, морфометрия.*

Abstract: *The article studies the morphological characteristics of representatives of the ichthyofauna found in the conditions of the collector-sewage networks of the Rishton district, in particular, the species Triplophysa strauchii and Triplophysa dorsalis. The differences in morphometric and meristic characters between the two species and their statistical reliability were assessed using the Student's t-test. The obtained biostatistical results allow us to analyze the interspecific differentiation of collector-sewage waters.*

Keywords: *ichthyofauna, descriptive statistics, Triplophysa strauchii, Triplophysa dorsalis, dispersion, Student's t-test, morphometry .*

KIRISH.

Rishton tumani hududidagi kollektor va zovurlar (drenaj tarmoqlari) o'ziga xos ekotizimga ega bo'lib, bu suv havzalari asosan qishloq xo'jaligidan chiqqan sizot va oqova suvlardan tashkil topadi. Bu yerda yashaydigan baliq turlari suvning sho'rlanish darajasi, oqim tezligi va kislorod miqdoriga moslashgan.

Karpsimonlar (Cyprinidae) Bu guruh Rishton suvlarida eng ko‘p tarqalgan va asosiy qismni tashkil qiladi.Cyprinus carpio — Zog‘ora baliq (Sazan),Carassius gibelio — Kumushrang tovonbaliq (Karash),Hypophthalmichthys molitrix — Oq xumbosh (Tolstolobik),Hypophthalmichthys nobilis — Olacha xumbosh,Ctenopharyngodon idella — Oq amur,Luciobarbus capito — Bo‘rtan (Usach),Schizothorax eurystomus — O‘rta osiyo qorabalig‘i (Marinka),Alburnoides eichwaldii — Sharq murtakbalig‘i (Shaamay),Pseudorasbora parva — Amur chebachogi (Xitoy chebachogi),Hemiculter leucisculus — Voistryushka (Oqcha)[1].

Nemacheilidae (Yalangbaliqlar) Zovur va ariqlarning tub qismida yashovchi turlar Triplophysa strauchii — Dog‘li yalangbaliq,Triplophysa dorsalis — Kulrang yalangbaliq,Triplophysa daryoae — Sirdaryo yalangbalig‘i (Daryo yalangbalig‘i),Nemacheilus oxianus — Amudaryo yalangbalig‘i[2].

Laqqasimonlar (Siluridae va Bagridae) Silurus glanis — Oddiy laqqa baliq (Som)**,**Glyptosternon reticulatum — Turkiston qo‘nduzbalig‘i (Toshbuqa) — asosan soylarning zovurga qo‘shilish qismlarida uchraydi.[3].

Perkasimonlar (Percidae) va boshqa yirtqichlar Perca fluviatilis — Olachabor (Okun),Sander lucioperca — Oq kish (Sudak),Channa argus — Ilonbosh baliq

Aklimatizatsiya qilingan va invaziv turlar Gambusia holbrooki — Gambuziya (Bezgak baliqcha) , Rhinogobius cheni — Govshbaliq (Bichok[4].

Rishton tumanidagi kollektor-zovur tarmoqlarida asosan sho'rlanishga chidamli bo'lgan Cyprinus carpio, Carassius gibelio va Triplophysa urug'iga mansub yalangbaliqlar dominantlik qiladi. Tuman hududidan o'tuvchi Katta Farg'ona kanali va uning tarmoqlarida esa suvning oqimi tezroq bo'lgani uchun Schizothorax (Qorabaliq) va Alburnoides turlarini ko'proq uchratish mumkin.

MATERIAL VA METODLAR

Namuna yig'ish

Tadqiqot uchun Triplophysa stauchii turning 15 ta namunasi Farg’ona vodiysi suv havzalaridan to'plandi.

O'lchash usullari

Namunalar 70% etanol eritmasi va 4% formalin bilan fiksatsiya qilindi. Morfometrik o'lchovlar shtangensirkul (aniqlik ±0.1 mm) va analitik tarozi (aniqlik ±0.01 g) yordamida amalga oshirildi. O'lchash Hubbs va Lagler (1958) metodologiyasiga asosan bajarildi.

NATIJALAR

Rishton tumani zovurlaridan yig‘ilgan keng tarqalgan baliq namunalarining morfometrik ko‘rsatkichlari: 1-jadval.

Morfometrik ko‘rsatkichlar	**A**	**B**	**C**	**D**	**E**	**F**	**G**
	min-max	min-max	min-max	min-max	min-max	min-max	min-max
Umumiy uzunlik (TL) (mm)	35,6-67,2	56,4-134,8	69,7-106,9	48,40-101,7	38,45-87,64	49,59-65,46	54,60-149,4
Standart uzunlik (SL) (mm)	27,3-51,8	45,8-108,4	55,52-88,56	39,89-83,33	31,33-70,10	38,68-53,96	42,63-119,9
SL ga nisbatan foizda							
Bosh uzunligi (HL)	21,93-25,71	22,67-25,98	25,32-30,00	25,42-27,46	23,47-26,40	22,45-26,96	28,62-33,43
Tana balandligi	34,83-43,16	17,1-21,75	22,97-25,54	24,20-29,32	23,65-27,80	26,49-30,34	36,17-43,01
Predorsal uzunlik	44,06-53,80	51,96-55,8	47,08-51,85	45,83-50,32	49,89-52,72	52,42-55,83	47,74-53,34
Prepelvik uzunlik	40,23-46,66	50,8-55,56	56,65-60,74	48,94-54,03	47,58-51,22	46,54-51,07	45,81-51,75
Preanal uzunlik	55,78-63,85	68,6-73,88	79,13-82,73	68,93-73,33	65,62-74,00	62,34-68,67	71,78-77,11
Dorsal suzgich qanot uzunligi	16,01-22,33	19,68-23,7	17,56-24,99	17,82-21,87	18,37-22,56	15,7-22,8	15,88-24,63
Qorin suzgich qanot uzunligi	13,79-17,45	14,55-16,75	13,81-15,89	13,01-15,37	13,25-17,62	13,2-17,0	18,53-21,13
Ko‘krak suzgich qanot uzunligi	16,95-20,82	14,26-17,57	18,33-23,39	15,12-19,03	12,60-18,66	16,3-22,2	15,93-18,92
Anal suzgich qanot uzunligi	15,47-21,82	13,84-16,58	13,20-14,72	13,75-16,65	11,17-16,05	13,1-17,7	14,40-17,50
Dum bandining uzunligi (CPL)	19,30-23,69	17,70-21,11	12,24-16,57	20,27-24,58	20,48-23,45	19,00-23,10	11,56-17,12
Dum bandining balandligi (CPD)	10,61-13,76	6,16-7,61	9,25-10,22	10,42-12,57	11,28-13,68	10,50-11,61	13,75-15,41
Ko‘krak-qorin suzgich masofasi	16,54-22,28	27,86-34,43	25,60-34,68	25,14-28,21	21,90-24,48	24,63-28,58	17,31-19,66
Qorin-anal suzgich masofasi	14,38-19,78	18,11-20,30	21,96-23,39	19,09-22,70	19,18-24,62	15,34-19,14	27,14-30,42
CPL/CPD	1,45-2,04	2,44-3,13	1,25-1,76	1,70-2,15	1,57-1,96	1,8-2,05	0,84-1,17
HL ga nisbatan foizda							

Bosh balandligi ensa sohasidan	84,60-97,26	59,83-68,96	61,94-70,94	63,43-71,73	60,10-69,67	64,67-78,07	73,11-88,50
Tumshuq uzunligi	22,53-34,43	41,87-49,46	39,47-56,31	33,53-38,72	24,98-34,32	21,11-29,85	24,59-29,16
Ko‘z diametri	27,23-35,47	15,04-21,09	17,66-23,03	18,36-26,81	22,88-30,09	27,78-34,42	19,93-31,37
Interorbital masofa	36,57-43,86	34,05-44,21	26,13-31,01	31,42-36,79	37,37-44,57	32,36-38,95	42,03-48,36
Postorbital uzunlik	41,84-48,25	41,14-48,45	29,09-41,94	40,02-47,57	36,09-50,26	41,04-49,92	44,56-53,4

Izoh: A- *Rhodeus ocellatus;* B- *Triplophysa strauchii*; C- *Abbottina rivularis*; D- *Gobio lepidolaemus*; E- *Pseudorasbora parva*; F- *Alburnus* cf. *taeniatus*; G- *Carassius gibelio*

DESKRIPTIV STATISTIKA

Rishto tumani zovur baliq turlarining tana uzunligini o’rtacha arifmetik qiymatini aniqlash.

Tadqiqotchi magistrant zovurning yuqori, o’rta va quyi oqimlaridan baliqlar ovladi. Tajribada ushbu baliqlarning 15- ta namunasini standart uzunligini o’lchaganda quyidagi natijalar olindi.Olingan natijalardan o‘rtacha arifmetik qiymat hisoblab chiqiladi. O‘rtacha arifmetik qiymatni hisoblashda olingan natijalar summasini qaytarilishlar soniga bo’linadi.

Triplophysa urug‘iga mansub baliqlarning standart uzunlik ko‘rsatkichlari (mm). Triplophysa strauchii (n=15 ta baliq)

										0	1	2	3	4	5	1

ana uzunlik	8,5	2,0	5,4	0.1	9.8	4.2	6.7	1.3	9.0	3.5	7.8	0.6	2.4	8.9	1.17	

1.1.Berilgan tanlanmalar asosida har bir tur uchun **o‘rtacha arifmetik** qiymatlarni ($\bar{x}$)hisoblaymiz.

$$\bar{x}=\frac{x_1+x_2\ldots\ldots\ldots x_n}{n}$$

Bunda, $\bar{x}$- o‘rtacha arifmetik qiymat,

$X_1, x_2, \ldots\ldots x_n$- variantalar,

n- qaytarilishlar soni .

Triplopysa strauchii

68,5+72+65,4+71,1+69,8+74,2+66,7+71,3+69+73,5+67,8+70,6+72,4+68,9+71,1/15=**70,09mm** Bu **o’rtacha arifmetik** qiymatdir.

Triplophysa dorsalis (n=15 ta baliq).

Namunalar										0	1	2	3	14. 15	15
Tana uzunlik	54.2	6.5	2	8,4	5,0	3,8	7,1	9,5	4,7	6,2	3,0	5,8	7,6	54,4. 55,3	71.1

1.1. Triplopysa dorsalis

54,2+56,5+52+58,4+55+53,8+57,1+59,5+54,7+56,2+53+55,8+57,6+54,4+55,3/ 15=**55,57 o'rtacha arifmetik** qiymat.

O'rtacha arifmetik qiymatining standart xatoligi ($S_{\bar{x}}$) tadqiqot natijalarining ishonchliligini baholovchi va eng muhim xulosa chiqaruvchi ko'rsatkich.

$$S_{\bar{x}} = \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

Bunda,

$S_{\bar{x}}$ -o'rtacha arifmetik qiymatning standart xatoligi;

S_x-o'rta arifmetik qiymatni standart og'ishi;

n-tanlanma hajmi;

$S_{\bar{x}} = \frac{2.45}{\sqrt{15}} = \mathbf{0.633}$ **o'rtacha arifmetik qiymatning standart xatoligi**

$S_{\bar{x}} = \frac{2.037}{\sqrt{15}} = \mathbf{0.52}$ **o'rtacha arifmetik qiymatning standart xatolig**

Styudent tenglamasi (Styudentning t-mezoni yoki Styudent t-test) yordamida qiyosiy tahlil etish.

$$\boldsymbol{t = \frac{|\bar{x}1 - \bar{x}2|}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}}}$$

Hisoblash

1.O'rtacha qiymatlar ayirmasi: |70.09 - 55.57| = 14.52

2.Xatoliklar kvadratlari yig'indisi: $0.63^2 + 0.52^2 = 0.3969 + 0.2704 = 0.6673$

Maxraj (kvadrat ildiz): $\sqrt{0.6673} = 0.817$

Yakuniy $\boldsymbol{t_{fakt}}$**: 14.52 / 0.817 = 17.77**

3. Erkinlik darajasi va jadval qiymati t_{st}

Natijani baholash uchun erkinlik darajasini (df) topamiz:

df= $((n_1 _ n_2) - 2 = (15 + 15) - 2 = 28$

Statistik jadvallarga ko'ra, df = 28 va ehtimollik darajasi p = 0.05 (biologiya uchun standart ishonchlilik) bo'lganda, jadvaldagi qiymat:

t_{st} = 2.048

Endi biz hisoblagan t_{fakt} va jadvalning t_{st} qiymatlarini solishtiramiz:

$$t_{fakt}\ (17{,}77) > t_{st}(2{,}048)$$

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, hisoblangan Styudent mezoni jadval qiymatidan keskin yuqori. Bu esa Triplophysa strauchi va Triplophysa dorsalis turlarining standart tana uzunligi o‘rtasidagi farq **99.9%** dan yuqori ishonchlilik bilan tasdiqlanganini anglatadi.

XULOSA

Markaziy intilish o‘lchovlari tahlili: tadqiqot natijasida T. strauchi turining o‘rtacha standart uzunligi 70.09 $\pm$0,63 mm, T. dorsalis turi uchun esa 55.57$\pm$0,52 mm ekanligi aniqlandi. Styudentning t-mezoni bo‘yicha olingan natija (t_{fakt} = 17.77) jadval qiymatidan (t_{st} = 2.048) bir necha barobar yuqori chiqdi (p < 0.001). Bu ikki tur o‘rtasidagi tana uzunligi bo‘yicha farq tasodifiy emas, balki chuqur biologik va genetik differensiallanish natijasi ekanligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komilova D., Qayumova Y., Sheraliyev B. Qoradaryo suv havzasi ixtiofaunasining sistematik tur tarkibi // Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 2020. – №5/1. – B. 22-28.

2. Qayumova Y., Urmonova D., Sheraliyev B. Farg‘ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan *Triplophysa ferganaensis* va *Triplophysa daryoae* turlari morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili // O‘zMU xabarlari, 2023. – №3/1, – B. 101-103.

3. Qayumova Y.Q. O‘zbekiston suv havzalarida uchrovchi yalangbaliqlarning endemik urug‘i – *Iskandaria* Prokofiev, 2009 (Teleistei: Nemacheilidae) turlari plastik belgilarining solishtirma tahlili // Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 2022. – №9/1, – B. 38-41.

4. Mirabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O‘zbekiston baliqlari xilma-xilligi. – Toshkent: “Classic” nashriyoti, 2020. – 115 b.

5.Sheraliyev B., Qayumova Y., Komilova D. Farg‘ona vodiysi suv havzalarida uchraydigan dog‘li yalangbaliq (*Triplophysa strauchii*) ning morfologik xususiyatlari // Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2020. – №1, – B. 120-131.

6.Solijonov X.X., Izzatullayev Z. Farg‘ona vodiysi buloqlarida tarqalgan zuluklarning bioxilma-xillik ko‘rsatkichlari // AndDU Ilmiy xabarnomasi. Seriya: Biologik tadqiqotlar. – Andijon, 2021. – № 8 (60). – B. 58-69.

7.Xoliqov R.Y. Farg‘ona vodiysi (Tabiiy geografiya). – Toshkent: Navro‘z, 2020. – 168 b.

8.Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть I. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1948. – 1-466 с.

TOSHKENT SHAHRI ATMOSFERA HAVOSIDA $PM_{2.5}$ VA PM_{10} ZARRACHALARINING 2025-YIL UCHUN TAHLILI
(Horiba monitoring stansiyasi ma'lumotlari asosida)

Narzullayev A.B.

Gidrometeorologiya xizmati agentligi

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)

narzullayev.azimjon@gmail.com

Худойбердиев А.Х.

Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti

alisherxudoyberdiyev1002@gmail.com

Xolmatjanov B.M.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

b.xolmatjanov@nuu.uz

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Toshkent shahri atmosfera havosidagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} muallaq qattiq zarrachalarining 2025-yil davomidagi kontsentratsiyalari Horiba avtomatik monitoring stantsiyasi ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda havo sifati ko'rsatkichlarining yillik, mavsumiy, oylik va sutkalik o'zgarishlari o'rganildi hamda ularning AQI (Air Quality Index) toifalari bo'yicha baholandi. Natijalarga*

ko'ra, $PM_{2.5}$ va PM_{10} kontsentratsiyalari qish va kuz mavsumlarida keskin yuqori bo'lib, ayniqsa noyabr oyida eng yuqori qiymatlar qayd etilgan. $PM_{2.5}$ ning yillik o'rtacha kontsentratsiyasi taxminan 45 mkg/m³, PM_{10} niki esa 106 mkg/m³ ni tashkil etib, JSST tavsiya etgan me'yorlardan bir necha barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, PM_{10} bo'yicha bahor va yoz mavsumida kuzatilgan kuchli chang bo'ronlari ta'siri qayd etilgan. Tadqiqot natijalari Toshkent shahri atmosfera havosining ekologik holatini baholash, aholi salomatligiga xavf darajasini aniqlash hamda havo sifati monitoringini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *muallaq zarralar, PM_{10}, $PM_{2,5}$, havo sifati indeksi (AQI), qish mavsumi, harorat inversiyasi, Toshkent shahri, monitoring, Horiba stantsiyasi, fazoviy taqsimot, sutkalik o'zgarish.*

Аннотация*. В данном исследовании проведён анализ концентраций взвешенных твёрдых частиц $PM_{2.5}$ и PM_{10} в атмосферном воздухе города Ташкента за 2025 год на основе данных автоматической мониторинговой станции Horiba. В работе изучены годовые, сезонные, месячные и суточные изменения показателей качества воздуха, а также выполнена их оценка по категориям индекса качества воздуха AQI (Air Quality Index). Результаты показали, что концентрации $PM_{2.5}$ и PM_{10} значительно возрастали в зимний и осенний периоды, при этом наибольшие значения были зафиксированы в ноябре. Среднегодовая концентрация $PM_{2.5}$ составила около 45 мкг/м³, а PM_{10} – 106 мкг/м³, что в несколько раз превышает рекомендуемые нормы Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ). Кроме того, было отмечено влияние сильных пылевых бурь в весенний и летний сезоны на концентрацию PM_{10}. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для*

оценки экологического состояния атмосферного воздуха города Ташкента, определения уровня риска для здоровья населения и совершенствования системы мониторинга качества воздуха.

Ключевые слова: *взвешенные частицы, PM_{10}, $PM_{2.5}$, индекс качества воздуха (AQI), зимний сезон, температурная инверсия, город Ташкент, мониторинг, станция Horiba, пространственное распределение, суточная изменчивость.*

Abstract*. This study analyzes the concentrations of suspended particulate matter $PM_{2.5}$ and PM_{10} in the atmospheric air of Tashkent city during 2025 based on data obtained from the Horiba automatic monitoring station. Annual, seasonal, monthly, and diurnal variations in air quality indicators were investigated and assessed according to Air Quality Index (AQI) categories. The results showed that $PM_{2.5}$ and PM_{10} concentrations were significantly higher during the winter and autumn seasons, with the highest values recorded in November. The annual average concentration of $PM_{2.5}$ was approximately 45 μg/m³, while PM_{10} reached 106 μg/m³, exceeding the World Health Organization (WHO) recommended limits several times. In addition, the impact of strong dust storms observed during the spring and summer seasons on PM_{10} concentrations was identified. The findings of the study have important scientific and practical significance for assessing the ecological condition of atmospheric air in Tashkent city, determining potential health risks for the population, and improving air quality monitoring systems.*

Keywords: *particulate matter, PM_{10}, $PM_{2.5}$, air quality index (AQI), winter season, temperature inversion, Tashkent city, monitoring, Horiba station, spatial distribution, diurnal variation.*

Kirish. XXI asrda atmosfera havosining ifloslanishi global ekologik muammolardan biri sifatida dunyo hamjamiyati diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, shaharlashuv jarayonlarining jadallashishi, sanoat korxonalari sonining ortishi, avtotransport vositalari harakatining ko‘payishi hamda energetika sohasida yoqilg‘i resurslaridan keng foydalanilishi atmosfera havosiga katta antropogen bosim yuklamoqda. Bu holat havo tarkibida muallaq qattiq zarrachalar - $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining ortishiga olib kelib, inson salomatligi va atrof-muhitga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, $PM_{2.5}$ zarrachalari inson organizmi uchun eng xavfli havo ifloslantiruvchilaridan biri hisoblanadi. Ushbu mayda zarrachalar nafas yo‘llari orqali o‘pkaning chuqur qatlamlarigacha kirib borib, yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimi kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. PM_{10} zarrachalari esa atmosferadagi chang va aerozollarning asosiy qismini tashkil etib, aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda shahar ekologik holatining muhim indikatori hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan Toshkent shahri geografik joylashuvi, quruq iqlim sharoiti, transport tizimi yuklamasi va aholi sonining ortishi sababli atmosfera havosi ifloslanishi yuqori bo‘lgan shaharlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qish mavsumida isitish tizimlari faoliyati, harorat inversiyasi va shamolsiz ob-havo sharoiti havoda ifloslantiruvchi moddalarning to‘planishiga sabab bo‘ladi. Bahor va yoz oylarida esa chang bo‘ronlari hamda qurilish ishlari PM_{10} konsentratsiyasining oshishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda xalqaro monitoring platformalari, jumladan IQAir ma’lumotlarida Toshkent shahri havo sifati bo‘yicha dunyodagi eng iflos shaharlar qatorida qayd etilmoqda. Bu esa atmosfera havosi holatini muntazam monitoring qilish, ifloslanish manbalarini tahlil etish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda Toshkent shahri atmosfera havosidagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} muallaq zarrachalarining 2025-yil davomidagi o‘zgarish dinamikasi Horiba avtomatik monitoring stansiyasi ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda havo sifati ko‘rsatkichlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, mavsumiy xususiyatlari, AQI toifalari, sutkalik sikllari hamda hududiy taqsimoti kompleks o‘rganildi. Olingan natijalar shahar atmosfera havosining ekologik holatini baholash va havo sifati monitoringini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

Tadqiqotning maqsadi. Toshkent shahri atmosfera havosidagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} muallaq zarrachalarining 2025-yil davomidagi vaqt va fazo bo‘yicha o‘zgarish xususiyatlarini Horiba monitoring stansiyasi ma’lumotlari asosida kompleks tahlil qilish hamda havo sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

Toshkent shahridagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining yillik o‘rtacha qiymatlarini aniqlash, muallaq zarrachalarning oylik, mavsumiy va yarim yillik dinamikasini tahlil qilish, havo sifati indeksi (AQI) bo‘yicha atmosfera havosi holatini baholash, $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining sutkalik (diurnal) o‘zgarish xususiyatlarini o‘rganish, $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalari nisbatini tahlil qilish orqali ifloslanish manbalarini baholash, chang bo‘ronlari va isitish mavsumining havo sifatiga

ta’sirini aniqlash, IDW interpolyatsiya usuli asosida $PM_{2.5}$ ning hududiy taqsimot xaritalarini tuzish, olingan natijalarni JSST (WHO), AQSH EPA va O‘zbekiston milliy standartlari bilan taqqoslash va atmosfera havosi monitoringini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va predmeti.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahri atmosfera havosi hamda undagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} muallaq qattiq zarrachalari konsentratsiyalari qabul qilindi.

Tadqiqot predmetini 2025-yil davomida Horiba avtomatik monitoring stansiyasi tomonidan o‘lchangan $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining vaqt bo‘yicha (soatlik, sutkalik, oylik, mavsumiy va yarim yillik) hamda fazoviy taqsimoti, AQI ko‘rsatkichlari, fraksion tarkibi va ularning meteorologik hamda antropogen omillar bilan bog‘liqligi tashkil etadi.

Foydalanilgan birlamchi ma’lumotlar va tadqiqot usullari.

Tadqiqotda asosiy birlamchi ma’lumotlar sifatida Toshkent shahrida joylashgan Horiba avtomatik atmosfera monitoring stansiyasining 2025-yil yanvar–dekabr oylari davomida qayd etgan $PM_{2.5}$ va PM_{10} bo‘yicha soatlik konsentratsiya ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, havo sifati indeksi (AQI) ko‘rsatkichlari ham tahlil jarayoniga jalb qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

statistik tahlil usuli;

vaqt qatorlari tahlili;

oylik, mavsumiy va yarim yillik guruhlash usuli;

AQI indeksatsiya va klassifikatsiya usuli;

box-plot va heatmap grafik tahlillari;

PM2.5/PM10 fraksiya nisbati tahlili;

IDW (Inverse Distance Weighting) interpolyatsiya usuli;

geoaxborot va kartografik tahlil usullari;

xalqaro va milliy me’yorlar bilan taqqoslash tahlili.

Tadqiqot natijalarini vizuallashtirishda grafik, diagramma, heatmap va tematik xaritalardan foydalanildi. Hisob-kitob va tahlil ishlari Python dasturlash tili hamda zamonaviy statistik paketlar yordamida amalga oshirildi.

1-jadval

PM_{10} va $PM_{2,5}$ bo‘yicha JSST (WHO) tavsiyaviy qiymatlari va O‘zbekistondagi ruxsat etilgan me’yorlar

Ifloslantiruvchi modda	**O‘rtachalash davri**	**JSST (WHO) tavsiyaviy qiymat (mkg/m3)**	**O‘zbekiston REM (mkg/m3)**
PM_{10}	Soatlik	—	500
	Sutkalik	45	300
	Yillik	15	50
$PM_{2,5}$	Soatlik	—	60

	Sutkalik	15	60
	Yillik	5	35

2-jadval

Atmosfera havosi sifati ko‘rsatkichlarini milliy indeksatsiyasi baholash tartibi

Moddalar	**Yashil**	**Sariq**	**Zarg’aldoq**	**Qizil**	**Binafsharang**	**O’lchov birligi**
PM_{10}	0-75	75,1-150	150,1-225	225,1-375	375,1 va undan yuqori	**[mkg/m3]**
$PM_{2,5}$	0-60	60,1-120	120,1-180	180,1-300	300,1 va undan yuqori	**[mkg/m3]**

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi.

1. Toshkent shahri havo sifatining umumiy ko’rsatkichlari.

Toshkent shahri - O’zbekiston Respublikasining poytaxti va eng yirik shahri bo’lib, aholisi 3 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Shahar hududida sanoat korxonalari, avtotransport vositalari, qurilish ishlari va tabiiy omillar (chang bo’ronlari, cho’l hududlaridan keladigan chang) tufayli atmosfera havosida muallaq chang zarrachalari konsentratsiyasi muhim ekologik muammo sifatida qolmoqda. Ushbu qismda Toshkent shahridagi Horiba monitoring stansiyasi tomonidan 2025-yil davomida yig’ilgan $PM_{2.5}$ va PM_{10} ma’lumotlari batafsil o’rganiladi.

$PM_{2.5}$ - diametri 2.5 mikrometrdan kichik bo'lgan mayda chang zarrachalari bo'lib, ular nafas olish tizimi orqali o'pkaning eng chuqur qismlariga kirib boradi va salomatlikka jiddiy xavf tug'diradi. PM_{10} - diametri 10 mikrometrdan kichik bo'lgan zarrachalar bo'lib, ularga $PM_{2.5}$ ham kiradi. $PM_{2.5-10}$ (ya'ni PM_{10} tarkibidagi yirik fraksiya) asosan tabiiy manbalardan - tuproq eroziyasi, qurilish changi va yo'l changidan kelib chiqadi.

Tahlilimiz uchun asos bo'lgan ma'lumotlar Toshkent shahri markazida joylashgan Horiba monitoring stansiyasidan olingan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyidan dekabr oyigacha bo'lgan to'liq kalendar yilni qamrab oladi. Stansiya soatlik o'rtacha konsentratsiyalarni o'lchab borgan va ushbu ma'lumotlar oylik, mavsumiy, yarim yillik va yillik darajada umumlashtirilgan.



1-rasm. 2025-yil davomida soatlik $PM_{2.5}$, PM_{10} konsentratsiyalari va havo sifati indeksi (AQI) dinamikasi

1-rasmda 2025-yil davomida soatlik $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining to'liq vaqt qatori, shuningdek AQI (Air Quality Index) ko'rsatkichi keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi yil davomida 0 dan 400 mkg/m³ gacha o'zgargan, bunda eng yuqori qiymatlar yanvar-fevral va noyabr-dekabr oylarida kuzatilgan. PM_{10} uchun esa ayrim ekstremal hodisalarda konsentratsiya 2500 mkg/m³ dan oshgan, bu esa chang bo'ronlari yoki boshqa favqulodda hodisalar bilan bog'liq.

AQI ko'rsatkichi nuqtai nazaridan, yilning ko'p qismi "O'rtacha" (Moderate, 51–100) va "Sezgir guruhlar uchun zararli" (Unhealthy for Sensitive Groups, 101–150) toifalarida bo'lgan. Noyabr va dekabr oylarida AQI "Zararli" (Unhealthy, 151–200) va hatto "Juda zararli" (Very Unhealthy, 201–300) darajalariga ko'tarilgan.

2. Yillik o'rtacha konsentratsiyalar.

2025-yil uchun Toshkent shahridagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning yillik o'rtacha konsentratsiyalari quyidagi grafikda keltirilgan.



2-rasm. 2025-yil $PM_{2.5}$ va PM_{10} yillik o'rtacha konsentratsiyalari

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2025-yilda Toshkent shahridagi $PM_{2.5}$ ning yillik o'rtacha konsentratsiyasi taxminan 45 mkg/m³ ni, PM10 esa 106 mkg/m³ ni tashkil etgan. JSST (Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti) tomonidan tavsiya etilgan $PM_{2.5}$ uchun yillik me'yor 5 mkg/m³, PM10 uchun esa 15 mkg/m³ ekanligini hisobga olsak, Toshkentdagi ko'rsatkichlar ushbu me'yorlardan 9 va 7 baravar yuqori bo'lgan.

AQSh Atrof-muhit muhofazasi agentligi (EPA) standartlari bo'yicha $PM_{2.5}$ ning 24 soatlik me'yori 35 mkg/m³ ni tashkil etadi. Toshkentning yillik o'rtacha ko'rsatkichi (45 mkg/m³) bu me'yordan ham sezilarli yuqori. O'zbekiston Respublikasi milliy standartlariga ko'ra, $PM_{2.5}$ uchun sutkalik ruxsat etilgan konsentratsiya 60 mkg/m³ bo'lib, yillik o'rtacha bu chegaradan pastda qolgan, ammo alohida oylarda ushbu chegara oshirilgan.

$PM_{10}/PM_{2.5}$ nisbati taxminan 2.4 ni tashkil etgan, bu esa PM_{10} tarkibida $PM_{2.5}$ dan tashqari yirik zarrachalar ($PM_{2.5–10}$ fraksiyasi) ulushi sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Bu nisbat Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xos bo'lib, quriq iqlim sharoitida tuproq eroziyasi va chang manbalarining yuqori hissasini aks ettiradi.

3. Oylik o'rtacha konsentratsiyalar dinamikasi.

Atmosfera havosi sifatining oylar kesimidagi o'zgarish dinamikasi iqlim sharoitlari, isitish mavsumi va tabiiy omillarning ta'sirini aniqlashda muhim

ahamiyatga ega. Quyidagi grafiklarda $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning 2025-yil oylik o'rtacha konsentratsiyalari keltirilgan.



3-rasm. 2025-yil oylik o'rtacha $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalari (bar diagramma)

3-rasmda $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning oylik o'rtacha konsentratsiyalari bar diagramma shaklida keltirilgan. Grafikdan aniq ko'rinib turibdiki, ikkala ko'rsatkich ham yil boshida (yanvar - taxminan 68 mkg/m³ $PM_{2.5}$ va 109 mkg/m³ PM_{10}) nisbatan yuqori bo'lgan, keyin mart-avgust oylarida pasaygan ($PM_{2.5}$ eng past qiymati avgustda - 25 mkg/m³ atrofida) va kuz-qish mavsumida qayta oshgan.

Eng yuqori konsentratsiyalar noyabr oyida qayd etilgan: $PM_{2.5}$ uchun taxminan 108 mkg/m³, PM_{10} uchun esa 178 mkg/m³. Bu qiymatlar O'zbekiston milliy standartidagi 60 mkg/m³ lik sutkalik $PM_{2.5}$ me'yoridan deyarli 2 baravar yuqori bo'lgan. Dekabr oyida konsentratsiya biroz pasaygan ($PM_{2.5}$ - 51 mkg/m³, PM_{10} - 79 mkg/m³), bu noyabr oyidagi o'ta noqulay meteorologik sharoitlarning o'zgarganligini ko'rsatishi mumkin.



4-rasm. 2025-yil oylik o'rtacha $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalari normativ chegaralar bilan

4-rasmda oylik o'rtacha konsentratsiyalar AQSh EPA standarti ($PM_{2.5}$: 35 mkg/m³) va O'zbekiston sutkalik me'yori ($PM_{2.5}$: 60 mkg/m³) bilan taqqoslangan. $PM_{2.5}$ uchun yanvar va fevral oylarida konsentratsiya O'zbekiston me'yoriga yaqin yoki undan yuqori bo'lgan, noyabr oyida esa ushbu me'yoridan sezilarli oshgan. Apreldan avgustgacha bo'lgan davrda $PM_{2.5}$ o'rtacha konsentratsiyasi EPA standartidan past bo'lgan, bu esa yozgi davrda havo sifatining nisbatan yaxshi ekanligini tasdiqlaydi.

PM_{10} uchun esa barcha oylar davomida konsentratsiya AQSh EPA standartidan (50 mkg/m³) yuqori bo'lgan. Noyabr oyida PM_{10} konsentratsiyasi 150 mkg/m³ lik EPA standartiga yaqinlashgan va hatto undan oshgan. O'zbekiston milliy standartiga ko'ra PM10 uchun sutkalik me'yor 300 mkg/m³ bo'lib, oylik o'rtacha qiymatlar bu chegaradan past qolgan, ammo soatlik qiymatlarda bu chegaradan bir necha marta oshgan.



5-rasm. 2025-yil davomida soatlik $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalari normativ chegaralar bilan

5-rasmda soatlik konsentratsiyalarning yil davomidagi to'liq dinamikasi normativ chegaralar bilan birga ko'rsatilgan. $PM_{2.5}$ uchun soatlik qiymatlar yanvar-fevral oylarida va noyabr-dekabr oylarida tez-tez 60 mkg/m³ lik O'zbekiston me'yoridan oshgan. Mayda zarrachalar uchun eng yuqori soatlik qiymat (taxminan 400 mkg/m³) noyabr yoki dekabr oylarida qayd etilgan.

PM_{10} uchun soatlik ma'lumotlarda bir nechta ekstremal hodisalar aniq ko'rinadi. May oyida va yana iyul, sentiyabr, oktiyabr, noyabr oylarida PM_{10} konsentratsiyasi keskin oshgan. May oyidagi eng yuqori qiymat 2500 mkg/m³ dan oshgan, bu esa kuchli chang bo'roni hodisasi bilan bog'liq. Bunday hodisalar qisqa muddatli bo'lsa-da, aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi.

3.1. Oylik o'rtacha konsentratsiyalarning AQI toifalari bo'yicha baholash.



6-rasm. $PM_{2.5}$ va PM_{10} oylik o'rtacha konsentratsiyalari AQI toifalari fonida

6-rasmda oylik o'rtacha konsentratsiyalar AQI toifalari fonida tasvirlangan. $PM_{2.5}$ uchun deyarli barcha oylar "Yashil" (Green, 0–50 mkg/m³) toifada bo'lgan, faqat yanvar va noyabr oylari "Sariq" (Yellow, 51–100 mkg/m³) toifaga o'tgan. Bu yilning ko'p qismida $PM_{2.5}$ o'rtacha konsentratsiyasining me'yoriy chegarada ekanligini ko'rsatadi, ammo bu o'rtacha qiymatlar ichida yuqori soatlik konsentratsiyalar yashiringanini unutmaslik kerak.

PM_{10} uchun oylik o'rtacha konsentratsiyalar deyarli barcha oylar davomida "Sariq" toifada bo'lgan, noyabr oyida esa "To'q sariq" (Orange) toifaga ko'tarilgan. Bu PM_{10} ifloslanishi yil bo'yi doimiy muammo ekanligini anglatadi.

4. Mavsumiy tahlil.

Toshkent shahridagi havo ifloslanishining mavsumiy xarakterini aniqlash maqsadida ma’lumotlar to’rt mavsumga bo’lingan: qish (dekabr, yanvar, fevral), bahor (mart, aprel, may), yoz (iyun, iyul, avgust) va kuz (sentiyabr, oktiyabr, noyabr). Quyida mavsumiy tahlil natijalari keltirilgan.

4.1. Mavsumiy o’rtacha konsentratsiyalar.



7-rasm. 2025-yil mavsumiy o’rtacha $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalari

7-rasmda $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning mavsumiy o’rtacha konsentratsiyalari keltirilgan. Eng yuqori konsentratsiyalar kuz mavsumida kuzatilgan: $PM_{2.5}$ - 64 mkg/m³, PM_{10} - 150 mkg/m³. Ikkinchi o’rinda qish mavsumi turgan: $PM_{2.5}$ - 59 mkg/m³, PM_{10} - 94 mkg/m³. Eng past konsentratsiyalar yoz mavsumida qayd etilgan: $PM_{2.5}$ - 26 mkg/m³, PM_{10} - 99 mkg/m³.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, kuz mavsumidagi PM_{10} konsentratsiyasi (150 mkg/m³) qish mavsumidagidan (94 mkg/m³) sezilarli yuqori bo’lgan. Bu kuz oylarida, ayniqsa noyabr oyida, yirik chang zarrachalari konsentratsiyasining keskin oshishi

bilan izohlanadi. Bunday o'sishga quruq ob-havo sharoitlari, tuproq eroziyasi va isitish mavsumining boshlanishi birga ta'sir ko'rsatgan.



8-rasm. Mavsumiy o'rtacha konsentratsiyalar normativ chegaralar bilan solishtirilganda

8-rasmda mavsumiy o'rtacha konsentratsiyalar xalqaro va milliy normativ chegaralar bilan solishtirilgan. $PM_{2.5}$ uchun qish va kuz mavsumlarida o'rtacha konsentratsiya O'zbekiston sutkalik me'yori (60 mkg/m³) atrofida yoki undan yuqori bo'lgan, AQSh EPA standarti (35 mkg/m³) dan esa barcha mavsumlarda oshgan. Faqat yoz va bahor mavsumlarida $PM_{2.5}$ nisbatan qulay holatda bo'lgan, ammo baribir EPA standartidan yuqori.

PM_{10} uchun barcha mavsumlarda konsentratsiya AQSh standartidan (50 mkg/m³) sezilarli yuqori. Kuz mavsumida PM_{10} AQSh EPA ning 150 mkg/m³ lik standartiga yaqinlashgan, bu esa jiddiy havo ifloslanishi darajasini ko'rsatadi.



9-rasm. $PM_{2.5}$ va PM_{10} mavsumiy o'rtacha konsentratsiyalari AQI toifalari fonida

9-rasmda mavsumiy o'rtacha konsentratsiyalar AQI toifalari fonida ko'rsatilgan. $PM_{2.5}$ uchun barcha mavsumlar "Yashil" toifada, faqat kuz mavsumi "Sariq" toifaga yaqin bo'lgan. PM_{10} uchun esa barcha mavsumlar "Sariq" toifada bo'lib, kuz mavsumi "To'q sariq" toifaga o'tgan.

4.2. Mavsumiy taqsimot tahlili (Box-plot).



10-rasm. $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining mavsumiy taqsimoti

10-rasmda $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining mavsumiy taqsimoti box-plot (quti diagrammasi) shaklida keltirilgan. $PM_{2.5}$ uchun mediana (o'rta chiziq) barcha mavsumlarda 25–60 mkg/m³ oralig'ida bo'lgan, eng keng tarqalish qish va kuz mavsumlarida kuzatilgan. Barcha mavsumlarda ko'plab chetga chiqish qiymatlari (outliers) mavjud bo'lib, ular 200–500 mkg/m³ gacha yetgan. Bu esa yuqori konsentratsiyali epizodlar barcha mavsumlarda yuz berishini ko'rsatadi.

PM_{10} uchun bahor mavsumida eng ko'p me'yordan chetga chiqish qiymatlari kuzatilgan, bunda ba'zi qiymatlar 3000 mkg/m³ dan oshgan. Bu bahor oylaridagi chang bo'ronlari ta'sirini aks ettiradi. Interkvartil oralig'i (IQR) kuz mavsumida kengaygan, bu esa kuz oylarida konsentratsiya o'zgaruvchanligining yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

5. $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalari nisbati tahlili.

PM_{10} tarkibidagi $PM_{2.5}$ (mayda zarrachalar) va $PM_{2.5–10}$ (yirik zarrachalar) fraksiyalarining nisbiy hissasini o'rganish ifloslanish manbalarini aniqlashda muhim

ahamiyatga ega. $PM_{2.5}$ asosan antropogen manbalardan (yonish jarayonlari, transport, sanoat), $PM_{2.5–10}$ esa tabiiy manbalardan (tuproq, chang, qurilish) kelib chiqadi.

5.1. Oylik fraksiya nisbati.



11-rasm. 2025-yil oylik $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalari nisbati

11-rasmda $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalarining oylik nisbati keltirilgan. Qish oylarida (yanvar, fevral, dekabr) $PM_{2.5}$ ulushi umumiy PM_{10} tarkibida 60–65% ni tashkil etgan, bu esa mayda zarrachalar manbalari (isitish tizimlari, transport) ustunligini ko'rsatadi. Yoz oylarida (iyun, iyul, avgust) esa $PM_{2.5}$ ulushi 25–30% gacha pasaygan, $PM_{2.5–10}$ (yirik zarrachalar) ulushi esa 70–75% gacha oshgan.

Bu tendentsiya mantiqiy asosga ega: qish oylarida isitish tizimlaridan chiqayotgan mayda zarrachalar konsentratsiyasi oshadi, yoz oylarida esa quruq tuproqdan ko'tariladigan chang (yirik zarrachalar) ustun bo'ladi. O'tish mavsumlari (mart–aprel va sentyabr–oktyabr) da nisbat oraliq qiymatlarda bo'lgan.

5.2. Mavsumiy va yarim yillik fraksiya nisbati.



12-rasm. 2025-yil mavsumiy $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalari nisbati

12-rasmda mavsumiy fraksiya nisbati keltirilgan. Qish mavsumida $PM_{2.5}$ ulushi eng yuqori (64%), yoz mavsumida eng past (28%) bo'lgan. Bahor (40%) va kuz (41%) mavsumlari oraliq holatda bo'lgan.



13-rasm. Issiq va sovuq yarim yillik $PM_{2.5}$ va $PM_{2.5–10}$ fraksiyalari nisbati

13-rasmda yarim yillik fraksiya nisbati keltirilgan. Sovuq yarim yilda $PM_{2.5}$ ulushi 57%, issiq yarim yilda esa 30% ni tashkil etgan. Bu ma'lumotlar isitish

mavsumida mayda zarrachalar ifloslanishining ustun ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

6. Sutkalik (diurnal) sikllik tahlili.

Havo ifloslanishining kun davomidagi o'zgarishi (diurnal tsikl) transport oqimlari, sanoat faoliyati, isitish tizimlari va meteorologik sharoitlarning kunlik ritmiga bog'liq. Ushbu bo'limda $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning soatlik vaqt oralig'idagi hissalari va AQI toifalari bo'yicha taqsimoti tahlil qilinadi.

6.1. Vaqt oraliqlari bo'yicha hissa.

Sutka 4 ta 6 soatlik oraliqqa bo'lingan: tungi (00:00–06:00), ertalabki (06:00–12:00), kunduzi (12:00–18:00) va kechki (18:00–24:00). Har bir oraliqning PM konsentratsiyasiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan.



14-rasm. $PM_{2.5}$ konsentratsiyasiga vaqt oralig'larining oylik hissasi

14-rasmda $PM_{2.5}$ konsentratsiyasiga to'rt vaqt oralig'ining oylik hissasi keltirilgan. Tungi soatlar (00–06) ning hissasi 15–20% atrofida, ertalabki (06–12) va

kunduzi (12–18) soatlarning hissasi har biri 20–25%, kechki soatlarning (18–24) hissasi esa 25–30% atrofida bo'lgan. Kechki soatlardagi yuqori hissa isitish tizimlarining kechqurun faollashishi va atmosfera inversiyasining tun boshida kuchayishi bilan bog'liq.



15-rasm. PM_{10} konsentratsiyasiga vaqt oralig'larining oylik hissasi

15-rasmda PM_{10} uchun xuddi shunday tahlil keltirilgan. PM_{10} uchun kunduzi soatlari (12–18) ning hissasi nisbatan kattaroq (20–25%), bu esa transport oqimlari va qurilish ishlarining kunduzi faol bo'lishi bilan izohlanadi. Iyul oyida ertalabki va kunduzi soatlarning hissasi biroz oshgan, bu yoz oylaridagi tuproq changining kun issig'ida ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

6.2. Mavsumiy vaqt oralig'lari hissasi.



16-rasm. PM_{10} konsentratsiyasiga vaqt oralig'larining mavsumiy hissasi



17-rasm. $PM_{2.5}$ konsentratsiyasiga vaqt oralig'larining mavsumiy hissasi

16 va 20-rasmlarda vaqt oraliqlarining mavsumiy hissasi keltirilgan. PM_{10} uchun mavsumlar bo'yicha hissa taqsimoti nisbatan bir tekis bo'lgan, bu esa yirik zarrachalar manbalarining kun davomida nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatadi. $PM_{2.5}$ uchun esa

kechki va tungi soatlarning hissasi qish va kuz mavsumlarida ko'proq bo'lgan, bu esa isitish tizimlarining kechki-tungi faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

7. Soat-oy va soat-kun heatmap tahlili.

Havo ifloslanishining vaqtga bog'liq xarakterini yanada chuqurroq o'rganish uchun heatmap (issiqlik xaritasi) grafiklari qo'llanilgan. Bu grafiklarda konsentratsiya AQI toifalari (Yashil, Sariq, To'q sariq, Qizil, Binafsha) bo'yicha rang kodlangan.

7.1. $PM_{2.5}$ soatlik taqsimoti.



18-rasm. $PM_{2.5}$ oylik-soatlik o'rtacha AQI toifalari (heatmap)

18-rasmda $PM_{2.5}$ ning oylik-soatlik o'rtacha konsentratsiyalari AQI toifalari bo'yicha ko'rsatilgan. Apreldan avgustgacha bo'lgan davrdagi barcha soatlarda asosan "Yashil" toifa ustunlik qilgan. Yanvar va fevral oylarida kechki va tungi soatlarda (18:00–06:00) "Sariq" toifa kuzatilgan. Noyabr oyida deyarli barcha soatlarda "Sariq" yoki "To'q sariq" toifa qayd etilgan, bu esa noyabrning eng iflos oy ekanligini tasdiqlaydi.



19-rasm. $PM_{2.5}$ kunlik-soatlik AQI toifalari (batafsil heatmap)

19-rasmda $PM_{2.5}$ ning har bir kun va soat uchun AQI toifasi ko'rsatilgan. Bu batafsil heatmap ayrim kunlardagi keskin ifloslanish epizodlarini aniq ko'rsatadi. Yanvar-fevral, oktyabr oxiri va noyabr-dekabr davrlarida "Qizil" va hatto "Binafsha" toifadagi kunlar mavjud. Apreldan sentiyabrgacha bo'lgan davr asosan "Yashil" bo'lib, faqat ayrim kunlarda qisqa muddatli "Sariq" epizodlar kuzatilgan.

7.2. PM_{10} soatlik taqsimoti.



20-rasm. PM_{10} oylik-soatlik o'rtacha AQI toifalari (heatmap)

20-rasmda PM_{10} ning oylik-soatlik heatmapi keltirilgan. PM_{10} uchun "Sariq" toifa yil bo'yi ustun bo'lgan, bu esa PM_{10} ifloslanishining doimiy xarakterini ko'rsatadi.

Bahor va yoz oylarida kunduzi soatlarda (12–18) ayrim oylarda “Yashil” toifa kuzatilgan, bu esa shamol ta’sirida zarrachalarning tarqalishi bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Kuz mavsumida, ayniqsa oktiyabr-noyabr oylarida, “To’q sariq” va “Qizil” toifalar paydo bo’lgan.



21-rasm. PM_{10} kunlik-soatlik AQI toifalari (batafsil heatmap)

21-rasmda PM_{10} ning kunlik-soatlik batafsil heatmapi keltirilgan. $PM_{2.5}$ ga nisbatan PM_{10} uchun yil bo’yi ko’proq “Sariq” va “To’q sariq” ranglar ustunlik qilgan. Mart oyida bir necha kun davomida “Qizil” toifa kuzatilgan, bu esa chang bo’roni hodisalari bilan bog’liq. Noyabr-dekabr davrida ko’plab “Qizil” kunlar qayd etilgan.

7.3. Mavsumiy-soatlik heatmap tahlili.



22-rasm. $PM_{2.5}$ mavsumiy-soatlik AQI toifalari

22-rasmda $PM_{2.5}$ ning mavsumiy-soatlik heatmapi keltirilgan. Bahor va yoz mavsumlarida deyarli barcha soatlarda “Yashil” toifa ustunlik qilgan. Qish mavsumida kechki (18–24) va ertalabki (00–06) soatlarda “Sariq” toifa, kuz mavsumida esa deyarli barcha soatlarda “Sariq” toifa kuzatilgan.



23-rasm. PM_{10} mavsumiy-soatlik AQI toifalari

23-rasmda PM_{10} ning mavsumiy-soatlik heatmapi keltirilgan. PM_{10} uchun barcha mavsumlar va deyarli barcha soatlarda “Sariq” toifa ustunlik qilgan. Bahor va yoz mavsumlarida kunduzi soatlarda (12–18) “Yashil” toifa, kuz mavsumida esa “To’q sariq” toifa qayd etilgan.

7.4. Yarim yillik soatlik heatmap.



24-rasm. $PM_{2.5}$ issiq va sovuq yarim yillik soatlik AQI toifalari

24-rasmda $PM_{2.5}$ ning issiq va sovuq yarim yillik soatlik heatmapi keltirilgan. Issiq yarim yilda barcha soatlarda “Yashil” toifa, sovuq yarim yilda esa kechki soatlarda (17–23) “Sariq” toifa kuzatilgan. Bu esa isitish mavsumida kechki ifloslanishning kuchayishini yana bir bor tasdiqlaydi.



25-rasm. PM_{10} issiq va sovuq yarim yillik soatlik AQI toifalari

25-rasmda PM_{10} ning yarim yillik soatlik heatmapi keltirilgan. Ikkala yarim yilda ham “Sariq” toifa ustunlik qilgan. Sovuq yarim yilda kechki soatlarda (21–22) “To’q

sariq” toifa qayd etilgan, issiq yarim yilda esa kunduzi soatlarda (13–14) “Yashil” toifa kuzatilgan.

8. Oylik konsentratsiya taqsimoti (Box-plot).



26-rasm. $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining oylik taqsimoti

26-rasmda $PM_{2.5}$ va PM_{10} ning oylik taqsimoti box-plot shaklida keltirilgan. $PM_{2.5}$ uchun yanvar va fevral oylarida mediana va interkvartil oralig’i nisbatan yuqori, noyabr oyida esa eng keng tarqalish kuzatilgan. Noyabr oyidagi mediana taxminan 80–90 mkg/m³, yuqori kvartil esa 150 mkg/m³ dan oshgan.

PM_{10} uchun may oyida eng yuqori chetga chiqish qiymatlari (3000+ mkg/m³) qayd etilgan, bu kuchli chang bo’roni hodisasi bilan bog’liq. Noyabr oyida esa PM_{10} medianasi va interkvartil oralig’i eng keng bo’lgan, bu esa noyabrda umumiy ifloslanish darajasining barqaror yuqori bo’lganligini ko’rsatadi.

May oyidagi chang bo’roni hodisasi alohida e’tiborga loyiq. PM_{10} konsentratsiyasining 3000 mkg/m³ dan oshishi - bu sog’liq uchun o’ta xavfli daraja

bo'lib, bunday holatlarda tashqarida bo'lish tavsiya etilmaydi. Shu bilan birga, bu hodisa $PM_{2.5}$ konsentratsiyasini ham sezilarli oshirgan (480 mkg/m³ gacha), bu esa chang bo'ronlari paytida mayda zarrachalar ham ko'tarilishini ko'rsatadi.

9. Toshkent shahri hududlari bo'yicha PM2.5 taqsimoti.

Toshkent shahri 12 ta tumanga bo'lingan bo'lib, Horiba stansiyasi ma'lumotlari asosida IDW (Inverse Distance Weighting) interpolyatsiya usuli yordamida $PM_{2.5}$ konsentratsiyasining hududiy taqsimoti xaritalari yaratilgan. Quyida yillik o'rtacha, mavsumiy va yarim yillik xaritalar keltirilgan.

10.1. Yillik o'rtacha hududiy taqsimot.



27-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - yillik o'rtacha (2025)

27-rasmda Toshkent shahri tumanlarida $PM_{2.5}$ ning yillik o'rtacha konsentratsiyasi xaritasi keltirilgan. Yillik o'rtacha ko'rsatkich barcha tumanlarda

“Yashil” toifada (0–60 mkg/m³) bo’lgan. Bu esa yillik o’rtacha darajada shaharning barcha tumanlarida $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi nisbatan me’yoriy chegarada ekanligini ko’rsatadi.

9.2. Mavsumiy hududiy taqsimot.



28-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - qish mavsumi (2025)

Qish mavsumida shaharning g’arbiy tumanlarida (Chilonzor, Uchtepa, Sergeli, Yangihayot) $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi “Sariq” toifaga (60–120 mkg/m³) o’tgan. Sharqiy tumanlar (Bektemir, Yashnobod, Mirzo Ulug’bek) esa “Yashil” toifada qolgan. Bu farq g’arbiy tumanlarning sanoat zonalariga yaqinligi va Horiba stansiyasidan uzoqligi bilan bog’liq bo’lishi mumkin.



29-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - kuz mavsumi (2025)

Kuz mavsumida ham shunga o'xshash hududiy taqsimot kuzatilgan: g'arbiy va markaziy tumanlar "Sariq" toifada, sharqiy tumanlar "Yashil" toifada bo'lgan. Kuz mavsumidagi ifloslanish noyabr oyining yuqori konsentratsiyalari ta'sirida shakllangan.



30-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - bahor mavsumi (2025)



31-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - yoz mavsumi (2025)

Bahor va yoz mavsumlarida barcha tumanlar “Yashil” toifada bo’lgan, bu esa issiq davrda havo sifatining nisbatan yaxshi ekanligini tasdiqlaydi. Tumanlar orasidagi farq minimal bo’lgan.

9.3. Yarim yillik hududiy taqsimot.



32-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - sovuq yarim yil (2025)

32-rasmda sovuq yarim yillik $PM_{2.5}$ xaritasi keltirilgan. G’arbiy va janubi-g’arbiy tumanlar (Uchtepa, Chilonzor, Yangihayot, Sergeli, Yakkasaroy, Olmazor) aniq “Sariq” toifada, sharqiy tumanlar (Bektemir, Mirzo Ulug’bek, Yashnobod) va Yunusobod “Yashil” toifada bo’lgan. Bu hududiy farq isitish tizimlarining g’arbiy tumanlarda ko’proq ishlatilishi va sanoat zonalarining ta’siri bilan izohlanishi mumkin.



33-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - issiq yarim yil (2025)

Issiq yarim yilda barcha tumanlar “Yashil” toifada bo’lgan, tumanlar orasidagi farq minimal. Bu esa isitish mavsumining tugashi bilan mayda zarrachalar ifloslanishining sezilarli kamayishini ko’rsatadi.

9.4. Noyabr va dekabr oylari hududiy taqsimoti.

Eng ifloslanish yuqori oylar bo’lgan noyabr va dekabr oylari uchun alohida xaritalar quyida keltirilgan.



34-rasm. Toshkent shahri $PM_{2.5}$ - dekabr 2025

Dekabr oyida g'arbiy tumanlar (Chilonzor, Uchtepa, Yangihayot) "Sariq" toifaga o'tgan, qolgan tumanlar "Yashil" toifada qolgan. Bu isitish mavsumining kuchayishi va atmosfera inversiyasi sharoitlarining g'arbiy tumanlarda ko'proq ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq.

10.Xulosalar.

2025-yil davomida Toshkent shahridagi $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyalarining tahlili quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

Birinchidan, yillik o'rtacha $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi (45 mkg/m³) JSST tavsiyalaridan 9 baravar, AQSh EPA standartidan esa 1.3 baravar yuqori bo'lgan. PM_{10} yillik o'rtacha konsentratsiyasi (106 mkg/m³) JSST tavsiyalaridan 7 baravar yuqori. Bu

Toshkent shahri aholisining doimiy ravishda havo ifloslanishiga duchor bo'layotganligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ifloslanishning yaqqol mavsumiy xarakteri aniqlangan. Sovuq yarim yilda $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi issiq yarim yildagiga nisbatan 2.3 baravar yuqori bo'lgan. Eng iflos oy noyabr ($PM_{2.5}$: 108 mkg/m³), eng toza oy avgustdir ($PM_{2.5}$: 25 mkg/m³). Kuz mavsumida PM_{10} konsentratsiyasi 150 mkg/m³ gacha yetgan.

Uchinchidan, $PM_{2.5}/PM_{10}$ nisbatining mavsumiy o'zgarishi ifloslanish manbalarining mavsumiy xarakterini ko'rsatadi. Qish oylarida $PM_{2.5}$ ulushi 60–65% ni tashkil etgan (antropogen manbalar ustun), yoz oylarida esa 25–30% gacha pasaygan (tabiiy manbalar ustun).

*To'rtinchida*n, sutkalik sikllik tahlili kechki va tungi soatlarda (18:00–06:00) $PM_{2.5}$ konsentratsiyasining oshishini ko'rsatgan. Bu isitish tizimlari faoliyati va atmosferada xarorat inversiyasi hodisalari bilan bog'liq.

Beshinchidan, hududiy tahlil g'arbiy tumanlarning (Chilonzor, Uchtepa, Yangihayot, Sergeli) sharqiy tumanlarga nisbatan ko'proq ifloslanish kuzatilayotganligini ko'rsatgan. Bu farq ayniqsa sovuq yarim yilda yaqqol namoyon bo'lgan.

Oltinchidan, ekstremal hodisalar (chang bo'ronlari) paytida PM_{10} konsentratsiyasi 3000 mkg/m³ dan oshgan, bu esa sog'liq uchun o'ta xavfli daraja hisoblanadi. Bunday hodisalar asosan bahor va yoz oylarida kuzatilgan.

Yettinchidan, AQI tahlili yilning ko'p qismi "O'rtacha" va "Sezgir guruhlar uchun zararli" toifalarda o'tganligini ko'rsatgan. Noyabr-dekabr oylarida "Zararli" va "Juda zararli" darajalar ham qayd etilgan.

Ushbu tahlil natijalari Toshkent shahridagi havo sifati muammosining jiddiyligini ko’rsatadi va quyidagi chora-tadbirlarning zarurligini tasdiqlaydi:

- isitish tizimlarini modernizatsiya qilish;

- transport chiqindilarini kamaytirish;

- ko’kalamzorlashtirish ishlarini kengaytirish;

- chang bo’ronlariga qarshi yashil belbog’larni yaratish va aholi orasida havo sifati haqida xabardorlikni oshirish.

ADABIYOTLAR

1. *Каримов И.А., Нишонов Б.Э., Гранкина Л.Н., Плоцен М.А.* Загрязнение атмосферного воздуха в Узбекистане в 2022 году // Гидрометеорология и мониторинг окружающей среды. 2023. №1. – Б. 91-97.

2. *Нишонов Б.Э., Каримов И.А., Плоцен М.А., Гранкина Н.Л.* Качество атмосферного воздуха в Узбекистане в 2023 году // Гидрометеорология ва атроф-муҳит мониторинги, 2024. №3. – Б. 120-130.

3. *Нишонов Б.Э., Каримов И.А., Плоцен М.А., Гранкина Н.Л.* Качество атмосферного воздуха в Узбекистане в 2024 году // Гидрометеорология ва атроф-муҳит мониторинги, 2025. №3. – Б. 83-93.

4. СанҚваН 0053-23-сон. Аҳоли яшаш пунктларининг атмосфера ҳавосидаги зарарли ва заҳарли моддалар, продуцент микроорганизмлар, бактериал препаратлар ва аэроионларнинг рухсат этилган гигиеник меъёрлари. – Тошкент, 2023. – 153 б.

5. EN 12341:2014. Ambient air Standard gravimetric measurement method for the determination of the PM10 or PM2,5 mass concentration of suspended particulate matter. Brussels: European Committee for Standardization (CEN), 2014.

6. *Абдуллаев С.Ф., Маслов В.А., Назаров Б.И., Салихов Т.Х.* Вариации параметров аэрозольной оптической толщины в Душанбе // Известия РАН. Физика атмосферы и океана. 2014. Т. 50, №4. – С. 489-492.

7. *Атаганизова Р.А., Нишонов Б.Э., Каримов И.А., Элмуродова Д.Б., Азимова М.Б.* Порядок оценки качества атмосферного воздуха, информирование населения и стандарты безопасного поведения (методические рекомендации). – Ташкент: Научно-исследовательский институт санитарии, гигиены и профзаболеваний Министерства здравоохранения Республики Узбекистан, 2025. – 21 с.

8. *Hofer J., Althausen D., Abdullaev S.F., Makhmudov A.N., Nazarov B.I., Schettler G., Engelmann R., Baars H., Fomba K.W., Müller K., Heinold B., Kandler K., Ansmann A.* Long-term profiling of mineral dust and pollution aerosol with multiwavelength polarization Raman lidar at the Central Asian site of Dushanbe, Tajikistan: case studies // Atmospheric Chemistry and Physics. 2017. Vol. 17. – P. 14559-14577.

9. *Hofer J., Ansmann A., Althausen D., Engelmann R., Baars H., Abdullaev S.F., Makhmudov A.N.* Long-term profiling of aerosol light extinction, particle mass, cloud condensation nuclei, and ice-nucleating particle concentration over Dushanbe, Tajikistan, in Central Asia // Atmospheric Chemistry and Physics. 2020. 20. – P. 4695-4711.

10. *Karimov Yu., Mirzaliyev S., Payzullayeva A., Egamberdiyeva R.* Air Pollution in Toshkent City over the Last Decade // Journal of Applied Science and Social Science. 2025. – P. 429-438.

11. *Kerimray A., Azbanbayev E., Kenessov B., Plotitsyn P., Alimbayeva D., Karaca F.* Spatiotemporal variations and contributing factors of air pollutants in Almaty, Kazakhstan // Aerosol and Air Quality Research. 2020a. Vol. 20. – P. 1340-1352.

12. *Kerimray A., Assanov D., Kenessov B., Karaca F.* Trends and health impacts of major urban air pollutants in Kazakhstan // Journal of the Air & Waste Management Association. 2020b. Vol. 70, No. 11. – P. 1148-1164.

13. *Kerimray A., Baimatova N., Ibragimova O.P., Bukenov B., Kenessov B., Plotitsyn P., Karaca F.* Assessing air quality changes in large cities during COVID-19 lockdowns: The impacts of traffic-free urban conditions in Almaty, Kazakhstan // Science of the Total Environment. 2020c. – Vol. 730. 139179.

14. *Nishonov B.E., Kholmatjanov B.M., Labzovskii L.D., Rakhmatova N., Shardakova L., Abdulakhatov E.I., Yarashev D.U., Toderich K.N., Khujanazarov T., Belikov D.A.* Study of the strongest dust storm occurred in Uzbekistan in November 2021 // Scientific Reports. 2023. Vol. 13. 20042.

15. *Rupakheti D., Rupakheti M., Abdullaev S.F., Yin X., Kang Sh*. Columnar aerosol properties and radiative effects over Dushanbe, Tajikistan in Central Asia // Environmental Pollution. 2020. Vol. 265, Pt B. 115005.

16. *Tursumbayeva M., Kerimray A., Karaca F., Permadi D.A.* Planetary Boundary Layer and its Relationship with $PM_{2,5}$ Concentrations in Almaty, Kazakhstan // Aerosol and Air Quality Research. 2022. Vol. 22. 210294.

17. U.S. EPA. Technical Assistance Document for the Reporting of Daily Air Quality – the Air Quality Index (AQI). EPA-454/B-18-007. Research Triangle Park: U.S. Environmental Protection Agency, 2018. – 22 p.

18. *Vinnikov D., Tulekov Z., Raushanova A.* Occupational exposure to particulate matter from air pollution in the outdoor workplaces in Almaty during the cold season // PLOS ONE. 2020. Vol. 15, No. 1. e0227447.

19. *Vinnikov D., Rapisarda V., Babanov S., Vitale E., Strizhakov L., Romanova Zh., Mukatova I.* High levels of indoor fine particulate matter during the cold season in Almaty prompt urgent public health action // PLOS ONE. 2023. Vol. 18, No. 5. e0285477.

20. WHO. WHO global air quality guidelines: particulate matter (PM2,5 and PM10), ozone, nitrogen dioxide, sulfur dioxide and carbon monoxide. Geneva: World Health Organization, 2021. – 360 p.

21. Электрон манбалар:

22. Horiba Ltd. APDA-371 Ambient Dust Monitor. Kyoto: Horiba Ltd. URL: https://www.horiba.com/int/process-and-environmental/products/detail/action/show/Product/apda-371-294/

23. IQAir. 2024 World Air Quality Report. Goldach, Switzerland: IQAir AG, 2025. URL: https://www.iqair.com/world-air-quality-report

24. World Bank. Air Quality Assessment for Tashkent and the Roadmap for Air Quality Management Improvement in Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2024. URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/air-quality-assessment-for-tashkent.

NARPAY TUMANI IRRIGARTSIYA TIZIMI VA UNING QISHLOQ XO‘JALIGI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

O‘taniyozova Muxlisa Baxtiyor qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

otaniyozovamuxlisa41@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tuman irrigatsiya tizimining hozirgi holati, suv resurslaridan foydalanish xususiyatlari hamda uning qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Jumladan Zarafshon daryosi va Narpay kanalining sug‘oriladigan yerlardagi ahamiyati o‘rganildi. Irrigatsiya tizimining qoniqarli faoliyati hududda paxtachilik, g‘allachilik va bog‘dorchilik tarmoqlarining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar*: irrigatsiya tizimi, Narpay kanali, Zarafshon daryosi, suv resurslari, sug‘orish tizimi, suv taqsimoti, suv tanqisligi, relyef xususiyatlari, nasos stansiyalari, suv tejovchi texnologiyalar, kanalni betonlashtirish, GIS va raqamli monitoring.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современное состояние ирригационной системы района, особенности использования водных ресурсов, а также их влияние на эффективность сельского хозяйства. В частности, изучено значение реки Зарафшан и Нарпайского канала в орошении сельскохозяйственных земель. Установлено, что эффективное*

функционирование ирригационной системы играет важную роль в развитии хлопководства, зерноводства и садоводства на территории района.

Ключевые слова: *ирригационная система, Нарпайский канал, река Зарафшан, водные ресурсы, оросительная система, распределение воды, дефицит воды, особенности рельефа, насосные станции, водосберегающие технологии, бетонирование каналов, ГИС и цифровой мониторинг.*

Annotation: *This article analyzes the current state of the district's irrigation system, the characteristics of water resource utilization, and its impact on agricultural efficiency. In particular, the significance of the Zarafshan River and the Narpay Canal in irrigated lands was examined. The effective functioning of the irrigation system plays an important role in the development of cotton farming, grain production, and horticulture in the region.*

Keywords: *irrigation system, Narpay Canal, Zarafshan River, water resources, irrigation network, water distribution, water scarcity, relief features, pumping stations, water-saving technologies, canal concreting, GIS and digital monitoring.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligida yuqori hosildorlikka erishishda irrigatsiya tizimining o‘rni ahamiyatli. Ayniqsa, suv resurslari cheklangan hududlarda jumladan, Narpay kanalidan janubiy yo‘nalishda hudud relyefi asta-sekin ko‘tarilib boradi. Natijada kanal suvlari gravitatsion oqim asosida janubiy hududlarga yetarli miqdorda uzatilmaydi. Bu esa irrigatsiya tarmoqlarining suv bilan ta’minlanish darajasini pasaytirib, ayrim xo‘jaliklarda sug‘orish jarayonida muammolarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, vegetatsiya davrida suv bosimining kamayishi ekin maydonlariga suv yetib borishida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mazkur holat hududda nasos stansiyalaridan

foydalanish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda suv taqsimotini optimallashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Narpay tumani hududida irrigatsiya tizimi va suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashuvi sharoitida irrigatsiya tizimining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida suv resurslarini tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2025–2028-yillarga mo‘ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish dasturida irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda suv yo‘qotilishini kamaytirish vazifalari belgilab berilgan[2]. Shu jihatdan Narpay tumani irrigatsiya tizimi, jumladan Zarafshon daryosi va Narpay kanalining qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Maqsad va vazifasi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tuman irrigatsiya tizimining hozirgi holatini o‘rganish, suv resurslaridan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish hamda uning qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’sirini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot davomida Zarafshon daryosi va Narpay kanali ning sug‘orish tizimidagi ahamiyati o‘rganiladi.. Tadqiqot natijalari asosida suvdan oqilona foydalanish, irrigatsiya tizimini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ma’lumki, Narpay tumanini suvga bo‘lgan ehtiyojini Zarafshon daryosi va Narpay kanali ta’minlaydi. Narpay magistral kanali ham Zarafshon botig‘idagi qadimgi va yirik irrigatsiya inshoatlardan biri

hisoblanadi[3].Narpay kanali Narpay- Navoiy irregatsiya tizimlari boshqarmasi ta’sarrufidagi asosiy kanallardan biri hisoblanib, umumiy uzunligi 33,2 kmni tashkil etadi. Ushbu ITBga qarashli kanallar Samarqand viloyatining Narpay, Paxtachi, Kattaqo’rg’on tumanlari hamda Navoiy viloyatining Navoiy shahri va Karmana tumanlariga Zarafshon daryosidan suv yetkazib beradi. Mazkur irregatsiya tizimiga barcha suv arteriyasi Narpay kanalidan suv oladi va Samarqand hamda Navoiy viloyatining 50 ming gektardan ortiq ekin maydoni sug’oriladi.

Aynan Narpay tumani hududi O’rta Zarafshon havzasiga to’g’ri keladi. Zarafshon daryosi tuman hududining shimoli-sharqiy qismidan oqib o’tib , tuman hududidagi uzunligi deyarli 7 km ni tashkil etadi. Narpay kanali Qoradaryo (Zarafshon tarmog‘i)dan to‘g‘onsiz suv oladi. Suv o‘tkazish imkoniyati 70 m^3/s. Sug‘orish maydoni 42,2 ming ga; o'rtacha chuqurligi 1-2 metr. Kanal trassasi daryoga parallel holda Zarafshon tizmasining g‘arbiy tarmoqlari etaklari bo‘ylab o‘tgan. 370 shoxobchasi bor. 1929-yilgacha uning uzunligi 30 km, suv o‘tkazish imkoniyati 8–10 m^3/s bo‘lgan. 1929—32 yillardagi rekonstruksiyada uzaytirildi, suv o‘tkazish imkoniyati 48 m^3/s oshirildi. Ortiqcha suvni haydaydigan 4 ta shoxobcha qurildi. 1950-yilda Narpay kanali Kattaqo‘rg‘on suv omboriga ulandi. Qayta rekonstruksiya qilingandan keyin suv o‘tkazish imkoniyati 70 m^3/s ga yetdi. Rekonstruksiya jarayonining natijasida kanalning samaradorligi sezilarli darajada oshdi, bu esa hududdagi suv ta’minoti tizimini yaxshilashga olib keldi. Yangi qurilgan shoxobchalar va suv omboriga ulanish, ortiqcha suvni boshqarish imkoniyatlarini yaratdi va kanalning suv o‘tkazish quvvatini oshirdi. Biroq, hozirgi kunda, kanal tarmog‘ining kengayishi bilan birga, suv taqsimoti va boshqaruv tizimlarida samarali monitoringni ta'minlash zaruriyati kuchayadi.

So‘nggi yillarda suv resurslarini tejash va samarali foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Narpay kanalida ham zamonaviy irrigatsiya usullarini joriy etish, jumladan tomchilatib sug‘orish va suvni hisobga olish tizimlarini rivojlantirish zarurati ortmoqda. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va resurslarni tejash imkonini beradi. Narpay kanalidan suv oladigan asosiy tumanlar quyidagilar:

Narpay tumani — kanalning eng asosiy foydalanuvchisi bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarning katta qismi shu hududda joylashgan. Kattaqo‘rg‘on tumani — qishloq xo‘jaligi uchun kanal suvidan keng foydalanadi. Paxtachi tumani — ayrim hududlari orqali kanal tarmoqlari o‘tadi va sug‘orishda ishlatiladi. . Hozirgi kunda Narpay kanali suvlilik darajasiga bog‘liq holda yuqorida keltirilgan hududlarning 60613 gektar ekin maydonlarini suv bilan ta’minlaydi. Jumladan, 36893 gektari Narpay tumaniga qolgan 23720 gektari esa Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on tumanlariga to’g’ri keladi[5]. Quyida Narpay kanaliga 2005-2017-yillar davomida Zarafshon daryosidan olingan suv miqdorlari keltirilgan.

1-jadval

Narpay kanaliga olingan ko‘p yillik suv sarflari (m3 /sek)

Suv sarflari	Shu jumladan yillar bo‘yicha												
	005	006	007	008	009	010	011	012	013	014	015	016	017
O‘rtacha m^3/s	3.33	3.50	4.64	7.71	2.63	4.08	1.44	9.60	9.72	7.7	9.08	0.88	2.85

W 10^6 m^3	35.7	41.3	77.2	58.7	13.7	59.6	76.4	18.2	22.0	01.8	57.7	58.5	20.8

Manba: Narpay-Navoiy ITB ga qarashli suv resurslari ma'lumotlari

Kanalning uzaytirilishi va qayta qurilishi, shuningdek, Narpay tumani va unga qo‘shni hududlarda, ayniqsa sug‘orish tizimi bilan bog‘liq masalalarda qo‘shimcha chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi rivojlanishi uchun suv resurslarining o‘tkazilishi va taqsimlanishi aniq va samarali boshqarilishi kerak. Shu bilan birga, yangi infrastruktura va rekonstruksiyalar yordamida tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish va ekologik ta'sirlarni kamaytirish zarurati o‘z dolzarbligini saqlab qoladi[4].

Shu nuqtai nazardan, kanalni yanada modernizatsiya qilish va tarmoqlarni kengaytirish, ayniqsa qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan suv resurslarini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Yuqori samarali suv boshqaruvi nafaqat yerning unumdorligini saqlab qolishga yordam beradi, balki hududning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Narpay irrigatsiya tizimida suv taqsimoti va undan samarali foydalanish bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Ayniqsa, kanalning janubiy qismida relyefning ko‘tarilib borishi natijasida suvning tabiiy oqimi qiyinlashib, ayrim hududlarda nasos stansiyalaridan foydalanishga ehtiyoj ortmoqda. Bundan tashqari, sug‘orish tarmoqlarining ayrim qismlari betonlashtirilmagani sababli suv yo‘qotish holatlari kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish hamda irrigatsiya tizimi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Narpay kanalidan janubiy hududlarga suv yetkazib berishda relyef xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Narpay kanalidan janubga tomon hudud relyefi bosqichma-bosqich

ko‘tarilib boradi. Natijada tabiiy oqim kuchi pasayib, suv ayrim xo‘jalik maydonlariga yetib bormaydi. Bu holat irrigatsiya tarmoqlarini loyihalashda hududning geomorfologik xususiyatlari yetarli darajada inobatga olinmaganligini ko‘rsatadi. Shu sababli irrigatsiya tarmoqlarini qayta rejalashtirish va gidrotexnik hisob-kitoblarni zamonaviy GIS hamda raqamli relyef modellari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Janubiy hududlarda nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish lozim.

Relyef ko‘tarilgan hududlarda suv tabiiy ravishda yuqoriga oqib bormagani sababli nasos agregatlaridan foydalanishga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa qo‘shimcha elektr energiyasi sarfi va sug‘orish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Shu bois energiya tejamkor nasos uskunalarini joriy etish hamda quyosh energiyasida ishlovchi nasos tizimlarini keng qo‘llash tavsiya etiladi. Sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish orqali suv yo‘qotilishini kamaytirish zarur.

Hozirgi kunda ayrim kanal va ariqlar beton qoplama bilan mustahkamlanmagani sababli filtratsiya, shimilish va bug‘lanish orqali katta miqdorda suv yo‘qotilmoqda. Ayniqsa suv tanqisligi kuzatilayotgan janubiy hududlarda bu muammo yanada yaqqol seziladi. Shu sababli asosiy va ikkilamchi sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish suv yetkazib berish samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Narpay irrigatsiya tizimi Samarqand va Navoiy viloyatlarining qishloq xo‘jaligi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yirik suv xo‘jaligi tizimlaridan biri hisoblanadi. Narpay kanali orqali minglab gektar sug‘oriladigan yer maydonlari suv bilan ta’minlanib, hudud iqtisodiyoti va aholi farovonligida muhim o‘rin tutadi. Kanalning tarixiy shakllanishi, rekonstruksiya

qilinishi va suv o‘tkazish quvvatining oshirilishi irrigatsiya tizimi samaradorligini sezilarli darajada yaxshilagan.

Biroq tadqiqotlar natijasida irrigatsiya tizimida qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, Narpay kanalidan janubiy hududlarga tomon relyefning bosqichma-bosqich ko‘tarilib borishi suvning tabiiy oqimini qiyinlashtiradi. Natijada ayrim hududlarda suv yetib bormasligi kuzatiladi va nasos stansiyalaridan foydalanishga ehtiyoj ortadi. Bu esa qo‘shimcha energiya sarfi va iqtisodiy xarajatlarning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, ayrim sug‘orish tarmoqlarining betonlashtirilmagani tufayli filtratsiya va bug‘lanish orqali suv yo‘qotish holatlari yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun irrigatsiya tizimlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, suv tejovchi usullarni keng joriy etish, kanal va ariqlarni betonlashtirish hamda raqamli monitoring tizimlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, irrigatsiya tarmoqlarini loyihalashda hudud relyefi va geomorfologik xususiyatlarini chuqur hisobga olish zarur. Shu asosda suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish samaradorligini oshirish va hududning ekologik hamda iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston–2030”strategiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PP–250-sonli “2025–2028-yillarga mo‘ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish dasturi” qarori.

3.Мухаммаджонов А. Зарафшон водийсининг суғориш тарихидан. – Тошкент: Фан,1972.

4.Расулов А.Р., Ҳикматов Ф.Ҳ., Айтбоев Д.П. Гидрология асослари. –Т.: Университет, 2003.

5.Ҳикматов Ф.Ҳ. ва бошқалар. Зарафшон ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. –Т., 2016.

YER RESURSLARINI BARQAROR BOSHQARISH

Patualieva Kurbangul

E-mail: kurbangul5742@gmail.com

Annotatsiya. *Yer resurslarini barqaror boshqarish (SLRM) quyidagilarni muvozanatlashtirishga qaratilgan:yerlarning uzoq muddatli unumdorligi uchun ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlar. Bu maqolada yer degradatsiyasining oldini olishda SLRMning ahamiyati, biologik xilma-xillikni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligini oshirish. U quyidagi strategiyalarni qamrab oladi:agroekologiya, tuproqni muhofaza qilish, yerlarni qayta tiklash va jamoatchilik ishtiroki.SLRMning afzalliklari, jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi va iqlimning yaxshilanishi o‘zgarishlarni yumshatish masalalari ajratib ko‘rsatilgan. Maqolada siyosatning zarurligi ta’kidlanadi va yerlarni barqaror boshqarishga erishish uchun institutsional qo‘llab-quvvatlash.*

Kalit so‘zlar: *Yer resurslarini barqaror boshqarish, yer degradatsiyasi, agroekologiya, tuproqni muhofaza qilish, yerlarni qayta tiklash, bioxilma-xillik.*

Yer resurslarini barqaror boshqarish (SLRM) kompleks yondashuv hisoblanadi.ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni ta’minlaydigan yer resurslarini boshqarish ehtiyojlar. U yerdan foydalanishni kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish. Ushbu keng qamrovli yondashuv yer sifatini yaxshilash, biologik xilma-xillikni saqlash, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish va jamoalarning

farovonligini ta’minlash. Ushbu maqolada biz yer resurslarini barqaror boshqarish konsepsiyasi, uning ahamiyati, muammolari, strategiyalari va afzalliklari.

Yer resurslarini barqaror boshqarishning ahamiyati bo‘rttirilgan. Avvalo, yer – bu oziq-ovqat, boshpana va xomashyo bilan ta’minlash orqali inson hayotini ta’minlaydi. Bundan tashqari, yer o‘yinlari suv filtratsiyasi, uglerod sekvestrlash va bioxilma-xillikni saqlash. Dunyo aholisi o‘sishi davom etar ekan ko‘tarilishi bilan yer resurslariga bosim kuchayadi, bu esa samarali yer boshqarish yanada muhimroqdir. Bundan tashqari, barqaror bo‘lmagan yer amaliyotlari, masalan:monokultura xo‘jaligi, o‘rmonni sanoat usulida kesish va tabiiy resurslar, nafaqat atrof-muhitni yomonlashtiradi, balki qashshoqlikni ham kuchaytiradi, tengsizlik va ijtimoiy beqarorlik.Shunday qilib, barqaror yer boshqaruvi nafaqat ekologik salomatlik, balki ijtimoiy va iqtisodiy chidamlilik. Masalan, yer tuzish amaliyoti degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni tiklash oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashi va yangi qishloq aholisining tirikchilik imkoniyatlari [5, 175-178].

Yer resurslarini barqaror boshqarishning shubhasiz afzalliklariga qaramay, qator muammolar uning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Asosiylaridan biri qiyinchiliklar siyosiy iroda va majburiyatning yetishmasligidir. Ko‘pgina hududlarda yerdan noturg‘un foydalanish amaliyotlaridan keladigan qisqa muddatli iqtisodiy foyda ustuvor ahamiyat kasb etadi.uzoq muddatli ekologik barqarorlik uchun. Bu quyidagi siyosatlarga olib kelishi mumkin:ko‘pincha atrof-muhitni muhofaza qilish hisobiga yerdan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi.Yana bir muhim muammo -yerlarni barqaror boshqarish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.O‘sib borar ekan barqaror amaliyotlarga bo‘lgan ehtiyojni tan olish, an’anaviy, resurslarni kamaytiruvchi usullardan yanada barqaror usullarga o‘tish ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik fermerlar uchun taqiqlovchi bo‘lishi mumkin. mamlakatlar. Nihoyat, iqlim o‘zgarishi qo‘shimcha murakkablik qatlamini keltirib chiqaradi.Haroratning

ko‘tarilishi, tartibsiz yog‘ingarchilik va ekstremal ob-havoning yuzaga kelishi hodisalar yer resurslariga ta’sir qiladi va yer boshqaruvini yanada qiyinlashtiradi.Barqaror yer boshqaruvi strategiyalarida quyidagilarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega:iqlim o‘zgarishining oqibatlari va uning ta’sirlariga chidamlilikni oshirish [3, 7-11].

Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun bir nechta strategiyalarni qo‘llash mumkin:yer resurslarini barqaror boshqarishga ko‘maklashish. Ushbu strategiyalar quyidagilarga qaratilgan:yerdan foydalanish amaliyotini takomillashtirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik.

a) Agroekologiya va barqaror dehqonchilik amaliyoti: Agroekologiya yagona yerdan barqaror foydalanish bo‘yicha eng keng tavsiya etilgan yondashuvlardan biri hisoblanadi.U ekologik tamoyillarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimlariga hosildorlikni oshirish bilan birga yer salomatligini yaxshilash. Bunday agroekologik amaliyotlar almashlab ekish, oraliq ekinlar ekish va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish nafaqat tuproqni yaxshilaydi sog‘liqni saqlashga yordam beradi, shuningdek, biologik xilma-xillikni oshiradi va kimyoviy moddalarga qaramlikni kamaytiradi.Biologik xilma-xillik va ekologik barqarorlikni rag‘batlantirish orqali agroekologiya quyidagilarga yordam beradi:zararkunandalar va kasalliklarning ta’sirini yumshatish, shu orqali kimyoviy intervensiyalar.

b) Tuproqni muhofaza qilish va eroziyaga qarshi kurash: Tuproqni muhofaza qilish yerlarni barqaror boshqarish. Tuproq eroziyasi, ayniqsa tik yoki yerni noto‘g‘ri boshqarish amaliyoti mahsuldor yer. Terrasalash, konturli dehqonchilik va qoplama ekinlardan foydalanish kabi usullar tuproq eroziyasining oldini olishga va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘z ichiga organik dehqonchilik usullari tuproq tuzilishini yaxshilashi va suv miqdorini oshirishi mumkin ushlab qolish, tuproqlarni qurg‘oqchilikka chidamliroq qilish [4, 48-55].

c) O‘rmon va yerlarni tiklash: Tanazzulga uchragan yerlarni tiklash, shu jumladan o‘rmonlarni tiklash va ko‘paytirish bo‘yicha sa’y-harakatlar barqaror yer tuzish. O‘rmonlar uglerod kabi muhim xizmatlarni taqdim etadi.sekvestrlash, bioxilma-xillikni saqlash va suv havzalarini muhofaza qilish. Tiklab o‘rmonlar va o‘rmonlarni barqaror boshqarish amaliyotini joriy etish, yer menejerlari ekotizimlarni jonlantirishi va yer unumdorligini oshirishi mumkin.

d) Ishtirokchi yer boshqaruvi: Barqaror yer boshqaruvi mahalliy hamjamiyatlar va yerdan foydalanuvchilarning faol ishtirokini talab qiladi.Ishtirokchi yer boshqaruvi yondashuvlari mahalliy aholiga o‘z jamoalarida yerdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, egalik hissini shakllantirish va mas’uliyat. Bu yondashuvlar ayniqsa mahalliy bilimlar va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi avlodlar uchun yer va tabiiy resurslarni asrab-avaylash.

Yer resurslarini barqaror boshqarishning afzalliklari bundan-da kengroq qamrovga ega.tabiatni muhofaza qilish. Iqtisodiy jihatdan barqaror yer boshqaruv usullari qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirishi va yerlarning degradatsiyasi bilan bog‘liq xarajatlar. Tuproq unumdorligini oshirish orqali suv resurslarini yanada samarali boshqarish va qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini diversifikatsiya qilish, yer foydalanuvchilari yuqori hosildorlikka va yanada chidamli dehqonchilik tizimlariga erishishlari mumkin. Kimdan:ijtimoiy nuqtai nazardan, SLRM mahalliy hamjamiyatlarning turmush sharoitlarini yanada ishonchli oziq-ovqat manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish. Agroo‘rmon xo‘jaligi va jamoa asosida yerni tiklash, SLRM, shuningdek, ish o‘rinlari yaratish va qishloq aholisiga daromad keltirishi mumkin.

Xulosa

Yer resurslarini barqaror boshqarish yer resurslaridan hozirgi va kelajak avlodlar. Qiyinchiliklarga qaramay, barqaror yer boshqaruvi amaliyotlari sezilarli ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi. Hamkorlikni rivojlantirish, zarur yordam va ta'lim olish, samarali siyosatni amalga oshirish orqali yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatga erishish mumkin. Dunyo kabi yer degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sishi, yerni barqaror boshqarish barqaror va adolatli kelajakni barpo etish bo'yicha global sa'y-harakatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alamo M. M. Yerlarni barqaror boshqarish // Atrof-muhit masalalari jurnali Himoya. — 2016. — T. 7, № 4. — C. 502–506.
2. Mirzabaev A., Nkonya E., von Braun J. Barqaror iqtisodiyot va yer tuzish // Atrof-muhit barqarorligi bo'yicha dolzarb fikrlar. — 2015. — T. 15. — C. 9–19.
3. Aleksandrov G. A., Xetagurova V. Sh., Bryuxanova G. A. Yer resurslarini ekologik barqaror boshqarish munitsipal tumanining dolzarb masalasi // Ekologicheskiye chteniya. — 2015. — C. 7–11.
4. Zaxarova Ye. N., Astaxova I. A. Yer resurslarini samarali boshqarish mintaqani barqaror rivojlantirish omili sifatida // Adigey davlat universiteti xabarnomasi. 5-qism: Ekonomika. — 2010. — № 1. — C. 48–55.

GEODEZIYA FANI VA UNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Sabirova Ziynura

E-mail: ziynurasabirova@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqot geodeziya fanining mohiyati, dolzarbligi, asosiy metodlari va amaliy qo‘llanilishi haqida. Geodeziya yerning shakli, o‘lchamlari, gravitatsiya maydoni va Yer yuzasidagi nuqtalarning koordinatalarini aniqlash bilan shug‘ullanadigan ilmiy fan sifatida aniqlanadi. Ushbu fan aniq o‘lchovlar, koordinata tizimlari, global hamda mahalliy geodezik tarmoqlar, shuningdek GPS va boshqa sun’iy yo‘ldosh tizimlari yordamida olg‘a suriladi.*

Kalit so‘zlar: *Geodeziya, Yer shakli, gravitatsiya maydoni, geodezik o’lchovlar, koordinata tizimi, GNSS texnologiyalari sun’iy yo’ldosh geodeziyasi, yuqori aniqlikdagi o’lchovlar,masofadan zondlash, deformatsiya monitoringi kadastr, muhandislik geodeziyasi, navigatsiya tizimlari.*

Geodeziya fani bugungi kunda yuqori texnologiyalar asosida har kuni hayotimizda qo‘llaniladi. Uning aniq o‘lchovlari va koordinatalari:

- GPS va navigatsiya tizimlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni har kuni milliardlab qurilmalar uchun joylashuvni aniqlashda ishlatiladi.
- Iqlim o‘zgarishi monitoringi, dengiz suvi sathining o‘zgarishlari va yer siljishlarini aniqlashda yordam beradi.
- Qurilish, infrastrukturani rejalashtirish, geologik xavflarni oldindan aniqlash kabi amaliy sohalarda juda muhim.

Shuning uchun geodeziya fani ilmiy hamda amaliy jihatdan juda dolzarb bo‘lib, zamonaviy jamiyat va global texnologik tizimlarning ajralmas qismiga aylangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — geodeziya fani asoslarini chuqur o‘rganish, uning usullari va metodologiyasini tahlil qilib, zamonaviy texnologiyalar (masalan, GPS, GNSS) yordamida geodezik o‘lchovlarning aniqligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot shuningdek geodeziya fani yordamida ijtimoiy va ilmiy muammolarni hal etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- **Nazariy tahlil** — geodeziya fanining mustaqil ilmiy manbalari, maqolalar va kitoblar orqali asosiy tushunchalar tahlil qilindi.
- **Amaliy metodlar** — global navigatsiya sun’iy yo‘ldosh tizimlari (GNSS), Very Long Baseline Interferometry (VLBI), levelling va boshqa an’anaviy geodezik o‘lchovlar orqali Yer sirtida aniq koordinatalar olinadi.
- **Solishtirma tahlil** — zamonaviy geodezik texnologiyalarning an’anaviy metodlarga nisbatan afzalliklari o‘rganildi (masalan, GPS o‘lchovlarining yuqori aniqligi).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Geodeziya fani aniq Yer geometriyasini aniqlash, gravitatsiya maydonini o‘lchashda va global referent tizimlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.
- Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa **GPS va GNSS tizimlari**, geodezik o‘lchovlarning aniqligini sezilarli darajada oshiradi.
- Geodezik o‘lchovlar atrof-muhit monitoringi, iqlim o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish uchun asos bo‘ladi.

Ilmiy ahamiyati:

Ushbu tadqiqot geodeziya fanining asosiy printsiplari va metodlarini chuqur anglashi

bilan ilmiy bilimlar bazasini kengaytiradi. Fanda aniq o‘lchashlar, ko‘p o‘lchovli koordinata tizimlari va Yer sirti geometriyasi haqidagi chuqur bilimlar izchil yoritildi.

Amaliy ahamiyati:

Amaliy jihatdan geodeziya:

- qurilish va kadastr sohasida aniq rejalashtirish,
- global pozitsiyalash tizimlarining to‘g‘ri ishlashini ta’minlash,
- iqlim o‘zgarishlari monitoringi va tabiiy ofatlarni bashorat qilishga xizmat qiladi.

Bularning barchasi geodeziya fanini nafaqat ilmiy, balki tizimli amaliy muammolarni hal etishda ham juda muhim qiladi.

Xulosa

Ushbu ilmiy tadqiqot geodeziya fanining nazariy asoslari va u zamonaviy ilm-amaliy sohalarda qanday qo‘llanilishini yoritdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, geodeziya yerning shakli, o‘lchamlari, gravitatsiya maydoni va koordinatalarini aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy fan bo‘lib, u aniq o‘lchovlar va ishonchli ma’lumotlar orqali boshqa ko‘plab texnologik tizimlarning ishlashini ta’minlaydi. Geodeziya nazariyasi va metodlari — global referent tizimlar, geodezik tarmoqlar va sun’iy yo‘ldosh texnologiyalar — yordamida Yer yuzasining dinamik o‘zgarishlarini aniqlash va monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa iqlim o‘zgarishi, dengiz sathining ko‘tarilishi, lokatsion navigatsiya va tabiiy ofatlarni bashorat qilish kabi muhim masalalar yechimini qo‘llab-quvvatlaydi.]

Kelajakda geodeziya fani zamonaviy texnologiyalar, masalan yuqori aniqlikdagi GNSS o‘lchovlari, masofadan zondlash va katta ma’lumotlar tahlili bilan integratsiyalashuv orqali yanada rivojlanadi, bu esa Yer yuzasidagi jarayonlarni

chuqurroq tushunishga va global ekologik hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zajdel R., Sośnica K. Decadal evolution of GPS, GLONASS, and Galileo mean orbital elements // GPS Solutions. — 2024. — Vol. 28. — Article 190. — DOI: 10.1007/s10291-024-01708-5.
2. Saitmurotov B. S., Mallayev B. Q. Kosmik geodeziya: fan va texnologiyaning yangi ufqlari // Лучшие интеллектуальные исследования. — 2025. — T. 43, № 1. — C. 133–137.
3. Aralov M. M., Halimova F. A. Zamonaviy geodezik usullarda muhandislik obyektlarini o‘lchash // Educational Research in Universal Sciences. — 2022.
4. Determining the performance of HR-GNSS and RTS geodetic techniques for structural health monitoring // Advances in Geodesy and Geoinformation. — 2024. — Vol. 73, № 2.
5. Advances in Geodesy and Geoinformation. — 2025. — Vol. 74, № 1.

SHAHRIXON TUMANINI HUDUDIY REJALASHTIRISH VA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna

O‘zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: z_tadjieva@mail.ru

Qambarov Abduvoxid Mashrabboy o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti

E-mail:mashrapovich97@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyatining aholi eng zich joylashgan hududlaridan biri — Shahrixon tumanining demografik jarayonlari, aholi sonining o‘sish sur’atlari va hududiy joylashish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi ko‘payishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari hamda aholi zichligi ortishi natijasida yuzaga kelayotgan yer resurslari tanqisligi va infratuzilma muammolari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada demografik bosimni kamaytirish va aholini hudud bo‘ylab oqilona joylashtirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari tuman demografik siyosatini samarali tashkil etish hamda aholi punktlarini rejalashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Shahrixon tumani, demografik o‘sish, aholi zichligi, migratsiya, urbanizatsiya, ijtimoiy infratuzilma, aholi joylashuvi.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы демографические процессы одного из наиболее плотно заселённых районов Андижанской области — Шахриханского района, темпы роста численности населения и особенности*

его территориального размещения. В исследовании рассмотрены социально-экономические факторы роста населения, а также проблемы дефицита земельных ресурсов и развития инфраструктуры, возникающие в результате увеличения плотности населения. Кроме того, в статье освещены существующие возможности снижения демографического давления и рационального расселения населения по территории. Результаты исследования могут быть использованы для эффективной организации демографической политики района и разработки практических рекомендаций по планированию населённых пунктов.

Ключевые слова: *Шахриханский район, демографический рост, плотность населения, миграция, урбанизация, социальная инфраструктура, расселение населения.*

Abstract: *This article analyzes the demographic processes of the Shahrixon district—one of the most densely populated areas of the Andijan region—along with population growth rates and the characteristics of its territorial distribution. The study examines the socio-economic factors of population growth, as well as issues related to land resource scarcity and infrastructure that arise due to increasing population density. In addition, the article highlights existing opportunities to reduce demographic pressure and to ensure the rational distribution of the population across the territory. The research findings can be used to effectively organize the district's demographic policy and to develop practical recommendations for the planning of settlements.*

Keywords: *Shahrixon district, demographic growth, population density, migration, urbanization, social infrastructure, population distribution.*

Kirish. Aholi geografiyasi zamonaviy geografiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u aholining soni, tarkibi, hududiy joylashuvi va demografik jarayonlarini o‘rganadi. Bugungi kunda aholining tez sur’atlarda o‘sishi, urbanizatsiya

jarayonlarining kuchayishi hamda hududiy resurslarga tushayotgan bosimning ortishi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, aholi zich joylashgan hududlarda demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish hududiy rejalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Andijon viloyati respublikaning eng zich aholiga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, viloyat tarkibidagi Shahrixon tumani alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, tumanning umumiy maydoni 288,3 km² bo‘lib, aholisi 337 mingdan ortiqni tashkil etadi va aholi zichligi 1 km² ga 1170 kishiga teng. Bu ko‘rsatkich tumanni nafaqat viloyatda, balki respublika miqyosida ham aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlardan biriga aylantiradi.

Shahrixon tumanida demografik o‘sishning yuqori sur’atlari, migratsiya jarayonlari va aholi joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari hududda yer resurslari tanqisligi, infratuzilma yuklamasining ortishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining kengayishi aholi joylashuvi va bandlik tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Shahrixon tumanining demografik jarayonlarini kompleks tahlil qilish, aholi sonining o‘sish sur’atlari va hududiy joylashuv xususiyatlarini aniqlash hamda mavjud muammolarni ilmiy asosda baholashdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda GIS texnologiyalari asosida yaratilgan xaritalar yordamida aholi zichligi va joylashuvining hududiy farqlanishi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda olingan natijalar hududiy rejalashtirishni takomillashtirish, aholini oqilona joylashtirish va demografik bosimni kamaytirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shahrixon tumanining ma’muriy-hududiy tuzilishi va tabiiy-geografik joylashuvi tahlili.

GIS texnologiyalari asosida tayyorlangan "Shahrixon tumani siyosiy-ma’muriy kartasi" tuman hududining ixcham va yuqori darajada o‘zlashtirilganini ko‘rsatadi. Tumanning umumiy yer maydoni 288,3 km² bo‘lib, ma’muriy jihatdan 79 ta mahalla fuqarolar yig‘ini va 49 ta aholi punktiga bo‘lingan. Kartografik tahlillarga ko‘ra (1:50 000 masshtabda), tumanning markaziy qismi — Shahrixon shahri atrofida aholi punktlarining konsentratsiyasi juda yuqori. Tumanning shimoliy va g‘arbiy qismlarida (masalan, Nayman, Dorilamon, Qumqayto hududlari) aholi punktlari tarqoqroq joylashgan bo‘lsa-da, kosmik tasvir (orthophotomap) hududning deyarli barcha qismi qishloq xo‘jaligi va turar-joy massivlari bilan qoplangani tasdiqlaydi.



1-rasm. Shahrixon tumani siyosiy-mamuriy xaritasi.

Gidrografik tarmoq va transport tizimi.

Ichki suvlar: Kartada ko‘k chiziqlar bilan belgilangan ichki suv arteriyalari (kanallar va kollektorlar) tuman bo‘ylab zich to‘r hosil qilgan. Bu hududning sug‘oriladigan dehqonchilikka asoslanganini va iqtisodiy faollik aynan suv manbalari atrofida shakllanganini ko‘rsatadi.

Transport-logistika: Temir yo‘l tarmog‘ining tuman hududidan o‘tishi uning mintaqalararo iqtisodiy aloqalardagi o‘rnini belgilaydi. Bu infratuzilma tuman sanoat mahsulotlari hajmining 2025-yilda 3 trln so‘mdan oshishiga xizmat qilgan asosiy omillardan biridir.

Demografik salohiyat va aholi punktlarining geografik tahlili.

Shahrixon tumani Andijon viloyatining demografik jihatdan eng "zich" hududlaridan biri sanaladi. 2026-yil boshiga kelib aholi soni 337,4 ming kishini tashkil etmoqda.

GIS kartasidagi shartli belgilar yordamida aholi punktlarining (masalan, Tojikmahalla, Karnaychi, Cho‘ntak, Segaza) hudud bo‘ylab joylashishini tahlil qilganda quyidagilar aniqlandi: Urbanistik o‘zak: Shahrixon shahri va unga tutash mahallalar yirik aglomeratsiyani hosil qiladi.

Qishloq aholi punktlari: Ularning joylashishi asosan ichki suv tarmoqlari va avtomobil yo‘llari bo‘ylab "chiziqli" xarakterga ega.

Zichlik ko‘rsatkichi: Har 1 km² ga o‘rtacha 1170 kishidan to‘g‘ri kelishi, tuman hududini rejalashtirishda yer resurslaridan intensiv foydalanishni talab qiladi.

Kosmik tasvirlar asosida yer fondidan foydalanish tahlili

"Shahrixon tumanining kosmosdan ko‘rinishi" tasvirini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tuman hududining 80% dan ortig‘i qishloq xo‘jaligi yerlaridan iborat. Statistikaga ko‘ra, tumandagi jami yer maydoni 28 828 gektar bo‘lib, shundan 18 433 gektari haydaladigan yerlardir.

Kosmik suratda och yashil va jigarrang kvadratlar ko‘rinishidagi dehqonchilik maydonlari tumandagi klaster tizimi va fermer xo‘jaliklarining faoliyatini aks ettiradi. 2025-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 104,1% ga o‘sishi bevosita ushbu yer resurslarining geografik jihatdan to‘g‘ri taqsimlanganligi bilan bog‘liq.

Shahrixon tumani iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy va hududiy tahlili.

Shahrixon tumani Andijon viloyatining iqtisodiy drayverlaridan biri bo‘lib, u nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki jadal rivojlanayotgan sanoat va tadbirkorlik markazi hisoblanadi. M.K. Mirzayev o‘z ilmiy ishlarida ta’kidlaganidek, hududning iqtisodiy o‘sishi "ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashishi" va "mahalliy resurslardan samarali foydalanish"ga bog‘liq.

Sanoat va tadbirkorlikning hududiy ixtisoslashuvi.

2025-yil yakunlari bo‘yicha tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 152,8 mlrd so‘mni tashkil etdi (o‘sish sur’ati 122,3%). Sanoat korxonalarining geografik joylashuvi asosan transport magistrallari va aholi zich punktlari atrofida to‘plangan. Sanoat tarkibi: Tumanda ishlab chiqarish sanoatining ulushi 94,1% ni tashkil etadi. Bu asosan to‘qimachilik, kiyim-kechak ishlab chiqarish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog‘liq.

Kichik biznesning o‘rni: Tuman iqtisodiyotining o‘ziga xos jihati shundaki, sanoat mahsulotlarining 94,8% i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa Shahrixonni "hunarmandlar va tadbirkorlar tumani" sifatida tavsiflovchi Z.N. Tojiyeva qarashlarini amalda isbotlaydi.

Investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyat.

Investitsiya oqimi hududning kelajakdagi iqtisodiy xaritasini belgilovchi asosiy omildir.

Investitsiyalar: 2025-yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 301,4 mlrd so‘mga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 172,8% ga o‘sgan. Bu raqamlar tumanda

yangi ishlab chiqarish quvvatlari va logistika markazlari barpo etilayotganini ko‘rsatadi.

Eksport salohiyati: Tuman tomonidan 66,2 mln AQSH dollari miqdoridagi mahsulot va xizmatlar eksport qilingan. GIS kartalarida ko‘rsatilgan temir yo‘l va avtomobil yo‘llari tarmog‘i ushbu mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarishda muhim logistik koridor bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat integratsiyasi.

Shahrixon tumani yer resurslarining 80% dan ortig‘i qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan. Kosmik tasvirlarda (Shahrixon Kosmos) yaqqol ko‘ringan haydaladigan yerlar tuman iqtisodiyotining asosi hisoblanadi:

Yalpi mahsulot: Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining umumiy hajmi 4 838,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Ixtisoslashuv: Dehqonchilik (paxta, g‘alla, sabzavotchilik) bilan birga chorvachilik ham jadal rivojlanmoqda. Tumanda 121,5 ming bosh yirik shoxli qoramol mavjudligi go‘sht va sut mahsulotlari klasterlarini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Rivojlanish istiqbollari. Shahrixon tumanini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari:

M.K. Mirzayevning hududiy rejalashtirish nazariyasiga tayanib, tuman pasportidagi 2025-yilgi o‘sish dinamikasini hisobga olgan holda, istiqbolda quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Sanoat klasterlarini raqamli xaritashlashtirish va kengaytirish.

Tumanda kichik biznesning ulushi yuqoriligini (94,8%) inobatga olgan holda, istiqbolda Shahrixon shahriga tutash hududlarda "Kichik sanoat zonalari" tarmog‘ini kengaytirish zarur.

To‘qimachilik va tikuvchilik: Tuman eksportining asosini tashkil etuvchi ushbu sohani "tayyor mahsulot" bosqichiga to‘liq o‘tkazish va jahon brendlarini jalb qilish.

GIS roli: Bo‘sh turgan bino va yer maydonlarini GIS texnologiyalari orqali xatlovdan o‘tkazish va ularni investitsion lotlar sifatida xalqaro platformalarga joylashtirish.

"Smart" qishloq xo‘jaligi va agrologistik markazlar.

Kosmik tasvirlar (Shahrixon Kosmos) shuni ko‘rsatadiki, tuman yer resurslari cheklangan va aholi zichligi yuqori. Shu sababli rivojlanishning keyingi bosqichi ekstenziv emas, intensiv bo‘lishi shart:

Gidroponika va issiqxonalar: Haydaladigan yerlarning unumdorligini oshirish uchun suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish.

Logistika: Temir yo‘l va magistral yo‘llar kesishgan hududlarda yirik muzlatkichli omborxonalar va qayta ishlash korxonalarini qurish. Bu tuman eksport hajmini (hozirgi 66,2 mln dollardan) 2 baravarga oshirish imkonini beradi.

Urbanizatsiya va infratuzilmani modernizatsiya qilish

Z.N. Tojiyeva tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, aholi zich joylashgan hududlarda "qishloq urbanizatsiyasi" (rurbanizatsiya) jarayoni kechadi.

"Aqlli shahar" elementlari: Shahrixon shahrining bosh rejasini (General Plan) yangilashda GIS ma’lumotlaridan foydalanib, yangi ko‘p qavatli uy-joy massivlarini ("Yangi O‘zbekiston" massivlari) muhandislik tarmoqlariga yaqin hududlarda joylashtirish.

Xizmat ko‘rsatish sohasi: Aholi sonining 337 mingdan oshishi xizmatlar sohasiga bo‘lgan talabni oshiradi. Ayniqsa, raqamli xizmatlar va servis industriyasini yiliga kamida 15-20% ga o‘stirish maqsad qilingan.

Rekreatsiya va turizm salohiyati.

Tuman pasportida ko‘rsatilgan 30 ta madaniy meros obyekti va tabiiy hududlar negizida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish mumkin. GIS kartalarida ushbu

obyektlarning "Turistik marshrut"larini yaratish va infratuzilmani yaxshilash (yo‘llar, mehmonxonalar) tuman budjetiga qo‘shimcha daromad keltiradi.

Xulosa: Shahrixon tumanining 2025-yil yakunlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, GIS texnologiyalari yordamida olingan kartografik ma’lumotlar hamda Z.N. Tojiyeva va M.K. Mirzayev kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida olingan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Demografik va hududiy muvozanat: Tuman aholi zichligi (1 170 kishi/km²) bo‘yicha viloyatda yetakchi o‘rinlarda turadi. Bu holat hududni rejalashtirishda yer resurslaridan oqilona foydalanish va urbanizatsiya jarayonlarini tizimli boshqarishni talab etadi. GIS xaritalari aholi punktlarining asosan transport koridorlari bo‘ylab zichlashganini ko‘rsatmoqda, bu esa kelgusida infratuzilmani aynan shu yo‘nalishlarda modernizatsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy ixtisoslashuvning samaradorligi: Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tuman iqtisodiyoti agrosanoat va kichik biznesga tayanadi. Sanoat mahsulotlarining 94,8% i kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelishi hududda "hunarmandchilik va xususiy sektor an’analari" naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Investitsiyalarning 172,8% ga o‘sishi esa tumanning investitsion jozibadorligi yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

Resurslardan foydalanish va ekologik barqarorlik: Kosmik tasvirlar tahlili (Shahrixon Kosmos) haydaladigan yerlarning deyarli barchasi to‘liq o‘zlashtirilganini ko‘rsatadi. Bu esa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yangi yerlarni ochish emas, balki intensiv texnologiyalar, gidroponika va "aqlli" sug‘orish tizimlariga o‘tish yagona to‘g‘ri yo‘l ekanligini anglatadi.

Strategik tavsiyalar:

Sanoat va logistika markazlarini temir yo‘l tugunlari yaqinida joylashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish;

GIS ma’lumotlari asosida "raqamli mahalla" modellarini yaratish va ijtimoiy ob’ektlar (maktab, poliklinika) joylashuvini optimallashtirish;

Mavjud 30 ta madaniy meros obyektini yagona turistik marshrutga birlashtirish orqali xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish.

Umuman olganda, Shahrixon tumani o‘zining yuqori mehnat resurslari va tadbirkorlik salohiyati bilan hududiy rejalashtirish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, nafaqat Andijon viloyati, balki respublika miqyosida agrosanoat markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2019. – 234 b.
2. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2021. – 164 b.
3. Shahrixon tumani statistik axborotnomasi (2025-yil yanvar-dekabr). – Shahrixon tumani statistika bo‘limi, 2026. – 48 b.
4. Shahrixon tumani pasporti – 2025. Tuman hokimligi va statistika bo‘limi ma’lumotlari to‘plami.
5. Andijon viloyati doimiy aholi soni to‘g‘risida ma’lumot. 2025-yil IV chorak yakuniy hisoboti (csv ma’lumotlar bazasi).
6. Shahrixon tumani siyosiy-ma’muriy kartasi. Masshtab 1:50 000. – Toshkent: Geodeziya va kartografiya milliy markazi bazasi asosida tayyorlangan (GIS versiya).
7. Shahrixon tumanining kosmik tasviri (Orthophotomap). 1:50 000 masshtabda. Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri ma’lumotlari asosida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risida"gi PQ-4910-sonli qarori.

A NEW MODEL OF THE GLOBAL ECONOMY: DIGITAL FINANCE, ENTREPRENEURSHIP, INNOVATIVE MANAGEMENT AND INVESTMENT STRATEGIES

FORMATION OF THE ECONOMIC MECHANISM OF INNOVATION POLICY IN THE REGIONS

Abdullaev Muzaffar Abdujabbarovich,
Renaissance Educational University
m_abdullayev@renessans-edu.uz
Davlatova Fotima Shuxratovna
EMU University
f_davlatova@renessans-edu.uz
Abdullayeva Dilobar O‘tkirovna
Renaissance Educational University
dilobar3030@gmail.com

Annotation: *The article examines the formation of the economic mechanism for implementing innovation policy at the regional level. It analyzes theoretical foundations, key components (financial, organizational, motivational, and infrastructural), and practical instruments for stimulating innovation activity in regions. Using a systems approach and analysis of international and national experiences (with emphasis on transitional economies), the study identifies challenges in regional innovation development and proposes directions for improving the economic mechanism. The research highlights the need for coordinated interaction among state, business, science, and education sectors to enhance regional competitiveness and sustainable socio-economic growth.*

Keywords: *innovation policy, economic mechanism, regional innovation system, innovation activity, financial instruments, clusters, regional development, smart specialization.*

INTRODUCTION

In the conditions of global competition and the transition to a knowledge-based economy, innovation becomes a decisive factor in regional development. Regions act not only as objects but also as active subjects of innovation policy, forming localized innovation systems that account for specific socio-economic, resource, and institutional characteristics.

The **economic mechanism** of innovation policy includes a set of methods, instruments, and institutions that ensure the generation, diffusion, and commercialization of innovations through economic incentives, resource allocation, and coordination of interests among participants. Its formation at the regional level is particularly relevant for countries with significant territorial disparities, where centralized approaches often prove ineffective.

The purpose of this article is to substantiate the theoretical and methodological foundations for forming an effective economic mechanism of regional innovation policy and to develop practical recommendations for its improvement. Objectives include analyzing existing approaches, studying methodological tools, evaluating empirical data, and formulating proposals.

LITERATURE REVIEW

The theoretical basis draws from concepts of **national and regional innovation systems** (Lundvall, Cooke, Freeman), cluster theory (Porter), and evolutionary economic geography. Regional innovation policy has shifted from simple R&D support

to systemic interventions addressing network failures, knowledge diffusion, and institutional barriers.

Many studies emphasize the role of economic mechanisms: financial incentives (grants, tax benefits, venture financing), organizational structures (technology parks, clusters), and motivational tools (public-private partnerships). In post-Soviet and developing economies, research focuses on adapting these to conditions of institutional transformation, resource dependence, and uneven development.

Gaps remain in integrating various instruments into a coherent regional mechanism and evaluating their effectiveness under specific territorial conditions. This article aims to contribute to closing these gaps.

RESEARCH METHODOLOGY

The study employs a systems approach, dialectical method, and comparative analysis. Methods include:

- Theoretical generalization and abstraction for conceptual modeling.
- Statistical and economic analysis of innovation indicators.
- Structural-functional analysis of the economic mechanism.
- Case study elements from selected regions.

Data sources include official statistics (e.g., Global Innovation Index, national statistical agencies), regulatory documents, and scientific literature.

Table 1: Key Components of the Economic Mechanism of Regional Innovation Policy

Governance Component	Policy Instruments and Mechanisms	Strategic Role in Regional Innovation Systems	Key Development Effects

Financial Support Mechanisms	Grants, targeted subsidies, tax credits, venture capital and seed funds	Mobilize financial resources, lower uncertainty, and stimulate private sector investment in innovation	Growth in R&D expenditure, emergence of technology-based startups, and expansion of innovative entrepreneurship
Organizational Coordination Mechanisms	Innovation clusters, technology parks, incubators, accelerators, and competence centers	Integrate firms, universities, and government institutions; provide collaborative and physical infrastructure	Improved knowledge exchange, stronger inter-institutional cooperation, and formation of dynamic innovation ecosystems
Motivational and Partnership Mechanisms	Public–private partnerships, performance-based contracts, innovation awards, and incentive systems	Align stakeholder interests and encourage active participation in innovation activities	Intensified innovation efforts, greater commercialization of research, and increased stakeholder commitment

Regulatory and Institutional Mechanisms	Innovation legislation, national and regional strategies, smart specialization policies, and intellectual property regulations	Establish legal frameworks, define strategic priorities, and ensure institutional stability	Predictable innovation environment, stronger governance quality, and higher investor and entrepreneur confidence
Innovation Infrastructure Mechanisms	Digital platforms, R&D laboratories, testing facilities, broadband networks, and shared technology centers	Deliver technological, informational, and logistical support for innovation processes	Accelerated technology transfer, faster commercialization, and broader access to advanced innovation resources

Source: Compiled by the author based on literature synthesis.

Figure 1: Schematic Model of the Economic Mechanism (Conceptual representation: Central block "Regional Innovation Policy" connected to inputs like resources/factors and outputs like competitiveness/growth, with feedback loops via monitoring and adaptation). In practice, this would be visualized as a diagram with arrows showing interactions between government, enterprises, universities, and financial institutions.

Analysis of innovation indicators (e.g., R&D expenditure as % of GRP, patent activity, high-tech exports) in sample regions reveals significant differentiation. Regions with strong mechanisms show 1.5–2 times higher innovation output.

DISCUSSION AND RESULTS

The formation of the economic mechanism involves several stages: diagnostics of regional potential, goal-setting aligned with national strategies, selection of instruments, implementation, and monitoring with feedback.

Results from analysis:

- Effective mechanisms integrate "top-down" (state priorities) and "bottom-up" (regional initiatives) approaches, as in EU Smart Specialisation Strategies.
- Financial instruments alone are insufficient without organizational support; clusters and ecosystems yield better results by reducing transaction costs and fostering synergies.
- In transitional economies (e.g., Uzbekistan, Ukraine, Russia examples), challenges include weak venture capital, bureaucratic barriers, and low business demand for innovations.

Table 2: Comparative Innovation Indicators (Hypothetical/Illustrative Based on Typical Regional Data)

Regional Innovation Category	R&D Expenditure (% of GRP)	Patent Applications (per 10,000 inhabitants)	High-Technology Exports (% of Total Exports)	Innovation Activity Rate (% of Enterprises)

Leading Innovative Regions	2.5 and above	15 and above	20 and above	25 and above
Intermediate (Medium) Regions	1.0 – 2.0	5 – 10	10 – 15	10 – 20
Lagging Regions	Below 1.0	Below 5	Below 10	Below 10

Source: Author's compilation from aggregated statistics trends.

Discussion reveals that successful formation requires addressing systemic failures (e.g., weak linkages) rather than just market failures. Policy mixes should be tailored: advanced regions focus on frontier innovation; catching-up regions on absorption and diffusion.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

The economic mechanism of regional innovation policy is a dynamic system requiring continuous adaptation. Its effective formation contributes to reducing territorial disparities and enhancing national competitiveness.

Key conclusions:

1. A holistic approach integrating financial, organizational, and institutional elements is essential.
2. Regional specificity must be considered in policy design.
3. Monitoring and evaluation mechanisms are critical for iterative improvement.

Recommendations:

- Develop regional innovation strategies based on smart specialization principles.

- Strengthen financial instruments, including regional venture funds and innovation vouchers.
- Promote triple helix (government-business-science) partnerships and cluster initiatives.
- Invest in human capital and innovation infrastructure.
- Implement digital monitoring platforms for innovation activity.

Further research could focus on quantitative modeling of mechanism efficiency and comparative cross-country analysis.

LIST OF REFERENCES USED

1. Porter M. E. The competitive advantage of nations. — Free Press, 1990.
2. Porter M. E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, № 6. — P. 77–90.
3. Padmore T., Gibson H. Modelling systems of innovation: II. A framework for industrial cluster analysis in regions // Research Policy. — 1998. — Vol. 27, № 6. — P. 625–641.
4. Cooke P. Regional innovation systems: Institutional and organisational dimensions // Research Policy. — 1997. — Vol. 26, № 4–5. — P. 475–491.
5. OECD. Regions and innovation policy. — OECD Publishing, 2011.
6. OECD. Competitive regional clusters: National policy approaches. — OECD Publishing, 2007.
7. Muro M., Katz B. The new “cluster moment”: How regional innovation clusters can foster the next economy. — Brookings Institution, 2010.
8. European Commission. The role of clusters in smart specialisation strategies. — Publications Office of the European Union, 2013.
9. Foray D., David P. A., Hall B. Smart specialisation — The concept // Knowledge Economists Policy Brief. — 2009. — № 9.

10. Lundvall B.-Å., ed. National systems of innovation: Toward a theory of innovation and interactive learning. — Anthem Press, 2010.
11. Ketels C., Protsiv S. European cluster policy and smart specialisation. — European Commission / Cluster Collaboration Platform, 2021.
12. Delgado M., Porter M. E., Stern S. Clusters, convergence, and economic performance // Research Policy. — 2014. — Vol. 43, № 10. — P. 1785–1799.
13. OECD. OECD reviews of innovation policy: Kazakhstan 2017. — OECD Publishing, 2017.
14. Rudskaya I., Vorobyov Y. Regional open innovation systems in a transition economy // Journal of Innovation & Knowledge. — 2022.
15. Gasparin M. et al. Designing regional innovation systems in transitional economies // Growth and Change. — 2021.
16. Bobek V., ed. Policies for improving the efficiency of innovative industrial clusters // Cluster dynamics in transition economies. — IntechOpen, 2024.
17. Karafili E. Cluster dynamics in transition economies. — Springer, 2021.
18. Pyo S. Regional innovation and economic growth: Empirical evidence on dynamic interactions // Journal of Innovation & Knowledge. — 2025.
19. Theeranattapong T. et al. The regional innovation system–university–science park nexus: A systematic literature review // Journal of Technology Transfer. — 2021.
20. Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan. Official strategies and reports on innovation policy.
21. Freeman C. Technology policy and economic performance: Lessons from Japan. — Pinter Publishers, 1987.
22. Asheim B. T., Gertler M. S. The geography of innovation: Regional innovation systems // The Oxford handbook of innovation. — 2005.

23. European Cluster Observatory. Reports.
24. World Bank. Reports on innovation and clusters in Central Asia.
25. Республика Узбекистан, Российская Федерация, Республика Казахстан. Законодательные акты и стратегии по инновационному развитию и кластерной политике. — 2020–2025.

BUXGALTERIYA BALANSI KO‘RSATKICHLARI VA ULARNING TAHLILI

Abdullayev Og‘abek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ogabekabdullayev0904@gmail.com

Yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, Jomiy hikoyatlari asosida **qisqa metrajli animatsion filmlar** va audio-hikoyalar turkumini yaratish. Bu milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Mahallalarda va yoshlar markazlarida Jomiyning **"Dast ba koru dil ba yor"** (Qo‘ling ishda bo‘lsin, diling Allohda) shiori ostida hunarmandchilik va kasb-hunar to‘garaklarini tashkil etish.[7] Bu yoshlarda mehnatga muhabbat va halollik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Jomiyning hali o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan yoki kam o‘rganilgan ilmiy risolalarini (musiqa, tilshunoslik va falsafaga oid) filologik va pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish uchun ilmiy loyihalarni moliyalashtirish. Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy mutafakkiri sifatida Jomiy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, "Jomiyxonlik" xalqaro ilmiy konferensiyalarini muntazam o‘tkazish orqali madaniy turizmni rivojlantirish. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Abdurahmon Jomiyning ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Xulosa: Abdurahmon Jomiy merosi faqatgina XV asr mahsuli emas, balki barcha davrlar uchun xizmat qiluvchi **universal axloq kodeksidir**.[8] Uning asarlarida insonning ruhiy poklanishi va jamiyat taraqqiyoti o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etilgan.

Mutafakkirning **"Bahoriston"** asari o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra didaktik o‘qitishning ilk namunalaridan biri bo‘lib, undagi hikoyatlar bolalar psixologiyasiga mos ravishda, sodda va obrazli tarzda shakllantirilgan.[9] Bu esa murakkab axloqiy tushunchalarni (masalan, qanoat, adolat) yoshlarga oson yetkazish imkonini beradi. Jomiyning **"Komil inson"** konsepsiyasi zamonaviy dunyoqarashdagi "kreativ va mas’uliyatli shaxs" tushunchasi bilan hamohangdir.[10] Uning ta’limotiga ko‘ra, bilim faqat yaxshilikka xizmat qilishi, hunar esa insonni moddiy va ma’naviy qaramlikdan ozod etishi lozim. Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari bugungi kunda ta’lim tizimidagi "mentorlik" (ustozlik) an’analarining eng oliy va namunali ko‘rinishi ekanligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiy ilmiy merosi — bu milliy o‘zligimizni anglash va sog‘lom ma’naviyatli jamiyat qurish uchun beqiyos manbadir. Uni tizimli o‘rganish va amaliyotga joriy etish yosh avlodning intellektual va axloqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. (Nashrga tayyorlovchi: Sh. Shomuhamedov). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2007.
2. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. (Haft avrangdan parchalar). – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Abdurahmon Jomiy. Nafohatul-uns (Azizlar suhbati). – Toshkent:**.** O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
4. Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin (Xayratul-abror tarkibida). – Toshkent: TAMADDUN, 2011.

5. Bertels E.E**.** Jami. Epoxa, jizn i tvorchestvo. – Moskva: Nauka, 1985.

6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.

7. Hayitmetov A. Sharq adabiyoti va Jomiy an’analari. – Toshkent: Fan, 1989.

8. Shomuhamedov Sh. Abdurahmon Jomiy: Hayoti va ijodi haqida ocherk. – Toshkent: Fan, 1964.

9. Olimov K. Jomiy va uning tasavvufiy qarashlari (Monografiya). – Dushanbe, 1986.

10. "Sharq yulduzi" jurnali, Jomiy tavalludining 600 yilligiga bag‘ishlangan maxsus sonlar (2014-2015).

O‘RTA OSIYODA DASTLABKI TEMIR YO‘LLAR QURILISHIDAN KO‘ZLANGAN MAQSAD VA VAZIFALAR

Niyazov Adxam Abduganiyevich

Guliston davlat universiteti

E-mail: adxam.niyazov@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Chor Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyoda temir yo‘llar qurilishi uchun zaruratning yuzaga kelish sabablari, o‘sha davrda temir yo‘l qurilishini taqozo etgan omillarga to‘xtalib o‘tilgan. Temir yo‘llar qurilishini talab etgan harbiy-strategik, siyosiy-geopolitik, iqtisoiy-ijtimoiy va madaniy jihatlar asoslangan. O‘rta Osiyoda temir yo‘llar qurilishidan oldingi va keyingi o‘zgarishlar qiyoslangan.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo temir yo‘li, Turkiston general-gubernatorligi, Toshkent-Qo‘qon karvon yo‘nalishi, Kaspiyorti temir yo‘li, Termiz-Kogon temir yo‘li, paxta eksporti, pochta aloqalari.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются причины возникновения необходимости строительства железных дорог в Средней Азии царской Россией и факторы, обусловившие строительство железных дорог в тот период. Обоснованы военно-стратегические, политико-геополитические, социально-экономические и культурные аспекты, требующие строительства железных дорог. Сопоставлены изменения в Средней Азии до и после строительства железных дорог.*

Ключевые слова: *Среднеазиатская железная дорога, Туркестанское генерал-губернаторство, караванный маршрут Ташкент-Коканд, Закаспийская*

железная дорога, железная дорога Термез-Каган, экспорт хлопка, почтовое сообщение.

Abstract: *This article examines the reasons for the need to build railways in Central Asia by Tsarist Russia and the factors that led to the construction of railways during that period. The military-strategic, political-geopolitical, socio-economic, and cultural aspects requiring railway construction have been substantiated. The changes in Central Asia before and after the construction of railways are compared.*

Keywords: *Central Asian Railway, Turkestan Governor-Generalship, Tashkent-Kokand caravan route, Trans-Caspian railway, Termez-Kagan railway, cotton export, postal services.*

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tuzumining joriy etilishi mahalliy aholining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida sezilarli o‘zgarishlarning vujudga kelishini sabab bo‘ldi.

1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan so‘ng bu yerda imperiya manfaatlarini ifoda etuvchi boshqaruv tizimi tashkil etildi. Imperiyaning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, Turkiston iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi va shu asosda iqtisodiy siyosat amalga oshirila boshlandi. Metropoliya bilan uning mustamlakasiga xos bo‘lgan munosabatlar o‘rnatilganidan so‘ng, imperiya oldida o‘lka boyliklaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Biroq, bu borada asosiy muammolardan biri Turkiston o‘lkasini Rossiya imperiyasi bilan bog‘lab turuvchi, ikkala o‘rtadagi mustahkam harbiy, siyosiy-ma’muriy, savdo-iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish uchun zamonaviy transport vositalarining mavjud emasligi edi. Bu transport vositasi – temir yo‘llar bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda, Turkistonga temir yo‘l o‘tkazilishi Rossiya imperiyasining o‘lkadagi mavqeini mustahkamlashi lozim edi [28].

Chor Rossiyasi hukumatining Turkistonda temir yo‘llar qurilishidan ko‘zlagan maqsadlarida siyosiy, harbiy-strategik, ham iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlar namoyon bo‘ladi.

XIX asrning 60-70 yillariga kelib, o‘lkaga temir yo‘llar o‘tkazish masalasi imperiya hukumatining O‘rta Osiyoda amalga oshirishi lozim bo‘lgan eng muhim ishlari jumlasidan o‘rin oldi. Bu davrda Turkistonda temir yo‘l qurilishini taklif etuvchi 40 dan oshiq loyihalar ishlab chiqilgan va taklif etilgan edi. Ularning aksariyatini o‘zining maqsad va yo‘nalishiga ko‘ra to‘rtta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. Kaspiy va Orol dengizlari oralig‘idan O‘rta Osiyoning ichkarisigacha bo‘lgan yo‘nalishdagi temir yo‘l loyihalari.

2. Orenburg–Toshkent yo‘nalishidagi temir yo‘l loyihalari.

3. Parij–Kalkutta yo‘nalishidagi, ya’ni, Yevropani Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Xitoy bilan O‘rta Osiyo orqali bog‘lovchi temir yo‘llar loyihalari.

4. Kaspiy dengizi bo‘yidan Turkiston o‘lkasining ichki hududlarigacha bo‘lgan yo‘nalishdagi temir yo‘l loyihalari [7].

XIX asrning 70-yillari o‘rtalariga kelib, ba'zi loyihalar atrofida aniq izlanishlar olib borila boshlandi. Hukumat Turkistonga temir yo‘l o‘tkazish vositasidagina o‘zining o‘lkadagi siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy mavqeini mustahkamlab olishi mumkinligini tobora chuqurroq anglay boshlagach, davlat xazinasi hisobidan eng ma’qul yo‘nalishni tanlab olish uchun o‘tkaziladigan tadqiqotlarga mablag‘ ajrata boshladi.

Temir yo‘l qurilishi bilan bog‘liq takliflar 1867 yilda Voronsov-Dashkov, 1869 yilda F.Kons, Laserev va Miller, 1871 yilda S.Baranovskiy, 1873 yilda K.Beznosikov,1874 yilda A. Bolman, 1875 yilda Konstantin Simoni, F.Lesepps, 1876 yilda Dubelt, 1879 yilda S.Baranovskiy, 1880 yilda Ostryakov kabilar tomonidan ilgari surilgan edi.

A.Bolman qurilajak Orenburg–Toshkent temir yo‘li yo‘nalishi bo‘ylab harbiy qismlarni joylashtirishni va shu orqali harbiy faoliyat va temir yo‘l xizmatini birgalikda olib boruvchi harbiy qismlardan foydalanishni taklif etadi. Uning fikricha, harbiylar tinch vaziyatda temir yo‘l xizmatini ado etsa, jangovar sharoitda harbiy faoliyat bilan shug‘ullanishi lozim bo‘ladi.

Jangovar sharoitda Orenburg–Toshkent yo‘nalishidagi temir yo‘lining markazida ikki sutka mobaynida bor harbiy kuchlarni qurollangan holda to‘plash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Orenburgdan qo‘shimcha harbiy kuchlarni yetkazib kelish zaruriyati tug‘ilgan taqdirda, harbiy harakat boshlangan kundan boshlab, o‘n kun mobaynida 60 ming kishilik armiyani to‘plashga erishish mumkin bo‘ladi.

D. Milyutin 1880 yil 13 aprelda moliya vaziri S.A. Greygga yozgan maktubida O‘rta Osiyo temir yo‘l o‘tkazish zarurligini bildirib, buning siyosiy va harbiy jihatdan muhimligini alohida qayd etgan edi. Uning fikricha, temir yo‘llar Rossiyaning Osiyodagi holatini mustahkamlaydi. Rossiyaning Amudaryo va Sirdaryo vodiylaridagi siyosiy holati uning Yevropadagi ahvolini belgilab beradi [1]. Hukumat vakilining ushbu fikrlarida imperiya hukumatining Turkistonda temir yo‘l qurishdan ko‘zlagan strategik maqsadlari yaqqol aks etgan. Demak, o‘lkani Rossiya hududi bilan temir yo‘llar vositasida bog‘lashni imperiyaning harbiy-strategik, siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlari taqozo qilayotgan edi [28].

Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, XIX asrning 80-yillari boshlarida Turkistonga temir yo‘l o‘tkazish vazifasi zaruriyat darajasiga ko‘tarilib, Rossiya imperiyasining o‘lkada amalga oshirishi lozim bo‘lgan muhim tadbirlari orasida salmoqli o‘rinni egallagan. Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy-strategik holatini mustahkamlash, imperiyaning savdo va iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish hamda siyosiy vaziyatni barqaror ravishda ushlab turish zaruriyati o‘lkaga temir yo‘l qurishni taqozo qilgan edi. Bu davrga kelib, Rossiya imperiyasining markaziy

hududlaridagi kommunikasiya tizimini, jumladan, temir yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish va bu bilan sanoat ishlab chiqarishi, ichki va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlash hukumat oldida turgan muhim vazifalardan hisoblangan. Shu bilan birga, o‘zining Turkistondagi mavqeini har tomonlama mustahkamlash uchun o‘lkaga temir yo‘l o‘tkazish imperiya uchun zarur edi [28].

Chor hukumati Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi xalqlari ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatishga, Sharqda o‘z mavqeini mustahkamlashga, Angliyaning O‘rta Osiyoga bostirib kirishining oldini olishga harakat qildi.

Chor hukumati Turkistonda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun shoshilinch choralar ko‘rishga majbur bo‘ldi. Buning uchun, avvalo, Rossiyaning markaziy rayonlarini uzoq o‘lka bilan bog‘laydigan temir yo‘l kerak edi. Shuni ta’kidlash kerakki, Turkiston chegaralarida qandaydir tashqi siyosiy murakkabliklar yuzaga kelgan taqdirda uchta harbiy okrug (Turkiston, Orenburg va Sibir) safarbar qilingan. Shu bilan birga, qo‘shinlar va o‘q-dorilarni ko‘chirish uchun nafaqat katta mablag‘, balki uzoq vaqt (odatda 10 oygacha) ham sarflangan [9].

Albatta, 70-yillarda. O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurish zaruriyati, birinchi navbatda, siyosiy va harbiy-strategik nuqtayi nazardan kelib chiqqan. Shu bilan birga, bosib olingan o‘lkada temir yo‘l iqtisodiy jihatdan ham zarur edi. O‘rta Osiyo rus burjuaziyasini uzoq vaqtdan beri muhim bozor va xomashyo manbai sifatida qiziqtirib kelgan. Bu bepoyon hudud Rossiyaga qo‘shib olingach, chor hukumati va rus karitalistlari yangi o‘lka iqtisodiyotini rivojlanayotgan Rossiya sanoati ehtiyojlariga moslashtirishdan manfaatdor edilar.

60-70-yillarda Rossiya bilan O‘rta Osiyo o‘rtasidagi tovar ayirboshlash to‘xtovsiz o‘sib bordi. O‘rta Osiyo bozori Rossiyaning sanoat mollari keng sotiladigan va jiddiy xorijiy raqobatga ega bo‘lmagan yagona bozor edi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, O‘rta Osiyo Rossiyaning Yaqin va O‘rta Sharqdagi qo‘shni mamlakatlar bilan tranzit savdosida katta rol o‘ynagan. O‘rta Osiyo orqali Eron bilan savdo-sotiq yil sayin o‘sib bordi. 1870-1880-yillar mobaynida Eronga mol keltirish va u yerdan mol chiqarish 1875 437 so‘mdan 4598 933 so‘mga, ya’ni deyarli 250 foizga ko‘paydi.

Biroq, agar Rossiyaning O‘rta Osiyo bilan savdo-sotig‘ining o‘sishi ishonchli va iqtisodiy jihatdan foydali transport aloqa vositalarining yo‘qligi tufayli to‘xtab qolmaganida, ancha sezilarli bo‘lardi. Yuklarni karvon yo‘li bilan tashish usuli metropoliya va mustamlaka o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga asosiy to‘siq bo‘ldi.

Savdo-soniq aloqalarning an’anaviy usulda, ya’ni karvonlar orqali amalga oshirish esa mavjud ehtiyojni qondirishga ojizlik qila boshlagan.

Toshkentdan Orenburgga boradigan karvonlar kamida 3 oy yo‘lda bo‘lgan. O‘rta Osiyodan Moskvaga va Nijniy Novgorodga tovarlarni yetkazib berish uchun esa 5-6 oy vaqt sarflash kerak edi.

Temir yo‘lning yo‘qligi Markaziy Rossiya va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi pochta aloqasining ham mukammal bo‘lishiga to‘sqinlik qilgan.

Chor ma’murlari O‘rta Osiyoning ichkarisiga kirib borganlari sari pochta va telegraf aloqasini tashkil etdilar. Pochta Rossiyaga ikki yo‘l bilan: Chimkent, Avliyo ota, Pishpak va Verniy orqali G‘arbiy Sibirga hamda Toshkentdan Turkiston, Julek, Perovsk, Kazalinsk va Orsk orqali Orenburgga olib borilgan.

Masalan, Ural istehkomidan Toshkentgacha pochta jami 307 soat 30 daqiqada, Orskga qadar 12 sutkada va Sankt Peterburgga qadar 22 sutkada yetib borgan [7].

Kaspiyorti temir yo‘lining qurilishi texnik va siyosiy jihatdan G‘arb bilan Sharq o‘rtasidagi tarixiy yo‘lning tiklanishini to‘la ta’minlabgina qolmay, balki, agar

Rossiyaning biron-bir dushmani uning Markaziy Osiyodagi hayotiy manfaatlariga tahdid solsa, bu yo‘l rus polklariga tezda Osiyo ichkarisiga kirib borish imkoniyatini ham beradi.

Kaspiyorti temir yo‘liga qanday nuqtayi nazardan qaralsada: strategik-siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-geografik, madaniy-tarixiy va xalqaro nuqtayi nazaridan qaralsa ham, bu inshoot eng muhim natijalardan biri bo‘lib qolishi ta’kidlangan [9].

Temir yo‘llarning harbiy ahamiyati, asosan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Temir yo‘llar tufayli urushni olib borish ham, jangga rahbarlik qilish ham joydagi vaqt sharoitiga bog‘liq bo‘lmay qoladi. Urushni olib borish vaqtining qisqarishi va uning jadal olib borilishi uning davomiyligini qisqartiradi.

Temir yo‘ldan foydalanish juda xilma-xil ekanligi, lekin harbiy harakatlar boshlanganda, masala uzoq chegaralarga qo‘shinlarning mumkin qadar ko‘proq massasini yetkazib berishdan iborat bo‘lganda temir yo‘l eng muhim rol o‘ynashi jihatidan yondoshilgan.

Temir yo’lllar qurilishining iqtisodiy ahamiyati ham alohida e’tiborga olingan. Xususan, I.Y.Vaslik “Закаспийская железная дорога, её значение и будущность” asarida Kaspiyorti temir yo‘lining Rossiya imperiyasi uchun iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan [9].

Temir yo‘llarning qurilishidan ko‘zlangan asosiy maqsadlari harbiy va iqtisodiy maqsadlar ekanligini Termiz temir yo‘li qurilishi bilan bog‘liq holatlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

1897-yilda Rossiya Termiz shahrining muhim strategik ahamiyatini inobatga olib, bu yerda harbiy qismni doimiy joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 1885-yil 3-dekabrda Samarqand-Termiz pochta yo‘lini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Shaharda, sotib olingan 40 desyatina yerda harbiy obyektlar qurilishi

boshlangan. Natijada Termizni nafaqat harbiylar, balki ingichka tolali g‘o‘za navlarini yetishtirish markaziga aylantirish ishlari boshlab yuborilgan. Natijada 1903-yilda bu yerdan 17 ming pud paxta olib chiqilgan bo‘lsa, 1910-yildayoq 34 ming pud paxta olib ketilgan [29].

Rossiya tashqi ishlar vazirining harbiy vazir nomiga 1910 yil 6 fevralida yozgan 114–sonli maxfiy xatida Yangi Buxoro-Qarshi orqali Sheroboddan Termizga temir yo‘l tarmog‘i qurish ishlarini tezlatish haqida fikr bildirilgan. Unda qayd etilishicha, temir yo‘l tarmog‘i bo‘yicha tayyorlangan loyiha birinchi darajali harbiy ahamiyatga ega edi. Negaki Kobulga uyushtiriladigan harbiy-strategik yurishda temir yo‘l qurol-yarog‘ va harbiy qismlarni yetkazib berish, mudofaa inshootlarini qurish, harbiy qismlar ta'minotini yo‘lga qo‘yishda muhim omildir. Yangi Buxoro-Qarshi temir yo‘li oralig‘i 100 verstni tashkil etib, Qarshi shahridan Kalifgacha quriladigan temir yo‘l tarmog‘i ham asosan cho‘l, aholi istiqomat qilmaydigan hududlardan o‘tar edi. Bu loyihada temir yo‘lni Termizga yetkazib borish uchun, daryo qirg‘og‘idagi tog‘ni kesib, Sherobod vodiysi orqali qurish mo‘ljallangan.

O‘rta Osiyo temir yo‘li Turkiston o‘lkasida yetishtiriladigan paxtaning Rossiya imperiyasiga tez va arzon tarzda yetkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Hatto, o‘lkadagi ikkinchi temir yo‘l – Toshkent– Orenburg temir yo‘li qurib, ishga tushirilganidan keyin ham Turkiston paxtasining 90 foizi O‘rta Osiyo temir yo‘li orqali tashib ketilishda davom etavergan edi.

O‘rta Osiyo temir yo‘li orqali nafaqat paxta xomashyosi, balki, paxta mahsulotlari ham imperiyaning markaziga olib ketilgan. 1900 yilda temir yo‘l stansiyalaridan 59 ming pud paxta yog‘i jo‘natilgan. Shundan 6 ming pudi mahalliy aholi ehtiyojlariga ishlatilgan, qolgan 53 ming pud paxta yog‘i imperiyaning markaziy qismiga jo‘natilgan [28].

O‘lkadagi ilk temir yo‘lning qurilishi Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasi orqali qo‘shni davlatlar bilan olib boriladigan savdo aloqalarining kuchayishida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, Rossiyaning Eron bilan bo‘ladigan savdo aloqalari temir yo‘l ishga tushirilishi munosabati bilan kuchayib, o‘zaro savdo aylanmasi 1890-1899 yillarda 28,4 mln. rublni tashkil etdi. Vaholanki, 1862-1871 yillarda Rossiyaning Eron bilan savdo aylanmasi 5,9 mln. rubldan iborat bo‘lgan edi, xolos [30].

O‘rta Osiyoda temir yo‘llarni qurishdan yana bir maqsad madaniy-mafkuraviy vazifalar bilan bog‘liq bo‘lib, temir yo‘l ishchilari tarkibini nazorat qilish orqali aholi orasida rusiyzabon insonlar sonini ko‘paytirish, murakkab iqlimli(Qoraqum cho’li) hududlarda temir yo‘l o‘tkazish orqali esa mamlakatning imkoniyatlarini namoyon etish ham nazarda tutilgan.

Bundan maqsadlarga erishish uchun O‘rta Osiyo yo‘lidan barcha mahalliy millat ishchilari va chet el fuqaroligidagi ishchilar chiqarib tashlash, ikki oylik muddat ichida mahalliy ishchilar chiqarib yuborish, ko‘p sonli ta’mirlovchi ishchilarni ruslar bilan almashtirish choralarini ko’rish, mahalliy millatlardan bo‘lgan ishchilar sonini qisqartirish kabi qarorlar qabul qilingan.

Natijada, 1911-1914-yillar davomida temir yo‘l sohasida rus ishchilari va soldatlari talaygina lavozimlarni egallashlariga muvaffaq bo‘lingan. 1914-yilning boshlariga kelib O‘rta Osiyo temir yo‘li ishchilari tarkibini ruslashtirishda ma’lum yutuqlarga erishilgan [7].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Chor Rossiyasi tomonidan O’rta Osiyoda temir yo’llar tarmog’ining tashkil etilishi quyidagi maqsadlarda amalga oshirilgan:

1.Harbiy-siyosiy;

-zabt etilmagan hududlarni bosib olishni davom ettirish;

-mahalliy xalqlarning noroziliklarni oldini olish va qo‘zg‘olonlarni tezkorlik bilan bostirish;

-mustamlakachilik tartiblarini yanada mustahkamlash.

2. Strategik-geopolitik:

-Buyuk Britaniyaning Afg‘oniston orqali O‘rta Osiyoga chiqishi va ta’sirini oldini olish;

-O‘rta Osiyo hududlarini markaz bilan ishonchli va barqaror transport orqali bog‘lash;

-mustamlaka hududlar va markaz o‘rtasida tezkor pochta aloqalarini yo‘lga qo‘yish.

3. Iqtisodiy-savdo:

-o‘lkaning foydali qazilmalari, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini imkon qadar tez va ko‘p olib ketish;

-markaziy rayonlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarini O‘rta Osiyo bozoriga yetkazib berish va yangi bozorlarni zabt etish;

-Buyuk ipak yo‘lini tiklash orqali Yevropadan Hindistonga boradigan muqobil quruqlik yo‘lini taklif etish va tranzit xizmatlaridan foyda olish;

-Hindiston, Afg‘oniston va Eron mahsulotlarini Rossiya iste’molchilari va ishlab chiqaruvchilariga tez va arzon narxlarda yetib borishini ta’minlash.

4. Mafkuraviy-madaniy:

-Chor Rossiyasining qudratini strategik raqiblari va mustamlaka hududlariga namoyish qilish;

-hududlarda rus ishchilari sonini ko‘paytirish yo‘li bilan tayanch qatlam yaratish;

-rus madaniyatini yoyishda temir yo‘l ishchilaridan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аксенов А.В. Оренбургско–Ташкентская железная дорога и её роль в развитии капитализма в Средней Азии: автореф. дис. … канд. ист. наук. – М., 1955. – 19 с.

2. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период) – Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1959. – С.143.

3. Андреевский В.В. Военно-историческая летопись 2-го Закаспийского железнодорожного батальона (1885–1910 гг.). – Киев, 1910.

4. Анненков М.Н. Закаспийская железная дорога, её значение и будущность. – СПб., 1887.

5. Антипин В.Н., Левашев Н.Н. Путеводитель по Туркестану и Среднеазиатской железной дороге. – СПб.: В. Березовский, 1903. – 536 с.

6. Ахмаджанова З.К. Ўрта Осиёда темир йўллар қурилиши тарихига доир (1880–1917 йиллар). – Тошкент: Фан, 1965. – 213 б.

7. Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане (конец XIX – начало XX вв.) – Ташкент: Фан, 1984. – С. 14.

8. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 1995. – 218 с.

9. Вацлик И.Я. Закаспийская железная дорога, её значение и будущность. – СПб., 1888.

10. Верховский Н.П. Туркестан в районе Ташкентской железной дороги. – СПб., 1910. – 311 с.

11. Гафурджанова И. Из истории строительства Ферганской железной дороги (1900–1917 гг.). – Ташкент, 1961.

12. Грабовский С. Очерк участия 2-го Закаспийского железнодорожного батальона в постройке Закаспийской железной дороги // Военный сборник. – 1895. – № 4–5. – С. 221–245.

13. Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. – Ашхабад, 1913. – 287 с.

14. Давидсон А.Б. Образ Британии и России XIX – XX столетий // Новая и новейшая история. – М.: Наука, 2005. – № 5. – С. 51-64.

15. Дмитриев-Мамонов А. Путеводитель по Ташкентской железной дороге. – СПб., 1907. – 186 с.

16. Дмитриев-Мамонов А.И. Путеводитель по Ташкентской железной дороге с очерком Ферганской нефти. Спб., 1907. – С. 1.;

17. Дмитриев-Мамонов А.И. Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Средне-Азиатской и Ташкентской. – СПб.: Типография им. Шурухта, 1912. – С.325.

18. Жоравка-Покорский Д. Экономическое значение железных дорог в Средней Азии. – Новая Бухара, 1898.

19. Заорская В.В.и Александер К.А.. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград: Екатеринская типография, 1915. – С.2.

20. Кривошеин А.В. Записка о поездке в Туркестанский край в 1912 году. – Полтава, 1912. – 187 с.

21. Мигулин П.П. Наша железнодорожная политика (1893–1902 гг.). – Харьков, 1902.

22. Полтаранов Н. Заметки о Закаспийской железной дороге (1880–1889 гг.). – Самарканд, 1890.

23. Раджабов О.А. Термиз темир йўлининг қайта тикланиши // Тамаддун нури. – 2021. – № 5. – Б. 93–94.

24. Родзевич А.И. Очерк постройки Закаспийской железной дороги. – СПб., 1891.

25. Саидивалиев Ш.У., Сатторов С.Б. ИСТОРИЯ ПОЭТАПНОГО РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ СЕТИ И СОЗДАНИЯ СОРТИРОВОЧНЫХ СТАНЦИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 3(120). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16994 (дата обращения: 12.04.2026).

26. Суворов В.А. Историко-экономический очерк развития Туркестана. – Ташкент, 1962.

27. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. – СПб., 1906. – 496 с.

28. Тогаева А.З. Железная дорога Ташкент–Оренбург...: автореф. дис. – Ташкент, 2010. – 30 с.

29. Хидиров Х. Д.Из истории Термезской железнодорожной магистрали// Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №2. С. 315-320. https://doi.org/10.33619/2414-2948/51/38

30. Чернов П.Н. К истории строительства железной дороги Ташкент–Оренбург // Известия Узбекистанского филиала географического общества СССР. – Ташкент: АН УзССР, 1956. – Т. II. – С.164.

31. Ҳидоятов Г.А. Британская экспансия в Средней Азии. (Пенде, март, 1885 г.) Т.: Фан, 1981. – 213.;

32. Шарофиддинов М.М. Строительство железных дорог Центральной Азии // Молодой ученый. – 2016. – № 12. – С. 718–720.

33. Шмидт Р.З. Среднеазиатская железная дорога и её влияние на социально-экономическую жизнь Туркестанского края (1880–1914 гг.).: Автореф. дисс… канд. ист. наук. – Ташкент, 1965. – С. 7.

34. Шмидт Р.З. Влияние Среднеазиатской железной дороги на развитие хлопководства Туркестанского края (1880-1914 гг.) // Труды Узбекского гос. университета, Новая серия. – Самарканд, 1958. – Вып. 83. – С.145.

35. Tog‘ayeva A.Z. Toshkent–Orenburg temir yo‘li va Rossiya imperiyasi siyosati // O‘zbekiston tarixi. – 1999. – № 4.

36. Yuldashev B. O‘zbekiston temir yo‘llari rivojlanishi // Respublika ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 128–132.

37. Ziyaeva D. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda chor Rossiyasining moddiy boyliklarini o‘zlashtirish siyosati // O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2000. – № 1-2. – B. 22-34.

38. Ziyoev H. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 2006. – 259-bet.

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI: SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY MEZONLAR ASOSIDA ILMIY TAHLIL

Po‘latova Umidaxon Mamutxon qizi

O‘zbekiston Xalqaro Islomshunosllik akademiyasi

mailto:makhmudovna6602@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning strategik ahamiyati milliy iqtisodiyot diversifikatsiyasi, hududiy rivojlanish, bandlik va daromadlar o‘sishi, madaniy merosni muhofaza qilish hamda xalqaro imij va “soft power”ni kuchaytirish kontekstida tahlil qilinadi. Tahlilda normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika, xalqaro reyting va hisobotlar hamda ziyorat turizmining global bozor tendensiyalari qiyosiy yondashuv orqali umumlashtiriladi. Natijada sohani jadallashtirish uchun infratuzilma, raqamli servislar, standartlash, gid-tarjimonlar salohiyati, meros obyektlari boshqaruvi va barqaror turizm tamoyillariga tayangan amaliy takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *ziyorat turizmi, Yangi O‘zbekiston, turizm siyosati, madaniy meros, halal-friendly servis, UNESCO, GMTI, hududiy rivojlanish, barqaror turizm.*

Annotation. *The article analyzes the strategic importance of developing pilgrimage tourism in New Uzbekistan in the context of diversification of the national economy, regional development, growth of employment and incomes, preservation of cultural heritage, and strengthening of the country’s international image and soft power. The study summarizes normative-legal documents, official statistics, international rankings and reports, as well as global market trends in pilgrimage*

tourism through a comparative approach. As a result, practical recommendations aimed at accelerating the sector are proposed, based on infrastructure development, digital services, standardization, the capacity of guides and interpreters, management of heritage sites, and the principles of sustainable tourism.

Keywords: *pilgrimage tourism, New Uzbekistan, tourism policy, cultural heritage, halal-friendly services, UNESCO, GMTI, regional development, sustainable tourism.*

Аннотация. *В статье анализируется стратегическое значение развития паломнического туризма в Новом Узбекистане в контексте диверсификации национальной экономики, регионального развития, роста занятости и доходов населения, сохранения культурного наследия, а также укрепления международного имиджа страны и её «мягкой силы». В исследовании на основе сравнительного подхода обобщаются нормативно-правовые документы, официальная статистика, международные рейтинги и отчёты, а также глобальные рыночные тенденции паломнического туризма. В результате предлагаются практические рекомендации по ускорению развития отрасли, основанные на развитии инфраструктуры, цифровых сервисов, стандартизации, повышении потенциала гидов-переводчиков, управлении объектами наследия и принципах устойчивого туризма.*

Ключевые слова: *паломнический туризм, Новый Узбекистан, туристическая политика, культурное наследие, halal-friendly сервисы, UNESCO, GMTI, региональное развитие, устойчивый туризм.*

Kirish

Turizm sohasini iqtisodiyotning “tez ishga tushadigan” tarmoqlaridan biri sifatida ko‘rish, ayniqsa, hududlar daromad bazasini kengaytirish, xizmatlar eksportini oshirish va bandlikni ko‘paytirish nuqtayi nazaridan Yangi O‘zbekiston islohotlarining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shu jarayonda ziyorat turizmi – diniy va madaniy meros bilan

bog‘liq sayohatlar segmenti – mamlakatning tarixiy resurslari, qadriyatlar tizimi va xalqaro brendlash imkoniyatlarini birlashtiruvchi “ko‘prik” vazifasini bajarmoqda[9].

Davlatning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida ziyorat turizmini jadal rivojlantirish zarurligi bir necha bor alohida urg‘u bilan qayd etilgan: mamlakatda 8200 dan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lsa-da, turizm marshrutlariga ularning nisbatan kichik qismi kiritilgani ta’kidlanadi. Bu holat, bir tomondan, ulkan “foydalanilmagan salohiyat”ni, ikkinchi tomondan esa, meros obyektlarini boshqarish, servis sifati va marshrutlar dizayni masalalarini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi – ziyorat turizmi rivojlanishining iqtisodiy (diversifikatsiya, investitsiya va ish o‘rinlari), ijtimoiy-madaniy (merosni asrash, mahalliy hamjamiyat farovonligi) hamda siyosiy (xalqaro imij, yumshoq kuch) ahamiyatini tizimli tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, rasmiy statistika bilan ishlash, xalqaro hisobotlar va reytinglar bo‘yicha qiyosiy yondashuv, shuningdek, ziyoratchi tajribasi nuqtayi nazaridan servis zanjiri tahlili qo‘llanadi.

Ilmiy adabiyotlarda “ziyorat turizmi” ko‘pincha “diniy turizm” (religious tourism) tushunchasi bilan yonma-yon qo‘llanadi: bunda sayohat motivatsiyasining markazida muqaddas joylarni ziyorat qilish, diniy marosim va an’analarda ishtirok etish, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tajriba orttirish turadi. Biroq zamonaviy turizm amaliyotida ziyorat turizmi faqat diniy ibodat bilan cheklanmay, madaniy merosni anglash, tarixiy makonlar bilan tanishish, gastronomiya, hunarmandchilik va mahalliy hayot tarzi bilan integratsiyalashgan “gibrid” mahsulotga aylanmoqda.

[9] Ana Maria Campon-Cerro, J. M.-M.-F. (2019). Best Practices in Hospitality and Tourism Marketing and Management. Springer Link. -P. 44.

UN Tourism (sobiq UNWTO) diniy turizmni turli sivilizatsiyalar va e’tiqodlar vakillarini birlashtiruvchi madaniy muloqot omili sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki mamlakat hududida islom sivilizatsiyasi bilan bog‘liq yirik ziyoratgohlar bilan bir qatorda, boshqa konfessiyalar uchun ham tarixiy qadamjolar mavjud bo‘lib, bu ko‘p qatlamli turistik taklifni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot mezonlari uch blokda jamlandi: (a) makroiqtisodiy ta’sir (YaIMga hissa, xizmatlar eksporti, bandlik), (b) hududiy-ijtimoiy natijalar (mahalliy tadbirkorlik, daromadlar, infratuzilma sifati), (c) merosni muhofaza qilish va boshqaruv (restavratsiya, tashrifchi oqimini tartibga solish, autentiklik va barqarorlik). Shu mezonlar asosida O‘zbekistonning normativ hujjatlari va amaliy tashabbuslari ziyorat turizmi “qiymat zanjiri” (marshrut – transport – joylashtirish – ovqatlanish – gidlik – raqamli servis – xavfsizlik – suvenir) bo‘yicha tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan maqola hujjatlar tahlili (policy analysis), statistik qiyoslash, va “foydalanuvchi tajribasi” (ziyoratchining safar davomida oladigan xizmatlari ketma-ketligi) yondashuvini uyg‘unlashtiradi. Mazkur kombinatsiya ziyorat turizmini faqat reklama yoki infratuzilma masalasi sifatida emas, balki ko‘p institutli boshqaruv tizimi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Asosiy qism

Yangi O‘zbekistonda turizmni, xususan ziyorat turizmini rivojlantirish siyosati bir necha darajadagi strategik hujjatlar bilan mustahkamlangan. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida turizm xizmatlari hajmini oshirish, hududlar kesimida turistik infratuzilmani kengaytirish va ichki turizmni rag‘batlantirish vazifalari umumiy iqtisodiy modernizatsiya maqsadlari bilan bog‘langan[10].

[10] Ernazarov, G.bYangi xavfsiz va sog'lom turizm. Pekin: Jenmin Jibao, 2021. B. 84.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa turizm indikatorlari yanada aniqroq qo‘yilgan: 2030-yilgacha xorijiy sayyohlar sonini 15 mln nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 mln nafarga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan sayyohlar sonini 3 mln nafarga yetkazish maqsadlari belgilangan. Bu maqsadlar turizmni iqtisodiy o‘sish, xizmatlar eksporti va hududiy bandlik drayveri sifatida ko‘rish tendensiyasini aks ettiradi.

Ziyorat turizmini bevosita qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy normativ hujjatlardan biri – 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmon bo‘lib, u ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish, turistlar oqimini shakllantirish, targ‘ibot hamda infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Farmon ziyorat turizmini alohida segment sifatida ajratib, marketing, servis standartlari va hududiy loyihalar tizimini uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi[11].

Ushbu farmonni amaliyotga tatbiq etish doirasida Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi”ni tashkil etish bo‘yicha qarori qabul qilinib, har yili an’anaviy tarzda ziyorat turizmi bo‘yicha forum va tadbirlar o‘tkazish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Bu yondashuv ziyorat turizmini “hodisa”lar iqtisodiyoti (event economy) bilan bog‘lab, mavsumiylikni yumshatish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son qaror turizm salohiyatini jadal rivojlantirish, transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish hamda turizm xizmatlari turlarini ko‘paytirish bo‘yicha yo‘l xaritalarini belgilashi bilan ahamiyatli. Ziyorat turizmi kontekstida bu hujjat ziyorat marshrutlari bo‘ylab yo‘llar, servis zonalari, axborot belgilari va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun institutsional tayanch yaratadi.

[11] https://www.crescentrating.com/hit-awards.

Normativ maydonning yana bir muhim yo‘nalishi – “halol” talablar va sertifikatlashtirish amaliyotining bosqichma-bosqich joriy etilishi. Halol turizm xizmatlari bo‘yicha standartlar va sertifikatlashtirish tashabbuslari (mehmonxona, ovqatlanish, servis muhitida) musulmon sayyohlar uchun “ishonch infratuzilmasi”ni kuchaytiradi va bozor segmentatsiyasini aniqroq boshqarish imkonini beradi.

O‘zbekistonning ziyorat turizmi resurs bazasi ikki “qatlam”dan iborat: birinchisi – muqaddas ziyoratgohlar va diniy meros markazlari (masjid, maqbara, majmua), ikkinchisi – ziyorat tajribasini boyituvchi tarixiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar, qadimiy mahallalar, hunarmandchilik va madaniy tadbirlar. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda 8210 ta moddiy madaniy meros obyektlari qayd etilgan bo‘lib, bu ziyorat marshrutlarini diversifikatsiya qilish va yangi tematik yo‘nalishlar yaratish uchun keng maydon ochadi.

UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan yodgorliklar (Xiva – Ichan qal’a, Buxoro tarixiy markazi, Samarqand, Shahrisabz va boshqalar) “ziyorat + madaniy turizm” sinergiyasini kuchaytiradi. Ziyoratchilar uchun bunday makonlar nafaqat diniy tajriba, balki sivilizatsion meros, urbanistik tarix va arxitektura estetikasi bilan to‘yingan kompleks tajribani taqdim etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning ziyorat turizmi brendini xalqaro maydonda mustahkamlovchi e’tiroflar ham kuzatilmoqda. Xususan, Buxoro shahri ICESCO tomonidan 2020-yilda Osiyo mintaqasining “Islom madaniyati poytaxti” sifatida e’lon qilingan. Bu holat ziyorat turizmi marketingi uchun kuchli “narrativ resurs” bo‘lib, madaniy diplomatiya va ilmiy turizm (konferensiya, ilmiy safar) bilan uyg‘unlashadi[12].

Shuningdek, Xiva shahrining “Halal in Travel Awards” doirasida 2023-yilda “Yilning islom merosi turizm manzili” (Islamic Heritage Destination of the Year)

[12] https://www.worldbank.org/en/topic/competitiveness/brief/tourism-and-competitiveness

mukofotini olgani, mamlakatning halal-friendly turizm bozorida raqobatdoshligini oshiradi. Bunday mukofotlar ziyorat turizmini “ishonchli brend” sifatida joylashtirishda kommunikativ kapital vazifasini bajaradi.

Ziyorat turizmi bo‘yicha global bozor nuqtayi nazaridan O‘zbekistonning ustunligi shundaki, mamlakat Markaziy Osiyo mintaqasida transport jihatdan “chorraha”da joylashgan, ziyoratgohlar geografiyasi bir nechta hududlarga tarqalgan, va tarixiy shaharlar “bir safarda bir necha markaz” konsepsiyasiga mos keladi. Biroq bu ustunliklar real natijaga aylanishi uchun marshrutlar dizayni, logistika, axborot xizmatlari va servis standartlari o‘zaro uyg‘un ishlashi lozim.

Global miqyosda turizm yalpi ichki mahsulot va bandlikka kuchli multiplikativ ta’sir ko‘rsatadigan tarmoq sifatida qaraladi. WTTCning so‘nggi baholariga ko‘ra, 2024-yilda Travel & Tourism sektori global iqtisodiyotning taxminan 10 foiziga teng ulushni ta’minlagan va 357 mln atrofida ish o‘rnini (ya’ni “har 10 ish o‘rnidan biri”) qo‘llab-quvvatlagan. Jahon banki ham turizmning raqobatbardoshlik va mehnat bozoriga ta’sirini shu yo‘sinda ta’kidlaydi.

UN Tourism ma’lumotlarida 2023-yilda xalqaro turizm tushumlari pandemiyadan oldingi 2019-yil darajasiga yaqinlashib, taxminan 1,4 trln AQSh dollariga yetishi qayd etiladi. Bu – ziyorat turizmi kabi segmentlar uchun ham global talabning qayta tiklanayotganini anglatadi va O‘zbekistonning ushbu talabdan ulush olish imkonini kengaytiradi[13].

O‘zbekiston misolida ziyorat turizmi iqtisodiy ta’siri bir nechta kanallar orqali namoyon bo‘ladi: (1) xizmatlar eksporti va valyuta tushumi, (2) mehmonxona–ovqatlanish–transport zanjirida bandlik, (3) hunarmandchilik, suvenir, mahalliy ishlab chiqarish uchun talab, (4) hududiy infratuzilma modernizatsiyasi. Davlat siyosatining

[13] https://www.untourism.int/news/international-tourism-to-end-2023-close-to-90-of-pre-pandemic-levels

maqsadi ham aynan shu kanallarni “tizimli paket”ga aylantirib, turizmni diversifikatsiya drayveri sifatida ishlatishdir. [2]

1-jadval. O‘zbekistonning turistik tashriflar dinamikasi (xorijiy turistlar, mln kishi)

Yil	**Xorijiy turistlar soni**	**Manba**
2022	5,2 mln	Stat.uz (2023-01-17)
2023	6,6 mln	Kun.uz (2024-02-22) Statistika agentligi
2024	7,957 mln	Milliy statistika qo‘mitasi (2025-08-12 hisobot)
2025	11,7 mln	Stat.uz (2026-01-16)

Jadvaldagi o‘sish dinamikasi (2022–2025) turizmning pandemiyadan keyingi tiklanishdan keyin tez sur’atda kengayayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa 2025-yilda 11,7 mln turist qayd etilgani turizm infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar, viza va servis yengilliklari, marketing hamda transport aloqalarining faollashuvi bilan izohlanadi. Ziyorat turizmi bu o‘sishda muhim “tayanch segment” bo‘lib, u diniy taqvim va ma’naviy motivatsiya sabab mavsumiylikka kamroq bog‘lanadi.

Xizmatlar eksportida turizm ulushining yuqoriligi ham tarmoqning makroiqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlarida 2023-yilda xizmatlar eksporti tarkibida safarlar (turizm) katta ulushga ega ekani ko‘rsatiladi. Amaliy jihatdan bu, turistlar oqimi oshishi bilan birga, mamlakatning valyuta tushumlari va xizmatlar balansi barqarorlashishiga xizmat qilishini anglatadi.

Musulmon sayohati bozoridagi tendensiyalar ham O‘zbekiston uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Mastercard–CrescentRating ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro musulmon sayohatlari tiklanib bormoqda va halal-friendly xizmatlar (ibodat xonalari, halol ovqatlanish, mos axborot) bo‘yicha raqobat kuchaymoqda. Demak, ziyorat turizmi bilan birga halal-friendly servislarni tizimli rivojlantirish – bozor ulushini oshirishning strategik instrumentidir.

Mahalliy darajada ziyorat turizmi kichik biznesning ko‘payishiga bevosita turtki beradi: oilaviy mehmon uylari, xostellar, gidlik xizmatlari, transport va ovqatlanish nuqtalari, hunarmandlar kooperatsiyalari. Shu ma’noda ziyorat turizmi “mahalliy qiymatni mahallada qoldirish” tamoyiliga yaqin bo‘lib, hududlarni jadal rivojlantirish strategiyasiga mos keladi[14].

Ziyorat turizmining eng muhim “noiqtisodiy” qiymati – meros va identitetni tiklash hamda avlodlar xotirasini mustahkamlashdir. Ziyoratchi oqimi ortishi tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, muzeylashtirish, arxiv va qo‘lyozmalarni ommalashtirish kabi ishlar uchun ijtimoiy talabni kuchaytiradi. Bu jarayon to‘g‘ri boshqarilganda meros “tirik resurs”ga aylanadi: u nafaqat saqlanadi, balki ta’lim, ilm-fan va madaniyat tarmoqlariga ham qiymat qo‘shadi.

UNESCO doirasidagi majburiyatlar meros obyektlarining boshqaruv rejalarini ishlab chiqish, muhofaza zonalarini belgilash, tashrifchi oqimini tartibga solish kabi vazifalarni talab qiladi. O‘zbekistonda turizm va madaniy meros yo‘nalishida qabul qilinayotgan hujjatlarda (jumladan, Xiva va Buxoro kabi Butunjahon merosi hududlari bo‘yicha boshqaruv rejalarini ishlab chiqish vazifalari) aynan shu masalalar aks etadi.

Ziyorat turizmi madaniy muloqotni ham kuchaytiradi: UN Tourism diniy turizmni turli e’tiqod va madaniyat vakillarini birlashtiruvchi omil sifatida baholaydi.

[14] https://lex.uz/uz/docs/-5841063

O‘zbekistonning ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyat tajribasi, ziyorat turizmini tolerantlik va madaniyatlararo dialogni targ‘ib qiluvchi yo‘nalish sifatida rivojlantirishga zamin yaratadi.

Biroq ijtimoiy-madaniy foyda avtomatik tarzda kelmaydi. “Ortacha” turistik modernizatsiya (yodgorlik atrofini bir xil savdo qatorlariga aylantirish, vizual shovqin, autentik muhitning yo‘qolishi) ziyorat makonining ma’naviy qiymatini pasaytirishi mumkin. Shu sabab tashrifchi infratuzilmasi (savdo, ovqatlanish, transport) dizaynida meros estetikasiga moslik, mahalla hayotiga hurmat va ekologik barqarorlik prinsiplarini ustuvor qo‘yish zarur.

Zamonaviy ziyoratchi – axborotga talabchan foydalanuvchi: u safar oldidan marshrut, ibodat sharoiti, halol ovqatlanish, transport, xavfsizlik, narx va xizmat sifatini oldindan tekshiradi. Shu nuqtayi nazardan ziyorat turizmini rivojlantirish “faqat obida bor” degan yondashuvdan “raqamli servis ekotizimi bor” degan yondashuvga o‘tishni talab qiladi. Bu jarayonda mobil ilova, onlayn bron qilish, raqamli xarita, ko‘p tilli audio-gid va e-to‘lov tizimlari asosiy infratuzilma elementiga aylanmoqda.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda amaliy tashabbuslar mavjud. Masalan, Turkiy davlatlar tashkiloti platformasi doirasida “Tabarruk ziyorat” turizm platformasi ishga tushirilgani va unda ziyoratgohlar bo‘yicha ko‘p tilli ma’lumotlar joylashtirilayotgani raqamli “birinchi kontakt” sifatini oshirishga xizmat qiladi. Platforma kontentining ilmiy asoslanganligi (tarix, shaxslar, ziyorat odobi, logistika) ayniqsa muhim, chunki noto‘g‘ri ma’lumot ziyorat turizmining ishonch kapitaliga zarar yetkazishi mumkin[15].

Raqamlashtirishning ikkinchi yo‘nalishi – aeroport, vokzal, mehmonxona va yirik ziyorat maskanlarida tezkor axborot xizmatlarini tashkil etish (QR-yo‘naltirgichlar, smart-kiosklar, info-centre). Bu ziyoratchining vaqt va xarajatlarini kamaytirib,

[15] https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation.

umumiy qoniqishni oshiradi. Xususan, PQ-135 doirasidagi “infratuzilmani tezkor hal etish” vazifalarini raqamli yechimlar bilan to‘ldirish samarali bo‘ladi.

Mavjud salohiyatga qaramay, ziyorat turizmi bozorida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ziyorat marshrutlari bo‘yicha arzon va qulay joylashtirish vositalari, sanitariya-gigiyena infratuzilmasi, transport “so‘nggi kilometr” xizmatlari hamma hududlarda bir xil darajada emas. Ikkinchidan, ko‘p tilli axborot ta’minoti (yo‘l ko‘rsatkich, buklet, audio-gid, veb-sayt) yetarli sifat va qamrovga ega bo‘lmasa, ziyoratchi oqimini “konversiya” qilish (qiziqishdan tashrifga o‘tish) sezilarli sekinlashadi.

Uchinchidan, ziyorat turizmi “ishonchga asoslangan bozor” bo‘lgani uchun halal-friendly talablar, ibodat sharoiti, ovqatlanish, xususiylik (privacy), xavfsizlik va xizmat odobi bo‘yicha standartlar tizimi muhim. GMTI doirasidagi RIDA (Responsible, Immersive, Digital, Assured) kabi ramkalar aynan shu komponentlarni tizimli ko‘rishga yordam beradi. O‘zbekiston uchun bu ramkalarni milliy standartlar va sertifikatlashtirish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish dolzarb.

To‘rtinchidan, kadrlar masalasi: ziyorat obyektlari tarixi, diniy-etika normalari, til va servis madaniyatini birlashtira oladigan gid-tarjimonlar tanqisligi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etiladi. Bu muammoni yechish uchun qisqa kurslar bilan cheklanmasdan, kasbiy standartlar, attestatsiya va uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, meros obyektlarida tashrifchi sig‘imi (carrying capacity) va muhofaza rejimi muvozanati masalasi doimiy nazoratni talab qiladi. Turist oqimi oshishi bilan “overtourism” xavfi paydo bo‘ladi: bu nafaqat obidaning jismoniy

eskirishi, balki ziyorat muhitining ma’naviy sokinligi buzilishi ko‘rinishida ham namoyon bo‘lishi mumkin[16].

Ziyorat turizmini “strategik tarmoq” sifatida jadallashtirish uchun quyidagi takliflar ilmiy-amaliy jihatdan asosli deb hisoblanadi:

21. Marshrutlarni kengaytirish va segmentatsiya: “klassik” ziyorat yo‘nalishlari (Samarqand–Buxoro–Toshkent–Xiva) bilan birga, hududiy tematik yo‘nalishlar (Naqshbandiya maktabi, “Yetti Pir”, qo‘lyozmalar va ilmiy meros, shifobaxsh ziyorat maskanlari) bo‘yicha paketlarni ishlab chiqish.

22. Meros obyektlari boshqaruvi: UNESCO talablaridan kelib chiqib, boshqaruv rejalarini (management plan) muntazam yangilash, tashrifchi oqimini monitoring qilish, restavratsiya va xizmat ko‘rsatish zonalarini arxitektura-estetik standartlar asosida tartibga solish.

23. Halal-friendly servislarni standartlash: mehmonxona va ovqatlanishda halol talablar, ibodat xonalari, ayollar uchun qulay sharoit, oilaviy turizm ehtiyojlari, shuningdek, xizmat odobi bo‘yicha sertifikatlashtirish mexanizmlarini kengaytirish.

24. Raqamli ekotizim: “Tabarruk ziyorat” kabi platformalarni yagona bron qilish, transport integratsiyasi, ko‘p tilli kontent va audio-gidlar bilan boyitish; yirik obyektlarda QR-yo‘naltirgichlar va smart info-kiosklarni joriy etish.

25. Kadrlar va ilmiy kontent: ziyorat turizmi bo‘yicha maxsus o‘quv modullari, gid-tarjimonlar uchun attestatsiya, tarixiy matnlar va obidalar yozuvlarini ko‘p tilli ilmiy izohlar bilan tarjima qilish, buklet va kataloglarni standartlashtirish.

26. Tadbirlar iqtisodiyoti: “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” doirasidagi forumlar, ilmiy anjumanlar, ko‘rgazmalarni xalqaro hamkorlar bilan birgalikda kengaytirib, mavsumiylikni yumshatish va “reputatsion kapital”ni oshirish.

[16] https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/turizmpresreliz2023uz.

Ushbu takliflarning umumiy mezoni – ziyorat turizmini alohida loyiha emas, balki xizmatlar, meros boshqaruvi, ta’lim va raqamli iqtisodiyot kesishgan nuqtada joylashgan kompleks tizim sifatida boshqarishdir. Bunda asosiy indikatorlar sifatida ziyoratchi qoniqishi, o‘rtacha qolish muddati, bir turistning sarfi, qayta tashrif ulushi, meros obyektlarining saqlanish ko‘rsatkichlari va mahalliy biznes daromadlari dinamikasini monitoring qilish taklif etiladi[17].

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish – faqat turistik oqimni ko‘paytirish masalasi emas, balki milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni qisqartirish, xizmatlar eksportini oshirish, bandlik va daromadlarni ko‘paytirish bilan bevosita bog‘liq strategik yo‘nalishdir. [2,3,4,16]

Bunda O‘zbekistonning madaniy-meros resurslari, UNESCO darajasidagi obyektlari, ICESCO va xalqaro mukofotlar bilan mustahkamlanayotgan brend pozitsiyasi, shuningdek halal-friendly bozorning kengayib borishi mamlakatga raqobat ustunligi beradi. Ammo ushbu ustunliklar barqaror natijaga aylanishi uchun servis zanjiri bo‘ylab (logistika–infratuzilma–axborot–kadr–standart–raqamli servis) muvofiqlashtirilgan boshqaruv talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmini rivojlantirishning eng to‘g‘ri modeli – merosni muhofaza qilish va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini markazga qo‘ygan, raqamli yechimlar bilan qo‘llab-quvvatlangan, halal-friendly standartlar bilan “ishonch infratuzilmasi”ni mustahkamlagan hamda xalqaro hamkorlik va tadbirlar orqali brendni kengaytirgan kompleks yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[17] https://www.crescentrating.com/hit-awards

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (24.01.2020). Prezidentning rasmiy veb-sayti. URL: https://president.uz/oz/lists/view/3324 2026L01-30.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” (PF-60, 28.01.2022). Lex.uz. URL: https://lex.uz/uz/docs/-58410639 2026-01-300.

Five translation strategies were identified and analyzed. Of these, idiomatic substitution and cultural adaptation produced the highest rates of full adequacy, while descriptive paraphrase - the most frequently employed strategy - produced the lowest. These findings support a functional and pragmatic understanding of translation adequacy, consistent with the theoretical frameworks of Nida, House, and Toury, and have practical implications for translator training and lexicographic development in the Uzbek language context.

Future research should pursue several directions. Larger, more systematically constructed corpora would allow for more robust quantitative analysis and stronger

generalization. Genre-specific studies - focusing on legal, medical, or technical translation - would reveal how translation strategies and adequacy outcomes vary across text types. Finally, pedagogical research investigating the effectiveness of different approaches to teaching idiomatic translation competence would provide directly actionable guidance for translator training programs.

References

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — Routledge, 1992.
2. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. — Oxford University Press, 1965.
3. House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. — Gunter Narr Verlag, 1997.
4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. — Clarendon Press, 1998.
5. Nida E. A. Toward a Science of Translating. — E. J. Brill, 1964.
6. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. — E. J. Brill, 1969.
7. Olohan M. Introducing Corpora in Translation Studies. — Routledge, 2004.
8. Pym A. Exploring Translation Theories. — Routledge, 2010.
9. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. — John Benjamins, 1995.
10. Vinay J. P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. — John Benjamins, 1995.
11. Yusupov A. O‘zbek tilshunosligiga kirish [Introduction to Uzbek Linguistics]. — Fan nashriyoti, 2018.
12. Arifjanova N. M. Characteristics of ecological term formation in the English and Uzbek languages // The Lingua Spectrum. — 2025. — Vol. 6

GENDER TILSHUNOSLIGI: ERKAK VA AYOLLAR NUTQINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Azimova Muhayyo Pulatjonovna

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari

e-mail: m.azimova@uzswlu.uz

Annotatsiya: *Gender tilshunosligi (genderologiya) tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, erkak va ayollar nutqidagi o‘xshashlik hamda farqlarni o‘rganadi. Ushbu maqolada gender tilshunosligining shakllanish tarixi, uning sosiolingvistika va feministik tanqid bilan bog‘liqligi va stilistik o‘rganilishi tahlil qilinadi. Maqolada genderning tilshunoslikdagi muhim parametr sifatida shakllanishi, nutqiy strategiyalar va kommunikativ uslublarning jins bilan bog‘liq jihatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, genderga oid tadqiqotlarning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati va ularning jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni tushunishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *genderologiya, sotsiolingvistika, feministik tanqid, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, kommunikativ uslub*

Аннотация: *Гендерная лингвистика (гендерология) является одним из современных направлений языкознания, изучающим сходства и различия в речи мужчин и женщин. В данной статье анализируются история формирования гендерной лингвистики, её связь с социолингвистикой и феминистской критикой, а также её стилистическое исследование. В статье рассматривается*

становление гендера как важного параметра в языкознании, речевые стратегии и гендерные аспекты коммуникативных стилей. Кроме того, показано значение гендерных исследований в современной лингвистике и их роль в понимании коммуникативных процессов в обществе.

Ключевые слова: *гендерология, социолингвистика, феминистская критика, мужская речь, женская речь, коммуникативный стиль.*

Annotation: *Gender linguistics (genderology) is one of the modern branches of linguistics that studies the similarities and differences in the speech of men and women. This article analyzes the history of the formation of gender linguistics, its relationship with sociolinguistics and feminist criticism, as well as its stylistic investigation. The article discusses the development of gender as an important parameter in linguistics, speech strategies, and gender-related aspects of communicative styles. In addition, the significance of gender studies in modern linguistics and their role in understanding communicative processes in society are highlighted.*

Keywords: *genderology, sociolinguistics, feminist criticism, men's speech, women's speech, communicative style*.

Kirish. Gender tilshunosligi (genderologiya) – tilda erkak va ayollarga xos xususiyatlarni, ularning nutqidagi farq va o‘xshashliklarni o‘rganuvchi sohadir. U 20-asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1970-yillardan keyin, sosiolingvistika va feministik tanqid ta’sirida shakllandi. Gender tilshunosligi avvaliga ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan boshlandi – masalan, amerikalik tilshunos Robin Lakoff 1975 yilda “Language and Woman’s Place” asarida ayollar nutqiga xos deb hisoblangan belgilar (muloyimlik, hissiy murojaatlar, tasdiq so‘zlar va h.k.) qatorini berdi[1]. Keyinchalik Debora Tannen (1990) erkaklar va ayollarning muloqot uslubini qiyoslab, erkaklar “hokimlik” (hierarchy) tamoyiliga ko‘proq yondashsa, ayollar “tenglik” (rapport) tamoyilini ko‘proq afzal ko‘rishlari haqidagi nazariyani taklif

qildi[2]. Bunday tadqiqotlar albatta umumiy modellar bo‘lib, barcha erkak va ayollarga xos emasligi tanqid qilindi. Ammo aynan shu ilk izlanishlar natijasida tilshunoslikda jins o‘zgaruvchi tamoyil (parametr)lar sifatida e’tiborga olina boshlandi.

Asosiy qism. Gender stilistikasi – bu gender tilshunosligi va stilistikaning kesishgan joyi bo‘lib, matnlarda genderga oid mazmunning tilda qanday stilistik usullar orqali namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Britaniyalik olim S. Millsning “Feminist Stylistics” (1995) asari bu borada asos soluvchi ishlardan bo‘lib, u an’anaviy adabiy talqinlarda e’tibordan chetda qolib ketgan gender masalalarini til va uslub orqali ochib berishni maqsad qilgan. Masalan, feministik stilistika matndagi grammatik roddan tortib, so‘zlovchi nuqtai nazarigacha – hammasini gender stereotiplari mavjud yoki yo‘qligini aniqlash uchun tahlil qiladi [3]. Ayol yozuvchilar uslubini o‘rganish ham qiziq yo‘nalishdir: ko‘p hollarda tarixiy adabiyotlarda ayol yozuvchilarning asarlari “emotsional, so‘zlarga boy” uslubga ega deb baholangan, bu esa ba’zan kamsituvchi stereotipga aylangan. Feministik stilistika bunday qarashlarni tanqid qilib, har bir muallif uslubi individual ekanini ta’kidladi va uslub tahlilida genderdan anglashilgan qoidalarni qayta ko‘rib chiqildi.

Jahon tilshunosligida gender masalasini til va uslub doirasida o‘rganish masalasida bir necha yo‘nalish shakllangan: ayollar adabiyoti stilistikasi, maskulin stilistika (erkaklik obrazi yaratilishi) va hatto kvir stilistika (no-an’anaviy genderning tilda aks etishi) paydo bo‘ldi. Masalan, rus tilshunosligida A. Kirillina, Ye. Zemskaya kabi olimalar ayollar nutqining leksik o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar ayol va erkak mualliflar matnini qiyosiy kompyuter tahliligacha bordi – masalan, ingliz tilida ayrim tadqiqotchilar stilometriya yordamida matndagi so‘zlar chastotasi asosida muallifning jinsini aniqlashga urindi[4]. Natijalar ma’lum darajada farqlarni ko‘rsatdi (misol uchun, ayollar matnida shaxsiy ismlar va hissiy

so‘zlar nisbatan ko‘proq uchrashi kabi), biroq bu metodlar 100% aniq emasligi tan olingan.

Gender stilistikasining yutuqlaridan biri – adabiy matnlarning ijtimoiy-tarixiy kontekstini yaxshiroq ochib berishidir. Chunki jins masalasi ko‘p asarlarda yashirin yoki oshkora tarzda mavjud. Masalan, Shekspir sonetlaridagi lirik qahramon murojaati erkakka edimi yoki ayolga, degan savol uzoq yillar talqin qilingan; gender stilistikasi buni o‘sha davr poeziyasi an’analari va Shekspir uslubi orqali tahlil qilib, muayyan xulosalar bera oldi.

Shuningdek, gender yondashuvi matnlardagi seksizm va stereotiplarni aniqlab, ularga nazariy baho berish imkonini berdi. Masalan, ingliz tilida hozir *"fireman"/"policeman"* o‘rniga *"firefighter"/"police officer"* deyish kabi gender-neytral uslubning qaror topishida gender tilshunoslik nazariyalari ta’sir ko‘rsatdi. Xuddi shunday, o‘zbek tilida ham ilgari faqat ayollarga nisbatan ishlatilgan ba’zi atamalarni (masalan, "muallima" deganda faqat ayol o‘qituvchi) endi har ikkala jins vakili uchun “ustoz” leksemasini qo‘llash tendensiyasi kuchaymoqda – bu ham tilda gender yondashuvining amaliy natijasidir.

Yuqoridagi yutuqlar bilan birga ushbu yo‘nalishda ayrim kamchiliklarga ham ro‘baro‘ kelasan kishi. Gyender tilshunosligi va stilistika kesishgan joyda ba’zi bahslar mavjud. Ilk tadqiqotlar ba’zan biryoqlama, stereotiplarga asoslangan degan tanqid bo‘lgan (xususan, R. Lakoffning “ayollar nutqi” tavsifi hamma ayollarga tegishli emasligi ko‘rsatilgan). Bugungi kunda gender tushunchasi yanada keng – faqat erkak va ayol emas, balki jamiyatda turli gender identitetlar mavjudligi tan olinadi. Shu bois zamonaviy gender stilistikasi ham faqat ikkilik kategoriyalarda emas, balki nurli spektrda qarashni talab qiladi. Masalan, turli irq va millat vakillari orasidagi gender nutqi farqlari, yoki nobinar shaxslarning nutq xususiyatlari ham o‘rganilmoqda. Bu esa sohani yanada murakkablashtiradi, lekin shu bilan birga yanada inklyuziv qiladi.

O‘zbek adabiyoti va tilida gender stilistikasi hali katta tadqiqot mavzusi sifatida to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, ayrim ilmiy ishlar uchraydi. Masalan, o‘zbek xalq maqollarida ayol va erkak obrazlarining lingvistik talqini yoki o‘zbek zamonaviy shoir ayollar ijodi tilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud. Ular odatda ayollar tiliga xos deb ko‘rilgan nozik iboralar, erkaklar nutqiga xos deb kelingan sodda va keskin ifodalar borasida mulohaza yuritadilar.

Xulosa. Bu borada xulosa shuki, har bir til va adabiyot o‘z an’analariga ega va gender uslubi ham o‘sha an’analarda namoyon bo‘ladi. Masalan, mumtoz o‘zbek adabiyotida ayol mualliflar (Uvaysiy, Nodira) ijodida ham usluban o‘ta nafis, balandparvoz she’rlar uchraydi, erkak shoirlarda esa ishqiy lirikada o‘ta hassos ifoda tarzi mavjud. Demak, uslub genderdan qat’iy nazar, badiiy maqsadga bog‘liq; shuni anglash gender stilistikasining eng muhim xulosalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Lakoff G., Turner M. More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 230 p.
2. Tannen D. (1990) – You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine. (Erkaklar va ayollar nutq uslublarini solishtirgan mashhur asar).
3. Mills S. (1995) – Feminist Stylistics. London: Routledge. (Feministik stilistika bo‘yicha klassik tadqiqot).
4. Kirillina A.A. Gender i stilistika: teoreticheskie osnovy // Voprosy Jazykoznanija. – 2005. – №3. – S. 92–98.

TILLARNI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT: NAZARIY ASOSLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Jakbarova Nasibaxon Po‘latjonovna

Namangan davlat chet tillari instituti

jakbarovanastinka@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tillarni o'qitish jarayonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy oliy ta'limda chet tillarini o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Maqolada madaniyatlararo kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va tillarni o'qitishga integratsiyalashtirilgan innovatsion metodlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo yondashuv talabalarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so'zlar: *madaniyatlararo muloqot, tillarni o'qitish, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, oliy ta'lim, lingvomadaniy yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема развития межкультурной коммуникативной компетенции в процессе обучения иностранным языкам. Современное высшее образование предполагает не только формирование лингвистических знаний, но и воспитание навыков*

эффективного общения с представителями различных культур. В статье анализируется понятие межкультурной компетенции, её компоненты, а также влияние инновационных методов, интегрированных в обучение языкам, на эффективность образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что межкультурный подход существенно повышает коммуникативную компетенцию студентов.

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация, обучение языкам, коммуникативная компетенция, инновационные методы, высшее образование, лингвокультурный подход.*

Abstract. *This article examines the development of intercultural communicative competence in the context of language teaching. Modern higher education requires not only the formation of linguistic knowledge but also the cultivation of skills for effective communication with representatives of different cultures. The paper analyses the concept of intercultural competence, its components, and the impact of innovative methods integrated into language instruction on educational outcomes. The research findings demonstrate that an intercultural approach significantly enhances students' communicative competence and prepares them for real-world cross-cultural interaction.*

Keywords: *intercultural communication, language teaching, communicative competence, innovative methods, higher education, linguocultural approach.*

1. KIRISH

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda chet tillarini o'qitish an'anaviy grammatika-tarjimon va audio-lingval metodlardan keskin farq qiluvchi yangi talablarni ilgari surmoqda. Tillarni o'qitish nafaqat leksik-grammatik

kompetensiyani, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham shakllantirishi zarur. Jahon taraqqiyoti tadqiqotlari (UNESCO, 2023) shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun mutaxassislarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga egaligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida, xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini tubdan oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Shu bois, tillarni o'qitishda madaniyatlararo yondashuvni ilmiy asoslash va amaliy tatbiq etish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va samarali innovatsion metodlarni aniqlashdan iborat.

2. MADANIYATLARARO MULOQOT: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA NAZARIY ASOS

Madaniyatlararo muloqot (intercultural communication) — turli madaniy, etnik, milliy va ijtimoiy guruhlarga mansub shaxslar o'rtasidagi muloqot jarayoni bo'lib, u nafaqat til vositalaridan foydalanishni, balki madaniy xususiyatlar, qadriyatlar, normalar va stereotiplarni tushunishni ham taqozo etadi. Bu tushuncha ilmiy muomalaga birinchi marta E. T. Hall tomonidan 1959 yili kiritilgan bo'lib, keyinchalik G. Hofstede, M. Byram, J. Bennett va boshqa olimlar tomonidan chuqur rivojlantirilgan [3].

M. Byram (1997) ishlab chiqqan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli o'quv amaliyotida keng qo'llanilib, quyidagi beshta asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: bilimlar (knowledge), ko'nikmalar — o'rganish va kashf etish (skills of discovery), munosabatlar (attitudes), ko'nikmalar — talqin va bog'lash (skills of interpreting), tanqidiy madaniy xabardorlik (critical cultural awareness) [4]. Ushbu model til o'qitishda madaniy kontentni integratsiyalashtirishning ilmiy-metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

Hofstede (2010) tadqiqotlari madaniy o'lchamlar (cultural dimensions) kontsepsiyasini asoslab berdi. Uning modeliga ko'ra, madaniyatlar individualizm/kollektivizm, quvvat masofasi, noaniqlikdan qochish, erkaklik/ayollik va vaqtga yo'nalish kabi o'lchamlar bo'yicha farqlanadi. Til o'qituvchilari ushbu farqlarni bilishi va dars jarayonida ularni maqsadli ravishda muhokama qilishi zarur [5].

O'zbek tilshunosligida madaniyatlararo muloqot masalalari N.I. Mahmudov, A. Nurmonov, S. Matchonov, M. Yo'ldosheva kabi olimlarning asarlarida chuqur o'rganilgan. Xususan, N. Mahmudov (2012) o'zbek tilining madaniy-kommunikativ salohiyatini va uning xalqaro muloqotdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab berdi [6].

3. TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT MUAMMOLARI

Oliy ta'lim muassasalarida olib borgan kuzatuvlar va so'rovnomalar natijalari (2022-2024, n=320) shuni ko'rsatdiki, talabalarning 78% i chet tilini grammatik jihatdan yaxshi bilsalar-da, real madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida qiyinchilik his qilishadi. Bu hodisa adabiyotda "kommunikativ tafovut" (communicative gap) yoki "madaniy faolsizlik" (cultural passivity) deb ataladi [7].

Muammoning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: birinchidan, an'anaviy darsliklar ko'pincha madaniy kontentni ikkinchi darajali element sifatida taqdim etadi; ikkinchidan, o'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasi yetarlicha rivojlantirilmagan; uchinchidan, autentik materiallarga, ayniqsa, real muloqot vaziyatlariga doir audio-vizual manbalarga ega emas; to'rtinchidan, baholash tizimi asosan lingvistik bilimlarni tekshiradi, madaniy kompetensiyani o'lchamaydi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim muammo — bu "madaniy stereotiplashtirish" (cultural stereotyping). Ba'zi darsliklar va o'quv materiallari chet el madaniyatlarini yuzaki, bir tomonlama va ko'pincha stereotipli tarzda taqdim etadi. Bu esa talabalar ongida noto'g'ri tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi [8].

4. INNOVATSION METODLAR VA YONDASHUVLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion metodlar samarali ekanligini aniqlash mumkin.

4.1. Madaniyatga yo'naltirilgan kontent-til integratsiyalashgan ta'lim (CLIL — Content and Language Integrated Learning). CLIL yondashuvi predmet mazmunini va tilni bir vaqtda o'rgatadi. Masalan, tarix, iqtisodiyot yoki san'at fanlari bo'yicha darslar chet tilida olib borilib, bir vaqtning o'zida o'quvchilarda til ko'nikmalari ham, madaniyat haqidagi bilimlar ham shakllanadi. D. Marsh (1994) tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik D. Coyle tomonidan takomillashtirilgan bu yondashuv Yevropa ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda [9].

4.2. Virtual Madaniyatlararo Almashinuv (Virtual Exchange / Telecollaboration). Telekollaboratsiya loyihalari turli mamlakatlardagi talabalarni onlayn platforma orqali hamkorlikdagi topshiriqlarni bajarishga jalb etadi. Masalan, O'zbekiston va Germaniya

universitetlari talabalariga mushtarak loyiha topshiriqlari beriladi: ular video-suhbatlar, muhokamalar va birgalikdagi yozma ishlar orqali nafaqat tilni, balki bir-birlarining madaniyatini ham o'rganadilar. O'Brien va Levy (2008) o'tkazgan tadqiqotlar ushbu metodning madaniyatlararo kompetensiyani 45% ga oshirishini isbotlagan [10].

4.3. Madaniyatlararo Muhokama va Muammoli Ta'lim (Problem-Based Intercultural Learning). Bu usulda real yoki modellashtiri bo'lgan madaniyatlararo konflikt stsenariylari muhokama qilinadi. Talabalar turli madaniy kontekstlarda bir xil vaziyatga nima uchun farqli munosabat bildirilishini tahlil qiladilar. Masalan, O'zbek va Yapon biznes etiketi farqlari, yoki Amerikacha va O'rta Osiyo aloqa uslublarining taqqoslanishi kabi mavzular chuqur tahlilga tortiladi.

4.4. Raqamli Madaniy Portfolio (Digital Cultural Portfolio). Talabalar semestr davomida turli madaniyatlar haqida qiziqtirgan video, maqola, musiqa, rasm yoki hodisalar haqida refleksiv eslatmalar yuritadigan elektron portfolio yaratadi. Bu usul talabalarning madaniyatlararo kuzatuvchanligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi [11].

5. TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLIL

2022-2024 yillar davomida o'tkazilgan empirik tadqiqot uchta bosqichni qamrab oldi: diagnostika, tajriba-sinov ishlari va yakuniy baholash. Tadqiqotda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari (jami 320 nafar) ishtirok etdi.

Diagnostika bosqichida ishtirokchilarning dastlabki madaniyatlararo kompetensiyasi Byram modeli asosida ishlab chiqilgan test va so'rovnoma yordamida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning o'rtacha balli 10 ballik shkala

bo'yicha 4,2 ni tashkil etdi, ya'ni madaniyatlararo kompetensiya yetarlicha rivojlanmagan edi.

Tajriba-sinov bosqichida tajriba guruhlarida (n=160) yuqorida ta'riflangan to'rtta innovatsion metoddan foydalanildi. Nazorat guruhlarida (n=160) an'anaviy metod qo'llanildi. Bir semestr (18 hafta) davomida o'tkazilgan ta'lim jarayonidan so'ng yakuniy baholash natijalari quyidagicha bo'ldi: tajriba guruhlari o'rtacha balli 7,8 ni tashkil etdi (o'sish: +3,6 ball); nazorat guruhlari o'rtacha balli 5,1 ni tashkil etdi (o'sish: +0,9 ball). Tajriba guruhlarida lingvistik kompetensiya bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatildi: CEFR bo'yicha B1 dan B2 darajasiga o'tgan talabalar soni 62% ni tashkil etdi.

Sifatiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar asosida ta'lim olgan talabalar real madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida o'ziga ishonch, moslashuvchanlik va empatiya ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat guruhi tengdoshlaridan statistik jihatdan sezilarli darajada ustun keldi ($p < 0,05$). Ayniqsa, virtual madaniyatlararo almashinuv loyihalarida qatnashgan talabalar o'z madaniy stereotiplarini tanqidiy ko'rib chiqa olish va kulturashunos munosabatni shakllantirishda yuqori natija ko'rsatdi.

6. XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosa va tavsiyalarga asos beradi:

Birinchidan, tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda oliy ta'limning strategik maqsadiga aylanishi zarur. Globallashuv, raqamli aloqalar va xalqaro integratsiyaning kuchayishi bu kompetensiyani nafaqat zaruriy, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun muhim shartga aylantiradi.

Ikkinchidan, innovatsion metodlar — CLIL, virtual almashinuv, muammoli ta'lim va raqamli portfolio — an'anaviy metodlardan sezilarli darajada samaraliroq ekanligini

empirik tarzda isbotlash imkoni mavjud. Ushbu metodlar tilni madaniy kontekstda o'rgatib, talabalarning ham lingvistik, ham madaniyatlararo kompetensiyasini bir vaqtda rivojlantiradi.

Uchinchidan, o'qituvchilarga ham maxsus tayyorgarlik kerak. O'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini oshirish uchun malaka oshirish kurslari va xalqaro hamkorlik dasturlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi lozim.

To'rtinchidan, darslik va o'quv materiallari muallif jamoalariga madaniyatlararo muloqot tarkibiy qismlarini tizimli va chuqur integratsiyalash tavsiya etiladi. Stereotipik tasvir va yuzaki madaniy ma'lumotlar o'rniga autentik, ko'p qirrali va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan materiallar tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar va xalqaro hamkorlik dasturlari doirasida tajriba almashish, birgalikdagi tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion ta'lim modellarini ishlab chiqish kelajakdagi istiqbolli yo'nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Education for Sustainable Development. — Paris: UNESCO Publishing, 2023. — 112 p.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi 2022-2026. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti, 2022. — 67 b.
3. Hall, E. T. The Silent Language. — New York: Doubleday, 1959. — 240 p.
4. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 148 p.

5. Hofstede, G., Hofstede, G. J., Minkov, M. Cultures and Organizations: Software of the Mind. 3rd ed. — New York: McGraw-Hill, 2010. — 576 p.

6. Mahmudov, N. I. O'zbek tili kommunikativ salohiyati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. — 184 b.

7. Deardorff, D. K. The SAGE Handbook of Intercultural Competence. — Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2009. — 560 p.

8. Liddicoat, A. J., Scarino, A. Intercultural Language Teaching and Learning. — Chichester: Wiley-Blackwell, 2013. — 200 p.

9. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — 173

10. O'Brien, M. G., Levy, R. Virtual Exchange in Language Teaching: A Research Overview. // Language Learning & Technology. — 2008. — Vol. 12, No. 1. — P. 45-62.

11. Sercu, L. Teaching Foreign Languages in an Intercultural World // Intercultural Competence and Foreign Language Learning: Theories, Empirical Findings and Teaching Implications. — Munster: Waxmann, 2005. — P. 1-18.

12. Kramsch, C. Language and Culture. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 134 p.

13. Risager, K. Language and Culture: Global Flows and Local Complexity. — Clevedon: Multilingual Matters, 2006. — 262 p.

14. Yo'ldosheva, M. Xorijiy til o'qitishda lingvomadaniy yondashuv. // Tilshunoslik masalalari. — 2021. — No. 3. — B. 88-97.

15. Bennett, M. J. Basic Concepts of Intercultural Communication. 2nd ed. — Boston: Intercultural Press, 2013. — 364 p.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “UZOQDAGI DILNURA” HIKOYASIDAGI REALISTIK VOQEALAR TAHLILI

Karimova Gulirano Yo‘ldashbay qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

guliranokarimova07@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada U.Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi tahlil qilinadi. Tahlilda hikoyadagi xudbinlik va qahramonning ma’naviy tanazzulga yuz tutishi realistik uslub orqali ochib beriladi, qiyosiy-tahliliy usullardan foydalaniladi.*

Kalit so’zlar: *U.Hamdam, “Uzoqdagi Dilnura”, hikoyachilik, realizm, qiyosiy - tahliliy metod.*

Abstract. *This article analyzes Ulug‘bek Hamdam’s story Uzoqdagi Dilnura. The analysis reveals the selfishness in the story and the protagonist’s moral decline through a realistic style, using comparative and analytical methods.*

Keywords: *Ulug‘bek Hamdam, “Uzoqdagi Dilnura”, storytelling, realism, comparative-analytical method.*

Аннотация. *В данной статье анализируется рассказ Ulug‘bek Hamdam Uzoqdagi Dilnura. В ходе анализа посредством реалистического стиля раскрываются эгоизм и духовный упадок главного героя, а также используются сравнительно-аналитические методы.*

Ключевые слова: *Улугбек Хамдам, «Узокдаги Дилнура», жанр рассказа, реализм, сравнительно-аналитический метод.*

Inson tafakkurini o‘stirishda, ruhiyatiga ta’sir qilishda adabiyot beqiyos kuchga ega. Ayniqsa, hikoya janri hajman kichik bo‘lsa-da, o‘zida mazmunan katta ma’no ifodalaydi. “Hikoya – inson hayotidagi uncha katta bo‘lmagan bir voqea tasviridir. U hamma xalqlarning adabiyotlarida eng ko‘p uchraydigan janr hisoblanadi. XX asr o‘zbek adabiyotida A.Qodiriy, G’.G’ulom, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev va boshqa yozuvchilar hikoyaning eng yaxshi namunalarini yaratdilar”.[50] Hikoya kichik epik asar bo‘lib badiiy adabiyotda o’ziga xos o‘ringa ega. Unda ijodkor tomonidan insonlarning ichki kechinmalari, orzu-armonlari ixcham shaklda bayon qilinadi. O‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga o’zining munosib hissasini qo‘shgan va qo‘shib kelayotgan bir qator yozuvchilarimiz bor va ular yozgan hikoyalarning tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori darajada. Jumladan, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning yaratgan hikoyalarida o‘quvchi kichik janr orqali ham olam-olam ma’noni anglaydi. Hozirgi zamonaviy hikoyachilik vakillari Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Normurod Norqobilov, Isajon Sulton, Ulug’bek Hamdam hikoyalari esa realistik voqealarni tasvirlash mahorati bilan ajralib turadi va realizmning yorqin namunasi bo’la oladi.

Ulug’bek Hamdamning ijodiga nazar tashlansa, uning hikoyalarida rang-baranglikni kuzatamiz. “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi realistik yo’nalishning yorqin namunasi bo‘lsa, “Bir piyola suv”, “Tosh” hikoyalarida falsafiylik mavzusi ilgari suriladi. Ulug’bek Hamdam voqealarni shunchaki tasvirlab qolmasdan, qahramonning ichki olamini, ruhiy dunyosini aniq ko‘rsatishga harakat qiladi. Uning asarlarida inson shunchaki mavjudot emas balki, murakkab ruhiyatga ega shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Maqolada yozuvchining “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasidagi realistik voqealar tahlil qilindi. “Voqelikni to‘g’ri tushunish va uni hamma ziddiyatlari bilan badiiy obrazlarda

[50] Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” “O‘qituvchi” nashriyoti Toshkent - 2005

haqqoniy in’ikos ettirish realizm deb ataladi. Realizm kishilarni va ularning hayot sharoitini bezamasdan, rost tasvirlashni talab etadi. Shu ma’noda “realizm” termini adabiyot va adabiyotshunoslikda faqat XIX asrda, dastavval Fransiyada (ya’ni realistik adabiyot ilk marotaba shakllangan mamlakatda) qo‘llana boshlagan”.[51] Realizm – hayotni real voqea-hodisalarga muvofiq obrazlar orqali aks ettirishdir. Bu yo‘nalish yozuvchiga hayotning turli tomonlarini cheklanmagan tarzda aks ettirish imkonini beradi. Bunda yozuvchi hayot haqiqatini bor bo‘yicha tasvirlaydi.

Yozuvchi Ulug’bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi adib hikoyalari orasidagi eng mashhur hikoyalardan biridir. Asarda qahramonning boshidan kechirganlari realizm orqali mahorat bilan ochib berilgan. Xususan, qahramonning o‘z-o‘zi bilan kurashi, vijdon azobi va ma’naviy inqirozi realizm orqali juda aniq chiziladi. Asar qahramoni Kozimjon o‘rta yoshlardagi, katta lavozimda ishlaydigan, aysh-u ishratga berilib hatto yaqinlarining holidan ham xabar olmaydigan shaharlik qiyofasida tasvirlanadi. Kozimjon shahardagi uyida ayoli Mahzuna va qizi Ruhsora bilan birga yashaydi. Asarda Kozimjonning tog’asining vafoti va uning tog’asi bilan bog’liq bolalik xotiralari tasvirlanadi. Hikoya Kozimjonning ukasi Nozimjon bilan telefondagi suhbatidan boshlanadi. Nozimjon suhbat davomida Yunus tog’asining vafot etganligini aytadi. Kozimjon bu xabardan biroz shoshib qoladi va nima sababdan bunday bo‘lganligini so‘raydi, Nozimjon esa tog’asi oyoq kasalligi tufayli vafot etganligini aytadi. Shu o‘rinda Kozimjon ko‘p vaqtdan buyon tog’asining holidan xabar olmagaligini bilishimiz mumkin. Kozimjon tog’asining vafoti haqida eshitganidan so‘ng darhol yo‘lga chiqadi, ammo mashinasi shahar tashqarisiga chiqib ulgurmay telefoni yana jiringlaydi. Bu safargi qo‘ng’iroq uning o‘ynashi Sanamdan edi. Sanam unga olib bermoqchi bo‘lgan tillalari turkiyada kelganligini va unga ikki ming dollar

[51] Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” “O‘qituvchi” nashriyoti Toshkent - 2005

berishi kerakligini aytadi, Kozimjon biroz qo‘pol gapirganligi uchun Sanam xafa bo‘lib telefonni qo‘yib qo‘yadi. Kozimjon bo‘lsa darxol mashinani shaharga qarab haydaydi va o‘sha va’da qilingan ikki ming dollarni Sanamga berib qaytadi. Ammo ortga qaytganligi sababli tog’asining janozasiga yetib borolmaydi. “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasidagi telefon qo‘ng’iroqlari yoki Kozimjonning mashinasini ortga qaytishi bu shunchaki harakatlar emas, balki asardagi qahramonning ma’naviy tanazzulini ko‘rsatuvchi belgilardir. Hikoya davomida Kozimjon qabristonga yetib boradi va odamlar qaytib kelayotganini, qabristonda esa yangi qabr, tog’asining qabri do‘ppayib turganligini ko‘radi. Muallif ushbu epizod orqali qahramonning ma’navit inqirozini ko‘rsatib beradi: “Tog’asining yangi qabri ustida u uzoq qolib ketdi... Bo‘g’ziga nimadir tiqildi, ammo ko‘ziga yosh kelmadi. Yig’lay olmadi Kozimjon! Chunki u yig’lashni allaqachon unutgan edi...”[52] Shu o‘rinda Kozimjonning naqadar xudbin ekanligini ko’rishimiz mumkin, axir jonday tog’asi vafot etsa-yu u qayerdagi bir betarbiya ayolning tillalari uchun janozaga kelolmasa, tog’asini so‘nggi manzilga kuzotolmasa. Bu holat Kozimjonni shaharda yurib faqat o‘zini o‘ylaydigan xudbin bo‘lib ketganligining bir isbotidir. Voqealar davomida Kozimjonning xatti-harakatlari orqali yozuvchi hozirgi davr kishisining ma’naviy qiyofasidagi evrilishlarni mahorat bilan ochib beradi. Qahramon tog‘asining vafoti haqidagi xabarni eshitib turib, janozaga emas, balki Sanamning moddiy talablarini qondirish uchun ortga qaytishi — bu shunchaki tasodifiy voqea emas, balki qahramon ruhiyatidagi ma’naviy o‘liklikning tasviridir. Realizm tamoyillariga ko‘ra, bu o‘rinda insonning ichki dunyosi uning ijtimoiy muhiti va tanlovi orqali fosh etiladi. Hikoya davomida Kozimjon qabristondan chiqib ukasi Nozimjon bilan o‘z uyiga boradi va u yerda bir kech yotib qoladi. Ammo

[52] Ulug’bek Hamdam. Yaxshi odamlar: Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Oltin qalam, 2025. -424 b.

kechasi bilan uhlay olmasdan vijdon azobida qiynaladi, chunki shaharning yengil hayotiga o‘rganib tog’asining ahvolidan xabar olmagani, tog’asining bir paytlar pul so‘rab telefon qilgani, Kozimjon tezda pulni yetkazaman deb o‘z ishlari bo‘lib esidan chiqib ketganini eslaydi. Yozuvchi bu yerda qahramonni o‘z ichki qarama-qarshiliklar qurshovida tasvirlaydi. Ertasi kuni Kozimjon otasi bilan birga tog’asining uyiga boradi va u yerda jiyani Dilnurani ko‘radi. Dilnura otasining o‘limida akalarini aybdor sanar, akalari otasiga yaxshiroq qaraganlarida, ro‘zg’orga yordam berganlarida otasi bu olamni tark etmasligini aytib yig’lardi. Yozuvchi bu yerda ham yana bir bor qahramonni vijdon azobiga tashlaydi, chunki Kozimjon o‘zida bo‘la turib tog’asiga moddiy yordam berolmagani uchun ichida o‘zini aybdor hisoblaydi. Kozimjon kelinoyisining qo‘liga pul berib ro‘zg’orga yordam berib turishini aytib shaharga, uyiga qaytadi. Kunlarning birida Kozimjon yordamchisi bilan kechki payt bir restaranga tashrif buyuradi va u yerda raqqosalar arabcha kuyga xirom aylayotgan edi. Raqqosalardan biri Kozimjonning e’tiborini tortadi, raqqosa ham Kozimjonning oldiga kelib noz-karashma qilib raqsga tushar edi. Shu payt Kozimjonga ukasi Nozimdan telefon kelib qoladi, Kozimjon ukasi bilan gaplashib jiyani Dilnuraning vafot etganligini eshitadi ammo juda mastligi sabab unga bu voqea ta’sir qilmaydi. Telefonni qo‘yib yana restaranga kiradi va ziyofatni davom ettiradi. Ziyofat tugagach Kozimjon e’tiborini tortgan raqqosa bilan birgalikda mashinaga o‘tirib mehmonxonaga ketadi, yo‘lda raqqosa qizdan ismini so‘raydi, u bo‘lsa Dilnura deb javob beradi. Hikoyada realizmning yangicha talqini shundaki, adib qahramonni bir tomonlama qoralashdan yiroq. Yozuvchi Kozimjonning "ikki ming dollar" va "tog‘asining so‘nggi manzili" yoki “jiyani Dilnuraning vafoti” va “raqqosa Dilnura bilan bo‘lgan ko‘ngilxushlik” o‘rtasidagi tanlovi orqali qahramonning dunyoqarashi qanchalik tubanlashganini ko‘rsatadi. Kozimjonning qabristonga borganda faqat do‘ppaygan tuproqni ko‘rishi — uning hayotda ezgu amallar, mehr-oqibat va qadriyatlardan kechikkanligiga ishoradir.

Bu manzara yozuvchining realistik voqelikni haqqoniy va bezaklarsiz tasvirlash mahoratini tasdiqlaydi.

Ulug‘bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi hozirgi o‘zbek hikoyachiligida realizm an’analarining yangi bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Muallif asar orqali insonning shu qadar o‘zligidan uzoqlashishi mumkinligini, moddiyat asiriga aylanish fojeasini badiiy tarzda ko‘rsatib bergan. Xulosa qilib aytganda, hikoyadagi realistik voqealar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy asar kitobxonni nafaqat voqealar oqimi bilan tanishtiradi, balki uni o‘z vijdonini taftish qilishga, ma’naviy ildizlarga qaytishga undaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Izzat Sulton . Adabiyot nazariyasi: Darslik. - Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 270 b.
2. Ulug’bek Hamdam. Yaxshi odamlar: Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Oltin qalam, 2025. -424 b.
3. Yo‘ldoshev, Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 310 b.
4. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron katalogi [Elektron resurs]. – URL:http://www.natlib.uz (murojaat sanasi: 10.05.2026).

FOTIH DUMANNING “PIR” ASARIDA TARIXIY SHAXS VA TASAVVUFIY G‘OYALAR TALQINI

Karimova Munira Ahmadjanovna

Xalqaro Nordik universiteti

m.a.karimova2807@gmail.com

Soyibjonova Sarvinoz Burxon qizi

Xalqaro Nordik universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turk adibi Fotih Dumanning “Pir” asarida Ahmad Yassaviy obrazining badiiy talqini, tarixiy xotira va tasavvufiy-ma’rifiy g‘oyalarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda buyuk mutasavvifning bolalik davri, ilmga intilishi, ruhiy kamoloti, xalqni ezgulikka chorlashi hamda Amir Temur bilan bog‘liq rivoyatlar orqali tarixiy shaxs qiyofasi ma’naviy-axloqiy ideal darajasiga ko‘tariladi. Maqolada yozuvchining tarixiy voqelik, diniy rivoyat va badiiy tasvir imkoniyatlaridan foydalanish usuli, shuningdek, asardagi sabr, halollik, nafsni tiyish, e’tiqodga sadoqat va omonat masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Fotih Duman, Piri Turkiston, Ahmad Yassaviy, tarixiy qissa, tasavvuf, ma’rifat, e’tiqod, Amir Temur, badiiy talqin, ma’naviy tarbiya.*

Abstract. *This article analyzes the artistic interpretation of the image of Ahmed Yassavi, the historical memory, and the expression of mystical-enlightenment ideas in the work "Pir" by the Turkish writer Fatih Duman. The work depicts the great mystic's childhood, pursuit of knowledge, spiritual maturity, his call to goodness, and the narratives related to Amir Temur, raising the image of the historical figure to the level of a spiritual and moral ideal. The article explores the writer's use of historical reality, religious narrative, and artistic imagery, as well as the themes of patience, honesty, self-control, devotion to faith, and trust in the work.*

Keywords: *Fatih Duman, Piri Turkestan, Ahmad Yassavi, historical narrative, mysticism, enlightenment, faith, Amir Temur, artistic interpretation, spiritual education.*

So‘nggi yillarda turkiy xalqlar adabiyotida tarixiy xotirani tiklash, milliy-ma’naviy qadriyatlarni badiiy talqin qilish va tasavvufiy merosni zamonaviy o‘quvchi ongiga yaqinlashtirishga qaratilgan asarlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday asarlarda tarixiy shaxslar faqat o‘tmish vakili sifatida emas, balki bugungi kun kishisi uchun ham ma’naviy ibrat manbai bo‘la oladigan obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Fotih Dumanning “Piri Turkiston Ahmad Yassaviy” asari ham ana shunday badiiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi asarlar sirasiga kiradi. Unda Ahmad Yassaviy siymosi orqali iymon, sabr, poklik, halollik, ilmga muhabbat va xalq xizmatida bo‘lish kabi yuksak fazilatlar talqin etiladi.

Fotih Duman turk adabiy-madaniy muhitida diniy-ma’rifiy mavzularni yoritib kelayotgan ijodkorlardan biridir. Uning “Piri Turkiston Ahmad Yassaviy” asarida yozuvchi tarixiy manbalar, xalq orasida yashab kelgan rivoyatlar va tasavvufiy qarashlarni badiiy uslubda birlashtirishga intiladi. Asarning asosiy markazida Ahmad Yassaviy shaxsiyati tursa-da, matn tarkibida Amir Temur haqidagi rivoyatlar, Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam davri bilan bog‘liq ibratli epizodlar ham muhim g‘oyaviy vazifa bajaradi. Bu jihatlar qissani oddiy biografik bayondan ko‘ra kengroq ma’naviy-tarbiyaviy mazmunga ega badiiy asar sifatida baholash imkonini beradi.

“Pir” asarining bosh mavzusi Ahmad Yassaviy hayoti va uning turkiy xalqlar ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rnini badiiy yoritishdan iborat. Asarda qahramonning bolalik yillari, yetimlik mashaqqatlari, ilmga chanqoqligi, ustozlardan ta’lim olishi va keyinchalik xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan murshid sifatida shakllanishi tasvirlanadi. Yozuvchi Ahmad Yassaviyni faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki ma’naviy yetuklik timsoli, xalq qalbiga e’tiqod nurini olib kirgan pir sifatida ko‘rsatadi.

Asarda asosiy e’tibor inson ruhiyatini poklash, nafsni jilovlash, sabr-qanoatli bo‘lish, halol yashash va e’tiqodga sodiq qolish g‘oyalariga qaratilgan. Bu g‘oyalar qahramonning hayot yo‘li, atrofidagi insonlar bilan munosabati, duch kelgan sinovlari va rivoyatlar tizimi orqali ochib beriladi. Ayniqsa, “E’tiqod qilganingdek yasha” mazmunidagi fikr asarning umumiy ruhini belgilovchi g‘oyaviy tayanch vazifasini

bajaradi. Chunki yozuvchi uchun e’tiqod faqat til bilan aytiladigan tushuncha emas, balki insonning butun hayoti, xulqi va amali bilan tasdiqlanadigan qadriyatdir.

Asarda Ahmad Yassaviy obrazi poklik, sabr, ilmga muhabbat va xalqparvarlik fazilatlari bilan boyitilgan holda tasvirlanadi. Qahramonning bolalik davrida yetimlik sinovlariga duch kelishi, opasi bilan birga hayotning og‘irliklarini boshdan kechirishi uning ruhiy chiniqish jarayonini ko‘rsatadi. Badiiy matnda qahramonning erta ulg‘ayishi, ilmga chanqoqligi va ma’naviy izlanishlari uning keyingi kamolotiga zamin yaratadi.

Yozuvchi Ahmad Yassaviy siymosida turkiy islom madaniyatining muhim jihatlarini mujassamlashtiradi. U xalqni faqat diniy bilimga emas, balki odob, halollik, mehr-shafqat va pok niyat bilan yashashga chorlovchi ma’rifatparvar shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli asarda Ahmad Yassaviy obrazi tarixiy voqealar doirasida qolib ketmaydi; u o‘quvchini axloqiy mushohadaga undaydigan ramziy obraz darajasiga ko‘tariladi.

Ahmad Yassaviy obrazining muhim jihatlaridan biri — uning xalq bilan yaqinligi. U o‘zini jamiyatdan ajratmaydi, aksincha, xalq dardini his qiladi, insonlarni ezgulikka yetaklashni o‘z hayotining mazmuni deb biladi. Bu holat asarda tasavvufiy murshid obrazining asosiy belgilaridan biri sifatida talqin etiladi. Qahramonning ruhiy qudrati tashqi hashamat yoki kuch bilan emas, balki ichki poklik, e’tiqod mustahkamligi va Allohga muhabbat orqali ochiladi.

Asarning boshlanish qismida Amir Temur bilan bog‘liq rivoyatning keltirilishi bejiz emas. Rivoyatga ko‘ra, Sohibqiron tushida Ahmad Yassaviyni ko‘radi va bu tush uning keyingi harakatlariga ma’naviy ishora bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik Amir Temurning Turkistonga kelishi, Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirishga buyruq berishi asarda tarixiy xotira va ehtirom g‘oyasini kuchaytiradi.

Maqbara poydevorining qayta-qayta qulab tushishi haqidagi epizod esa asardagi sirli-ramziy tasvirlardan biridir. Bu voqea tashqi tomondan g‘ayritabiiy hodisa sifatida ko‘rinsa-da, uning ichki mazmunida muqaddas zotlar xotirasiga munosabatda faqat moddiy qudratning o‘zi yetarli emasligi haqidagi g‘oya seziladi. Ya’ni tarixiy shaxsga hurmat, avvalo, ma’naviy poklik, ixlos va e’tiqod bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, Amir Temur obrazining asarga kiritilishi Ahmad Yassaviy maqomining tarixiy va ma’naviy ulug‘ligini yanada yorqinroq ko‘rsatadi.

Muso Barlos va Xoja Abdulloh Sadr bilan bog‘liq sahnalar esa qissaga dramatik keskinlik beradi. Devorning qulab tushishi, tun qorong‘usida sirli qushning paydo bo‘lishi, oq yaktak kiygan nuroniy qariya tasviri o‘quvchida mo‘jizaviy muhit hissini uyg‘otadi. Bu tasvirlar orqali yozuvchi tarixiy rivoyatni badiiy sarguzasht unsurlari bilan boyitadi va o‘quvchini voqelikning ma’naviy qatlamini anglashga yo‘naltiradi.

Fotih Duman asarida diniy-ma’rifiy g‘oyalar qahramonlar nutqi, rivoyatlar va ramziy epizodlar orqali beriladi. Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam davri bilan bog‘liq xurmo omonati haqidagi rivoyat shular jumlasidandir. Unda ochlik va mashaqqat sharoitida mo‘minlarning sabri, Rasulullohning ummatga mehribonligi hamda kelajakda Turkiston diyorida Islom nurini yoyadigan Ahmad Yassaviyga ishora qilinishi asarning ma’naviy ko‘lamini kengaytiradi.

Xurmo omonati ramziy ma’noga ega. U faqat moddiy ne’mat emas, balki ishonch, mas’uliyat va ma’naviy vazifaning belgisi sifatida talqin qilinadi. Ahmad Yassaviyga nisbat berilgan bu omonat uning kelajakdagi ulug‘ xizmatiga ishora qiladi. Demak, asarda omonat tushunchasi inson zimmasidagi ma’naviy burch, xalqni haqiqatga boshlash vazifasi va e’tiqodga sadoqat ma’nolarini ifodalaydi.

Bundan tashqari, asarda nafsni tiyish masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Tasavvufiy qarashlarda inson kamolotining asosiy sharti uning o‘z nafsini tarbiyalashi bilan belgilanadi. Fotih Duman qahramon hayoti misolida bu g‘oyani badiiy ravishda ochib beradi. Ahmad Yassaviy obrazi o‘quvchiga shuni anglatadiki, haqiqiy ulug‘lik tashqi martaba yoki obro‘da emas, balki qalb pokligi, sabr, kamtarlik va Allohga muhabbatda namoyon bo‘ladi.

Asarning badiiy uslubida tarixiy bayon, rivoyat, tasavvufiy hikmat va sarguzasht unsurlari uyg‘unlashgan. Yozuvchi voqealarni oddiy xronologik tartibda bayon qilish bilan cheklanmaydi, balki tabiat tasvirlari, tush, sirli hodisa, ramziy obraz va dialoglardan foydalanadi. Masalan, Sayramga bahor kirib kelishi tasvirlangan sahnalarda tabiat manzarasi qahramonlar yashayotgan muhitning osoyishtaligini, xalq hayotidagi poklik va go‘zallikni ifodalashga xizmat qiladi. Bahor shabbodasi, qovun hidi, Qorasuv irmog‘i kabi detallar matnga lirizm bag‘ishlaydi.

Tush motivi asarda alohida ahamiyatga ega. Amir Temurning tushida Ahmad Yassaviyni ko‘rishi voqealar rivojiga turtki beradi. Sharq adabiyotida tush ko‘pincha ilohiy ishora, ruhiy ogohlantirish yoki kelajakdagi voqealarga ramziy tayyorgarlik

sifatida talqin etiladi. Fotih Duman ham ushbu an’anadan unumli foydalanadi. Natijada tarixiy voqelik bilan badiiy tasavvur o‘rtasida tabiiy bog‘liqlik yuzaga keladi.

Dialoglar esa qahramonlarning ichki holati va voqeaga munosabatini ko‘rsatadi. Xoja Abdulloh Sadrning qo‘rquvi, Amir Temurning qat’iyati, Muso Barlosning hayrati kabi holatlar asarda jonli ruhiy vaziyat yaratadi. Shu bilan birga, sirli qush va nuroniy qariya obrazlari ramziy-ma’naviy qatlamni kuchaytiradi. Ular orqali yozuvchi inson aqli bilan to‘liq anglab bo‘lmaydigan ilohiy hikmat mavjudligiga e’tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Fotih Dumanning “Piri Turkiston Ahmad Yassaviy” asari tarixiy shaxs, tasavvufiy tafakkur va badiiy rivoyatni uyg‘unlashtirgan ma’rifiy qissa sifatida e’tiborga loyiqdir. Asarda Ahmad Yassaviy obrazi ilmga chanqoq, sabrli, halol, xalqparvar va e’tiqodiga sodiq murshid sifatida tasvirlanadi. Amir Temur, maqbara qurilishi, xurmo omonati kabi epizodlar esa qahramonning tarixiy-ma’naviy maqomini yanada yuksaltiradi.

Asarning asosiy badiiy-estetik yutug‘i shundaki, unda tarixiy voqealar quruq ma’lumot tarzida emas, balki o‘quvchining ruhiy olamiga ta’sir ko‘rsatadigan ramziy va ma’rifiy talqin orqali beriladi. Fotih Duman Ahmad Yassaviy siymosi orqali insonni nafsni yengishga, qalbni poklashga, ilm va e’tiqod yo‘lida sobit turishga chaqiradi. Shu sababli mazkur asar nafaqat tarixiy-adabiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duman F. Piri Turkiston Ahmad Yassaviy / Turk tilidan Muhriddin Muhammad Amin tarjimasi. – Toshkent: Nasim Kutub, 2022.

2. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, turli nashrlar.

3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.

4. Karimov N., Normatov U. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

5. Qayumov A. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.

THE PSYCHOLOGICAL GEOGRAPHY OF MULTICULTURAL LONDON IN WHITE TEETH

Nazarova G. P.
Bukhara State University
g.pnazarova@buxdu.uz
Umurqulova Mashhura
Bukhara State University

